4/2024

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(To‘rtinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2024

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:

Govxar Raxmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. O‘ktam Mavlonov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi;**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Shakirova Zulfiya Normahamatovna
Arab tilini elektron platformalar orqali o‘rganishda leksik-grammatik masalalarga e’tibor .. 4

Karimova Shaxloxon G‘aniyevna
Uyg‘ur-o‘zbek shoirlari ijodida mushtarak jihatlar: mazmun-mundarija, janr va uslub 14

Salimova Zebo Rustam qizi
Turk va o‘zbek tillarida inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar va ularning leksik-semantik tahli 23

Sabirova Zuxra Shakirovna
Turk va o‘zbek tillarida qarindoshlik atamalari tizimining lisoniy kategoriya sifatida o‘rganilishi 31

Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich
Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur xususiyatlari: umumiy va farqli jihatlar 39

Rahmatova Bahora Ibodulla qizi
The role of speech acts in legal discourse: a pragmalinguistic perspective 50

Khudoyorov Omonjon Tursunovich
The contribution of the internet to the teaching of foreign languages 61

TARIX

Rahimov Komiljon Rahmatovich
Xojagon-naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi, yoyilishi va xorijiy o‘lkalarga tarqalishi 70

Boboyev Feruz Sayfullayevich
O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi kurashning kuchayishi (1931-yil) 81

Gaipnazarov Rahmatilla Rahimboyevich
Maktablarda “tarbiya” fanini tashkillashtirishga oid tarixiy-milliy yondashuv va ajdodlar tajribasi 89

Sherzod Jo‘rayev Norovich
Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davridagi tadqiqotlarda Sulton Husayn Boyqaro davri 98

Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li
Shayboniylar davri siyosiy jarayonlarida etnik birliklarning o‘rni 106

Tojiyev Dostonjon Beknazar o‘g‘li
“Turkiy dunyoning madaniyat poytaxtlari” (Turkiya va Ozarbayjon shaharlari misolida) 122

Rahmonkulov Ikromqul Xudoyberdiyevich
Tojikiston-Tolibon munosabatlari tarixi 135

ATTENTION TO LEXICAL-GRAMMATICAL ISSUES WHILE LEARNING ARABIC THROUGH ELECTRONIC PLATFORMS

Shakirova Zulfiya Normahamatovna
International Islamic Academy of Uzbekistan
Associate Professor of the Department
of "Arabic Language and Literature Al-Azhar", PhD
Tel.: +998 90 322-74-73
e-mail: zulfiashakirova73@gmail.com

Annotation. Language learning is one of the most important areas in human society. Language, which is a means of communication, can be learnt practically in the natural environment - in the family, in society or in an organised way, i.e. in the classroom. Nowadays, when international relations with different states are developing, the knowledge of foreign languages, especially multilingualism (polyglossia) is of great importance. In our country there is also a growing interest in learning foreign languages. We can see the relevance of learning foreign languages on the example of the presidential decrees issued in 2012 and 2021 after independence. The development of information technologies and popularisation of the Internet have introduced a new concept into the education system - "distance learning". In distance learning, a student and a teacher are in the process of learning, which is carried out with the help of Internet technologies or other interactive methods. The spread of COVID-19 pandemic around the world caused the growth and development of distance learning types. Subjects were taught remotely in all educational institutions. This included extensive opportunities for foreign language acquisition. The possibilities of E-learning (Electronic Learning) expanded and the functioning of various electronic platforms was improved. While the data for learning was obtained from the early e-platforms, in the later period, the learner has the opportunity to check the knowledge he has learnt. E-platforms have provided immense conveniences such as time and financial savings for those who want to learn foreign languages but cannot afford it. This article reveals the role of Al-Jazeera platform in learning Arabic through e-platforms. Through this platform, the stages and methods used are highlighted in order to learn Arabic perfectly.

Keywords: *Arabic language, e-platform, grammatical skills, listening, speaking, reading, writing, testing.*

ARAB TILINI ELEKTRON PLATFORMALAR ORQALI O'RGANISHDA LEKSIK-GRAMMATIK MASALALARGA E'TIBOR

Shakirova Zulfiya Normahamatovna

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Араб tili va adabiyoti al-Azhar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.
Tel.: +998 90 322-74-73
e-mail: zulfiashakirova73@gmail.com

Annotatsiya. Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda – oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda, ya’ni darsda amaliy egallash mumkin. Turli davlatlar bilan xalqaro munosabatlar rivojlanayotgan zamonamizda xorijiy tillarni bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) katta ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda ham chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Chet tillarini o‘rganish dolzarb ekanligini mustaqillikdan so‘ng 2012 va 2021-yillarda chiqarilgan Prezident qarorlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internetning ommalashuvi ta’lim tizimiga yangi – “*masofaviy ta’lim*” tushunchasini olib kirdi. Masofaviy ta’lim bu o‘quvchi va o‘qituvchi Internet texnologiyalari yoki boshqa interfaol usullar yordamida amalga oshiriladigan o‘qitish jarayonidir. “COVID-19” pandemiyasining butun dunyoga yoyilishi masofaviy ta’lim turlarining ko‘payishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Barcha ta’lim maskanlarida fanlar masofadan o‘rgatildi. Shu jumladan xorijiy tillarni ham egallashga keng imkoniyatlar yaratildi. Masofaviy o‘qitishning turlaridan biri bo‘lgan E-learning (Electronic Learning) “elektron o‘rganish”ning imkoniyatlari kengayib, turli elektron platformalar faoliyati takomillashdi. Dastlabki elektron platformalardan o‘rganish uchun ma’lumotlar olingan bo‘lsa, so‘nggi davrda unda ta’lim oluvchi o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish imkoniyati tug‘ildi. Elektron platformalar xorijiy tillarni o‘rganishni xohlovchi, lekin bunga imkoniyati yo‘qlarga vaqt va moliyaviy xarajatlarni tejash kabi juda katta qulayliklar yaratib berdi. Ushbu maqolada arab tilini elektron platformalar yordamida o‘rganishda al-Jazira platformasining roli ochib berilgan. Bu platforma orqali arab tilini mukammal o‘rganish uchun qanday bosqichlar mavjudligi va qo‘llangan uslublar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *arab tili, elektron platforma, grammatik ko‘nikmalar, tinglash, gapirish, o‘qish, yozish, test.*

ВНИМАНИЕ К ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИМ ВОПРОСАМ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА ЧЕРЕЗ ЭЛЕКТРОННЫЕ ПЛАТФОРМЫ

Шакирова Зульфия Нормахматовна
Международная исламская академия Узбекистана
Доцент кафедры «Арабский язык и литература аль-Азхар», к.и.н.
Тел: +998 90 322-74-73
e-mail: zulfiashakirova73@gmail.com

Аннотация. Изучение языка является одной из важнейших областей в человеческом обществе. Язык, являющийся средством общения, может быть освоен практически в естественной среде – в семье, в обществе или организованно, то есть на уроке. В наше время, когда развиваются международные отношения с различными государствами, большое значение приобретает знание иностранных языков, особенно многоязычие (полиглоссия). В нашей стране также растет интерес к изучению иностранных языков. Актуальность изучения иностранных языков мы можем видеть на примере президентских указов, изданных в 2012 и 2021 годах после обретения независимости. Развитие информационных технологий, популяризация интернета внесли в систему образования новое понятие – “дистанционное обучение”. В дистанционном обучении ученик и учитель – это процесс обучения, который осуществляется с помощью Интернет-технологий или других интерактивных методов. Распространение пандемии COVID-19 по всему миру вызвало рост и развитие видов дистанционного обучения. Предметы преподавались дистанционно во всех учебных заведениях. В том числе были созданы широкие возможности для овладения иностранными языками. Расширились возможности E-learning (Electronic Learning) то есть “электронного обучения”, усовершенствовался функционирование различных электронных платформ. В то время как данные для обучения были получены с ранних электронных платформ, в более поздний период у обучающегося появилась возможность проверить знания, которые он усвоил. Электронные платформы предоставили огромные удобства, такие как экономия времени и финансовых затрат для тех, кто хочет изучать иностранные языки, но не может себе этого позволить. В этой статье раскрывается роль платформы ‘Аль-Джазира” в изучении арабского языка с помощью электронных платформ. Через эту платформу освещаются этапы и применяемые методы, чтобы выучить арабский язык в совершенстве.

Ключевые слова: *арабский язык, электронная платформа, грамматические навыки, аудирование, разговор, чтение, письмо, тестирование.*

KIRISH

Chet tillarini o‘qitish doim davr talabi hisoblangan. Davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi yosh kadrlarga ehtiyoj ortmoqda. Bunda O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimiga chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha xalqaro ta’lim standartlarini joriy qilish va “Chet tillarini egallashning Umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish, baholash” darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tillarni egallash dolzarb ekanligini 2012-yilda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi 1875-sonli "Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[1] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5117-sonli qarorlari[2] misolida ko‘rish mumkin. Mazkur qarorlarda xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish, bilimlarni baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan ta’lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta’lim shakllarini keng qo‘llash vazifalari belgilab berilgan. Chunki til kompetensiyalarini egallash uchun o‘rganish jarayonida texnik vositalardan foydalanish yuqori samaraga erishishni kafolatlaydi. Hozirgi kunda chet tillarini turli uslublar yordamida, xususan o‘qituvchisiz o‘rganish ommalashmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab tilini elektron platformalar orqali o‘rganish jarayoni zamonaviy ta’lim texnologiyalari va pedagogik usullarni birlashtirishni talab etadi. A. Abduqodirov va A. Pardayev masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyotida ta’lim jarayonini yaxshilash uchun zamonaviy yondashuvlarni taklif etadilar. B. Farberman ilg‘or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishni ta’kidlaydi. A. Hayitov hamda N. Boymurodov interfaol usullar va noan’anaviy darslar yordamida ta’limni rivojlantirish zarurligiga urg‘u beradi. J. Jalolov esa chet tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Shu bilan birga, M. Yo‘ldosheva axborot texnologiyalari va elektron ta’limning ahamiyatini ta’kidlab, ular orqali til o‘rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu adabiyotlarning har biri arab tilini o‘rganishda, leksik-grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish va talabalarning o‘zaro aloqasini kuchaytirishda o‘z ahamiyatiga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Arab tilini elektron platformalar orqali o‘rganishda leksik-grammatik masalalar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot metodologiyasi sifatida, avvalo, internet resurslari tahlil qilindi. Ushbu resurslar, masalan, onlayn darsliklar, video darslar va interaktiv ilovalar, talabalarga arab tilining lug‘aviy va grammatik jihatlarini o‘rganishda yordam beradi. Shuningdek, virtual sinflar va forumlar orqali o‘zaro muloqot va fikr almashish tilni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Leksik-grammatik qoidalarni o‘rganishda

[1] PQ-1875-сон 10.12.2012. Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
[2] 312-сон 19.05.2021. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

talabalar misollar, mashqlar va testlar orqali nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, o‘quvchilar tomonidan yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha eksperimental metod orqali qo‘shimcha tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Arab tilini o‘rganishda masofaviy ta’lim turlaridan E-Learning (Elektron o‘rganish)da Al-Jazira elektron platformasining ahamiyatli ekanini ko‘rsatib berish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Al-Jazira elektron platformasi haqida umumiy ma’lumot berish;
- Elektron platforma bo‘limlari faoliyatini tanishtirish.

Masofadan o‘qitish bu Internet tarmog‘i orqali sizga qulay bo‘lgan vaqtda o‘qishdir. Masofadan o‘qitishning tarkibiy belgilari: o‘qituvchi, o‘quvchi, kommunikatsiyadir. Masofali ta’lim G‘arbda an’anaviy bo‘lib qoldi: har bir yuqori mavqega ega bo‘lgan universitet hozirgi kunda albatta, masofali ta’lim dasturiga ega. Ko‘plab maxsus “masofali o‘quv yurtlari”ga asos solinmoqda, va o‘z navbatida ulardan dunyoda mashhurlari turli mamlakatlarda o‘zlarining bo‘limlarini ochmoqdalar (misol uchun, Britaniyada Open University). Taxminlarga qaraganda, aynan masofali ta’lim (an’anaviy o‘qish shakllari bilan birgalikda) keng tarqalib bormoqda, olimlar ta’limning bu shaklini “kelajak ta’limi” deb atamoqdalar. Ko‘pchilik chet el davlatlari masofali ta’limni ustuvor yo‘nalish deb e’lon qildilar va ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga katta mablag‘lar ajratmoqdalar. Bu jarayonni amerikaliklar boshlab berdilar. Hozirgi kunda masofaviy ta’lim AQShda mukammal shakllangan bo‘lib, uning vujudga kelishi 1970-yillar oxiriga borib taqaladi. Avvalida masofaviy ta’lim sohasida o‘quv muassasalari yakka holda faoliyat olib bordilar. 1980-yillarda yo‘ldosh teleko‘rsatuvlar rivojlanib borishi bilan, bu o‘quv kurslari ustida bir necha o‘quv muassasalari hamkorlikda ish olib bordilar. Global kompyuter tarmoqlarining shiddat bilan rivojlanishi inson faoliyatining hamma sohasiga, shu jumladan, ta’lim olish sohasiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. So‘nggi paytlarda ta’limning ushbu turi Yevropada ham faol rivojlanmoqda. Avstraliya ta’lim dasturlarini ommaviy ravishda kompyuter tiliga o‘tkazib, ularni faol eksport qilmoqda.

E-learning (Electronic Learning) – elektron o‘qitish tizimi, elektron o‘qitish, masofali o‘qitish, kompyuterli o‘qitish, tarmoqli o‘qitish, virtual o‘qitish, axborot va elektron texnologiyalarini qo‘llab o‘qitish kabi atamalarining sinonimidir.

YUNESKO mutaxasssislari e-Learning - Internet va multimedia yordamida o‘qitish» deb ham ta’rif bergan.

Bu mazmunan juda ko‘p ma’noni anglatishi mumkin, jumladan:

► shaxsiy kompyuter, mobil telefon, DVD, audio-video-radio-televizorlardan foydalanib elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;

► uzoqdagi o‘qituvchidan maslahat olish, masofali muloqot qilish imkoniyati;

► umumiy virtual o‘quv faoliyatni yurituvchi foydalanuvchilarning taqsimlangan jamoasi (ijtimoiy tarmoq)ni yaratish;

► elektron o‘quv materiallarni o‘z vaqtida kun-u tun yetkazish;

► elektron o‘quv materiallari va texnologiyalari, masofali o‘qitish vositalari uchun me’yorlar va spesifikatsiyalar;

► innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallash va tarqatish, ularni o‘qituvchilarga uzatish;

► o‘quv veb-ashyolarni rivojlantirish imkoniyati;

► dunyoning ixtiyoriy nuqtasida turib ixtiyoriy vaqtda va ixtiyoriy joyda zamonaviy bilim olish;

► psixofizik rivojlanishida (nogiron) alohida xususiyatlari mavjud bo‘lgan shaxslarga oliy ta’lim olish mumkinligi (Rahimov O., Turg‘unov O., Mustafoyev Q., Ro‘ziyev H., 2013:61).

2019-yilda “COVID-19” pandemiyasining butun dunyoga yoyilishi ta’lim sohasiga ham o‘zining ham salbiy ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Ta’lim oluvchilar uchun ta’lim jarayoni to‘xtatib qo‘yilmasdan darslar televideniye, ijtimoiy tarmoqlar orqali masofaviy tarzda olib borildi. Bu esa albatta ijtimoiy tarmoqlarda o‘quv fanlarini turli uslublar bilan o‘tish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga o‘qituvchi va o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari rivojlandi. Ijtimoiy tarmoqlarda chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha mavjud platformalar o‘z faoliyatlarini rivojlantirdi va shu bilan birga turli yangi platformalar ham yaratila boshlandi.

Masofaviy o‘qitishning turlaridan biri bo‘lgan E-learning “elektron o‘rganish”ning imkoniyatlari kengayib, turli elektron platformalar faoliyati takomillashdi. Dastlabki elektron platformalardan o‘rganish uchun ma’lumotlar olingan bo‘lsa, so‘nggi davrda unda ta’lim oluvchi o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirishi imkoniyati tug‘ildi. Elektron platformalar xorijiy tillarni o‘rganishni xohlovchi, lekin bunga imkoniyati yo‘qlarga vaqt va moliyaviy xarajatlarni tejash kabi juda katta qulayliklar yaratib berdi.

Mamlakatimizda ham masofali ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvarda chiqargan 34-sonli qarorida mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish uchun - xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta’minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, tilning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontent yaratish vazifalari belgilab qo‘yildi.

Sharq tillaridan bo‘lgan arab tilini o‘rgatish bo‘yicha yaratilgan al-Jazira platformasi ham pandemiya sharoitida masofaviy ta’lim uchun eng zarur platformaga aylandi.

“Al-Jazira” arab tilini o‘rgatish platformasi ushbu tilni o‘rganishga qiziqqanlar uchun juda foydali platforma hisoblanadi. Uning yordamida talaba boshlang‘ich darajadan yuqori darajagacha bo‘lgan til ko‘nikmalarini egallashi mumkin.

Al-Jazira platformasidan foydalanilganda talaba o‘qituvchi bilan yoki o‘zi o‘rganishi ko‘zda tutilgan. Lekin undan o‘qituvchi bilan birgalikda til o‘rganilsa foydaliroq. Chunki o‘qituvchi talabani mavzularni qanday o‘zlashtirib borayotganligini kuzatish bilan birga u tushunmagan qoidalarni tushuntirib berishi samaraga erishishni tezlashtiradi. Ushbu turkum Qatar universiteti qoshidagi arab tili ona tilisi bo‘lmaganlarga arab tilini o‘rgatish markazi professori doktor Bashar Mustafo al-Afyuniy tomonidan professor Layali Ahmad ad-Darziy bilan hamkorlikda tayyorlangan.

Ushbu platformadagi bo‘limlarni o‘rganadigan bo‘lsak, harflarni o‘rgatish qismida dastlab barcha harflar alifbo tartibida yakka holda ko‘rsatilib nomlari aytiladi. So‘ngra ular bitta lavhada ketma-ketlikda qo‘yilib talaffuz qilinadi. Oxirgi bosqichda harflar ko‘rsatilganda o‘qib berilmaydi, bu bosqich talabalarning harflarni takrorlab mustahkamlashi uchun mo‘ljallangan. Talaba harflarni ko‘rib o‘zlashtirgach, o‘zini turli mashqlar orqali sinab ko‘rishi mumkin. Ushbu mashqlar mavzudan so‘ng beriladi.

Quyidagi mashq turida talaba tinglab tushunish ko‘nikmasi bo‘yicha o‘z bilimini sinab ko‘radi. U tinglagan harf tovushini pastdagi yozuvdan to‘g‘ri topa olishi kerak.

Keyingi mashq turi ham tinglashga oid bo‘lib, unda talaba tinglagan harflarini ketma-ketligini raqamlar orqali belgilashi kerak. Alifboni umumiy tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan darsning so‘nggi mashqida harflar tartibini to‘g‘ri belgilash talab etiladi.

Har bir mashq bajarilgach uning natijasini aniqlash mumkin.

Agar mashqda biror xato bo‘lsa, u qizil rang bilan ko‘rsatiladi. Talaba ushbu xatoni mashqni qayta ishlash bilan to‘g‘rilashi mumkin. Mashqni qayta ishlash imkonining borligi talabaga o‘zlashtirgan mavzusini mustahkamlashga yordam beradi.

Keyingi darslarda harflar alohida bittalab o‘rgatiladi. Talaba videodars oxirida harflarning so‘z boshi yoki o‘rtasi va oxirida qanday yozilishini ham o‘rganadi. Bundan tashqari o‘rgatilayotgan harflar ishtirok etgan so‘zlarni o‘zlashtiradi. So‘zlar ekranda o‘ng tomonda ingliz yoki boshqa tillarga tarjimasi bilan berilgan.

So‘zlar o‘rganilishi jarayonida ularni o‘zlashtirilganini tekshirish uchun turli mashqlar berilgan. Bu mashqda tinglab, o‘rganilgan so‘z rasmi topilishi kerak. Ma’lumki, biror yangi ma’lumot yoki chet tilidagi yangi so‘zlarni rasmlar yordamida o‘rganish, uni xotirada tez saqlab qolishga yordam beradi.

Berilayotgan mashqlar asosida talabada bir vaqtning o‘zida tinglab tushunish, o‘qib tushunish va yozish mahoratlari bo‘yicha ko‘nikma shakllantiriladi. Bundan

tashqari ushbu platformaning yana bir qulay tomoni shundaki, unga shaxsiy kompyuter bilan bir qatorda qo‘l telefonlari orqali ham kirib, darslarni ko‘rish va vazifalarni bajarish mumkin.

Platformadagi “Grammar” bo‘limida garammatik qoidalar matn, mulfilm va videodars shaklida ham berilgan.

Grammatik qoidalar bo‘limining “Basic grammar” qismida boshlang‘ich darajadagilar uchun 26 xil qoida berilgan. Bo‘lim orqali o‘qish mahorati ko‘nikmalari rivojlantiriladi. O‘tilgan qoidalar turli test mashqlari orqali tekshiriladi va mustahkamlanadi.

Yana bir bo‘limda esa Ajrumiyya kitobidagi qoidalar matni o‘qib berilgan va 34 ta qoida keltirilgan. Qoidalarning she’riy audiosidan tashqari ularning nasriy matn shakli ham alohida berib o‘tilgan. Berilgan matnlardagi harakatlarni ko‘rsatish va berkitish orqali o‘rganuvchida harakatsiz matnni o‘qiy olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu bo‘lim mavzulari ham turli test savollari orqali tekshiriladi va mustahkamlanadi. Nasriy matndan so‘ng qoidaning ingliz tilidagi tarjimasini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘qituvchi yordamisiz o‘rganayotganlar uchun qulaylik hisoblanadi. Chunki hozirgi kunimizda ingliz tilining butun dunyo aholisi tomonidan o‘rganilayotgani va boshqa tillarni ham uning qoidasiga qiyoslab o‘rganilishi yana biror qo‘shimcha tilni o‘zlashtirishni yengillashtirmoqda.

Yana bir bo‘limda qoidalar o‘qituvchi tomonidan eng so‘nggi axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda tushuntirib beriladi.

Qoidalar o‘qituvchisiz yangi texnologiyalarni qo‘llagan holda ham berilgan. Bu shakl orqali talaba qoidalar ketma-ketligini ham tinglab ham turli uslublar orqali ko‘rib o‘zlashtiradi. “Blogs” bo‘limida esa arab tilini arab bo‘lmaganlarga o‘qitish bo‘yicha o‘z maktablariga va uslublariga ega bo‘lgan Xolid Abu Amsha, Nasriddin Idris Javhar kabi mutaxassislarning til mahoratlarini o‘rgatishda yaratgan yangiliklari bo‘yicha yozgan maqolalari va turli konferensiyalardagi qilgan ma’ruzalari berilgan. Ularning maqolalarida ko‘tarilgan masalalarni o‘rganish orqali arab tili o‘qituvchilari o‘qitish mahoratlarini rivojlantirishlari mumkin.

“Questions” bo‘limida platforma orqali arab tilini o‘rganayotgan talaba o‘z savollari bilan murojaat qilishi mumkin.

“Tests” nomli bo‘limda talaba o‘zlashtirgan bilimlarini turli xildagi testlar orqali tekshirib ko‘rishi mumkin. Buning uchun o‘zi o‘rganib bo‘lgan darajaga tegishli bo‘lgan so‘z va iboralar, grammatik qoidalar yoki matnlar asosida imtihon qilinadi.

“Courses” bo‘limida arab tilini o‘rganuvchilar pulli mashg‘ulotlarda ishtirok etib, A1 darajadan C2 darajasigacha erishishlari mumkin. Darslar interfaol shaklda o‘tiladi.

Shuningdek, boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarga mo‘ljallangan darslarni o‘z ichiga olgan bo‘limlar ham mavjud. Ular o‘z navbatida yana quyi va yuqori darajalarga bo‘linadi. Ularda talabalarning ko‘rib tushunish va o‘qib tushunish mahoratlari

rivojlantiriladi. A1, A2, B1, B2 darajalari uchun tanlangan videolar va matnlardagi notanish so‘zlarning tarjimasi ingliz, fransuz hamda turk tillarida berilgan. Ahamiyatli tomoni, so‘zlar va so‘z birikmalari alohida berilganidadir. Har bir material matnini harakatli va harakatsiz shaklda ko‘rsatish, matnni ekranda ko‘rinmaydigan qilish funksiyalari arab tilini o‘rganuvchida matnni harakatsiz o‘qish imkonini beradi va ko‘rgan, o‘qigan ma’lumotini esda saqlab qolish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir material uchun ishlab chiqilgan test variantlari orqali tinglab tushunish, o‘qib tushunish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. C1 va C2 darajasi uchun berilgan matnlar harakatsiz shaklda bo‘lib, ulardagi yangi so‘z iboralar ma’nolari arab tilida tushuntirilgan. Barcha darajalar uchun tanlangan materiallar turli sohalarga oiddir. Ular orqali til o‘rganish bilan birga qadimiy obidalar, dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy siyosiy voqealar, tarixiy shaxslar hayoti, kashfiyotlar hamda dunyo xalqlarining urf-odatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

XULOSA

Al-Jazira elektron platformasini masofaviy ta’limning eng rivojlangan shakli deb aytish mumkin. Platforma yaratuvchilari arab tilini oson o‘rganish va o‘rgatish uchun eng zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanganlar. Bu platforma orqali til o‘rganish qiziqarli bo‘lishi bilan birga o‘rganuvchining vaqtini tejaydi va til kompetensiyalari birdek o‘zlashtirish imkonini beradi. Talaba platforma orqali o‘zi mustaqil masofaviy tarzda o‘ziga qulay paytda ta’lim oladi. Asosiysi, masofaviy ta’limda vaqt ham mablag‘ ham tejaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son. Manba: https://lex.uz/docs/-2126032

2. “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-5831978

3. “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son. Manba: https://lex.uz/docs/-5431845

4. Abduqodirov A., Pardayev A. (2009) Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan.

5. Farberman B.L. (2000) Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan.

6. Hayitov A. Boymurodov N. (2006) Ta’limdagi noan’anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

7. Jalolov J. (2002) Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi.

8. Ochilov M. (2000) Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.

9. Ishmuhamedov R.J. (2004) Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU.

10. Rahimov O.D., Turg'unov O.M., Mustafoyev Q.O., Ro'ziyev H.J. (2013) Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya.

11. Yuldasheva M. Xorijiy tillarni o'rganishning ijobiy jihatlari hamda o'rganishda axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim va elektron ta'limning ahamiyati. https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12885

12. https://learning.aljazeera.net/ar/

REFERENCES:

1. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son. Manba: https://lex.uz/docs/-2126032 (In Uzbek)

2. "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-5831978 (In Uzbek)

3. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son. Manba: https://lex.uz/docs/-5431845 (In Uzbek)

4. Abduqodirov A., Pardayev A. (2009) Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

5. Farberman B.L. (2000) Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

6. Hayitov A. Boymurodov N. (2006) Ta'limdagi noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi. (In Uzbek)

7. Jalolov J. (2002) Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. (In Uzbek)

8. Ochilov M. (2000) Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. (In Uzbek)

9. Ishmuhamedov R.J. (2004) Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)

10. Rahimov O.D., Turg'unov O.M., Mustafoyev Q.O., Ro'ziyev H.J. (2013) Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya. (In Uzbek)

11. Yuldasheva M. Xorijiy tillarni o'rganishning ijobiy jihatlari hamda o'rganishda axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim va elektron ta'limning ahamiyati. https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12885 (In Uzbek)

12. https://learning.aljazeera.net/ar/

COMMON ASPECTS IN THE WORK OF UYGUR-UZBEK POETS: CONTENT, GENRE AND STYLE

Karimova Shakhlokhon Ganiyevna
Associate Professor of Oriental University,
Doctor of Philosophy in Philology
Tel.: +998 90 185-69-13
e-mail: shkarimova@mail.ru

Annotation. This article examines the literary activity, heritage, proximity to Uzbek literature, and common features of Uyghur-Uzbek poets who lived and worked in Xinjiang in the second half of the 19th and early 20th centuries. Common features in terms of theme, idea, poetic expression, especially in Uyghur and Uzbek literature, have a very fruitful exchange.

The common features of Uyghur poets (Dilafkor, Barkilar) of the early twentieth century with Uzbek classical poets, especially with the work of Ubaydullah Zavki, are analyzed. For centuries, Eastern literatures have received literary food from each other and shared creative experiences. His skills were analyzed, from his ability to use words to his ability to connect metaphors with ghazals. Important conclusions are drawn regarding the genre typology and poetics of his works. The article also discusses the issues of scientific study and coverage of the work of Uzbek and Uyghur writers.

Keywords: *literary activity, literary communication, system of genres, poetics, theme and image, ghazal, rubai, mukhamas, masnavi, creative style, folklore, takhmis-nazira, epic, following.*

UYG‘UR-O‘ZBEK SHOIRLARI IJODIDA MUSHTARAK JIHATLAR: MAZMUN-MUNDARIJA, JANR VA USLUB

Karimova Shaxloxon G‘aniyevna
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Tel: +998 90 185-69-13
e-mail: shkarimova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Shinjongda yashab ijod qilgan uyg‘ur-o‘zbek shoirlarining adabiy faoliyati, merosi va o‘zbek adabiyotiga yaqinligi, mushtarak jihatlari tekshirildi. Sharq adabiyotlari asrlar osha bir-biridan adabiy ozuqalangan, ijodiy tajribalar almashgan. Mavzu, g‘oya, poetik ifoda jihatidan mushtarak xususiyatlar, ayniqsa, uyg‘ur va o‘zbek adabiyotida juda sermahsul almashinuvga ega. XX asr boshlaridagi uyg‘ur shoirlari (Dilafkor, Barqiylar)ning badiiy ijodda o‘zbek mumtoz shoirlariga, xususan, Ubaydullo Zavqiy

asarlariga mushtarak jihatlari tahlilga tortildi. So‘z qo‘llash mahoratidan tortib g‘azallariga taxmis-nazira bog‘lashlarida mahoratlari tahlil qilindi. Asarlarining janriy tipologiyasi va poetikasi bo‘yicha muhim xulosalarga erishildi. Maqolada, shuningdek, o‘zbek va uyg‘ur adiblari ijodining ilmiy o‘rganilishi va yoritilishi masalalari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy faoliyat, adabiy aloqa, janrlar tizimi, poetika, mavzu va obraz, g‘azal, ruboiy, muxammas, masnaviy, ijodkor uslubi, xalq og‘zaki ijodi, taxmis-nazira, doston, izdoshlik.*

ОБЩИЕ АСПЕКТЫ В ТВОРЧЕСТВЕ УЙГУРО-УЗБЕКСКИХ ПОЭТОВ: СОДЕРЖАНИЕ, ЖАНР И СТИЛЬ

Каримова Шаклохон Ганиевна
Доцент университета Ориентал,
доктор философии по филологии
Тел.: +998 90 185-69-13
e-mail: shkarimova@mail.ru

Аннотация. В данной статье исследованы литературная деятельность, наследие, близость к узбекской литературе, общие черты уйгуро-узбекских поэтов, живших и творивших в Синьцзяне во второй половине XIX - начале XX века. На протяжении веков восточные литературы получали друг от друга литературную пищу и делились творческим опытом. Общие черты в плане темы, идеи, поэтического выражения, особенно в уйгурской и узбекской литературе, имеют весьма плодотворный обмен. Проанализированы общие черты уйгурских поэтов (Дилафкор, Баркилар) начала XX века с узбекскими поэтами-классиками, особенно с творчеством Убайдуллы Завки. Его навыки были проанализированы: от умения использовать слова до умения связывать метафоры с газелями. Сделаны важные выводы относительно жанровой типологии и поэтики его произведений.

Ключевые слова: *литературная деятельность, литературное общение, система жанров, поэтика, тема и образ, газель, рубай, мухаммас, маснави, творческий стиль, фольклор, тахмис-назира, эпос, следование.*

KIRISH

Turkiy xalqlar adabiyoti azaldan mushtarak rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan. Mavzu va g‘oya tanlash, obraz va xarakter yaratish borasida bir adabiyot ikkinchi bir adabiyotga ilhom bergan, ijodiy ergashgan. Izlanishlar mobaynida Shinjongdagi o‘zbek-uyg‘ur shoirlarining ijodi bilan tanishish mobaynida Dilafkor va Barqiy taxalluslari bilan ijod qilgan ikki ijodkorning ma’rifatparvar shoir Ubaydulloh Zavqiy lirikasiga bo‘lgan e’tibori va izdoshligi diqqatimizni jalb qildi. Ubaydulla usta Solih

o‘g‘li Zavqiy (1853-1921) serqirra ijodi o‘tkir hajv va yumoristik she’rlari bilan zamondosh shoirlarga ham keyingi avlodga ham o‘z ta’sirini ko‘rsata olgan iste’dodli ijodkor bo‘lgan. Bu adabiy ta’sir, badiiy asar tili va uslubiy jihatlardan tortib, mavzu tanlashgacha, qahramonlar yaratish-u poetik mahoratda ham sezilib turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Uyg‘ur va o‘zbek adabiyotiga oid badiiy tahlillar, har ikki adabiyot vakillari ijodini o‘rganish, adabiy merosini jamoatchilikka tanishtirish borasida faoliyat olib borgan qator adabiyotshunoslar, matnshunos olimlar u yoki bu darajada yoritdilar. Bungacha XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti va uyg‘ur adabiy aloqalari haqida, xususan, Zavqiy ijodiga uyg‘ur shoirlarining munosabati haqida ilmiy chiqishlar uchramaydi. Ilk urinishlar sifatida muallifning nomzodlik dissertatsiyasida qisqacha ma’lumot – axborot sifatida uchraydi (Каримова Ш., 2017). Asosan, uyg‘ur klassik adabiyotida Navoiy ijodining o‘rni, Navoiy asarlarining uyg‘ur shoirlariga ta’siri masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosiy o‘rinni egallaydi (Солиҳова Х., 1995: 242-248). Jumladan, B. G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori, akademik Nizomiddin Murodiy “O‘zbek va uyg‘ur adabiy aloqalari tarixidan” maqolasida o‘zbek va tojik adabiyotlarining uyg‘ur adabiyotiga ta’siri masalasi Navoiy “Xamsa”sining Sharqiy Turkistondagi o‘rni misolida yoritilgan. Umuman olganda, bu kabi ishlar – Sharqiy Turkistonda o‘zbek mumtoz adabiyotiga ergashish turli davrlarda deyarli barcha adabiy janrlarda rivojlangan bo‘lib, uyg‘ur shoirlari tatabbu va nazira yozishda, tarjima va tazminda mohirona kuch sinashganlar va o‘zlariga xos mahorat va iste’dodlarini to‘la ko‘rsata olganliklarining yorqin dalili sifatida qimmatli ma’lumotlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola adabiyotshunoslikdagi so‘nggi yutuqlar va mezonlar asosida tahlil qilindi. Tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, uyg‘ur-o‘zbek adabiy aloqalari va bu adabiy ta’sirlanishda o‘zbek mumtoz lirik ijodkori Zavqiy asarlariga Shinjongdagi uyg‘ur-o‘zbek shoirlarining munosabati tadqiq etilgan.

Muqimiy, Furqat kabi so‘z san’atkorlari qatorida Zavqiy ijodiga xatto Shinjongdagi o‘zbek, uyg‘ur shoirlari ham o‘sha zamondayoq yuqori baho berishgan. Uning g‘azallariga taxmis-naziralar bog‘lashgan, poetik ifoda yo‘sini, hajv va yumorga boy she’rlari uslubiga hamda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishda Zavqiyga ergashganlar. Ilhom va ibrat ta’siri o‘laroq yaratilgan asarlaridagi mazmun va g‘oya, badiiylik Zavqiy she’rlarini yodga soladi. Dilafkor[3] - XIX asrning boshida yashab ijod

[3] O‘zbek adabiyotida “Dilafkor” taxallusli ikki shoir o‘tgan. Birinchisi biz ijodiga to‘xtalayotgan Mansur Sa’dulla o‘g‘li, yana biri Mulla Abdulboriy ibn Shermuhammad hoji bo‘lib, u “Piskandiy” va “Dilafkor” taxalluslarini qo‘llagan. 1882-yili Toshkentda tug‘ilib, 1952-yili Piskentda vafot etgan.

qilgan o‘zbek shoirlaridan bo‘lib, uning asl ismi Mansur Sa’dulla o‘g‘li. Taxminan 1844-1845-yillarda Kattaqo‘rg‘on atrofidagi Qo‘njinay qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, 1898-1908-yillar oralig‘ida Sharqiy Turkistonga kelib, Yorkent va Qog‘aliqda yashagan. Shinjong Ijtimoiy fanlar akademiyasi millatlar adabiyoti tadqiqotchisi Qodir Akbar “Shinjong o‘zbek adiblari” nomli kitobi orqali hali nomi va ijodi unchalik tanish bo‘lmagan adiblar sirasida shoir hayoti va ijodi bilan keng jamoatchilikka ma’lumot beradi va qo‘lyozma daftari orqali yetib kelgan she’rlaridan namunalar e’lon qiladi (Қодир Акбар, 1989: 114-140).

TAHLIL VA NATIJALAR

Dilafkorning “Ra’no va Suxangul” dostoni va ba’zi she’rlari ma’lum bo‘lib, asarlarning hozirgacha yetib kelib saqlanayotgan holati haqida ma’lumotlar ham ma’lum qilinadi: 1985-yili shoirning bir qo‘lyozma devoni Yorkent shahridan topilgan. Qo‘lyozmani saqlagan ma’rifatparvar kishilarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, u Mansur qori nomi bilan mashhur bo‘lgan, Yorkentda savdo ishlari bilan shug‘ullanib, shu yerda vafot etganligi aniqlangan. Uning adabiy merosini ko‘zdan kechirib, she’rlarida tanlangan mavzu va obraz, badiiy san’atlar zavqiyona uslub, zavqiyona fikrga ijodiy ergashish, ma’naviy ozuqa olish mevasi sifatida ko‘rinadi. Uning asarlari shunchaki qalamga olingan ishqiy mavzularga bag‘ishlanib qolmasdan, balki o‘sha asrning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini badiiy aks ettiradi.

Bu asarlar mohiyatidan zamondoshlarning holati, xalqning yashash sharoiti, siyosiy boshqaruvning ta’siri va unga oddiy xalqning munosabati darajasini aniqlay olish mumkin. Shuningdek, shoirning asarlari uning shaxsiy hayoti - tarjimayi holi haqidagi ma’lumotlar manbasi ham hisoblanadi. Shoir ijodida faqatgina g‘azal janrida emas, balki boshqa turdagi she’riy janrlarda ham mahorat egasi sifatida muxammas va tarje’bandlari, qit’a va masnaviylarida ijtimoiy illatlar, ba’zi axloqiy masalalar, ma’naviy qusurlar tanqidiy ruhda talqin qilinadi. Dilafkor she’riyatidagi ijtimoiy yo‘nalish bilan Zavqiy merosi o‘rtasidagi umumiylik, hamohanglik juda kuchli. O‘zbek shoirlari orasida xalq dardini to‘kis ayta olgan, kuchli hayqiriq va o‘tkir hajv usulida bayon eta olgan ijodkorlardan bo‘lgan Zavqiy uslubiga xos belgilar Dilafkor she’riyatida ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Zavqiyning shartli “Abdurahmon shayton” nomli she’rida bevosita shaxs timsoli orqali zamonning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy masalalari tahlilga tortilgan. Shoir mustamlaka davrida xalqning zulmat hayotida ekanligi, ma’rifatdan yiroqligi, odamlarda ittifoq yo‘qligi, sharm-u hayoning kamligi, insonlardagi salbiy illatlar to‘g‘risida o‘tkir hajv va achchiq tilda kesatiq, piching, masxaraomuz usulda ta’sirchan bitadi:

Xira iblis kabi benomus-u beor ketsang-chi!

Yalog‘ suqmagan bosh, ey sagi bozor ketsang-chi! (Мадаминов А., Турдиалиев А., 2003:146)

Shoir bu kabi shaxslardagi salbiy illatlar: xalqni aldab pulini olish, ochko‘zlik, mol-dunyo oldida har qanday pastkashlikka borish, o‘zgalar hisobiga kun ko‘rish, amaldorlarga laganbardor-u, kambag‘allarga zug‘um qilish kabilarni ayovsiz tanqid qiladi. She’rning real hayotdan olinganligiga isbot-dalil to‘rtinchi baytda keltiriladi:

Na tanho ket demay, Musicha Maxsumni olib hamroh,
Qilib bizlarni ham bir yo‘li minnatdor ketsang-chi!

Abdurahmon shaytonga hamroh va hamtovoq Musicha Maxsum – ochko‘z, xudbin, o‘z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yuvchi real shaxs. Bu shaxsni obraz darajasiga ko‘tarishni Zavqiyga zamondosh shoir Usmonxo‘ja Zoriy ijodida ham uchratamiz (Абдуллаева Д., 2005:70). Xasis, pastkash, nafsga berilgan kishilar obrazini mana shunday jonli va hayotiy tasvirlash, kinoya, kesatiq, fosh etish kabi usullar orqali voqelikka o‘zining munosabatini ifodalash Dilafkor ijodiga ham xos. Uning quyidagi muxammasi yozilish uslubi va ohangi, mazmuni jihatidan Zavqiyga juda ham hamohang:

Ayo do‘stlar, bu kun rahm qiyomat aylasanglarchi,
Fujur fisq isyong‘a nadomat aylasanglarchi.
Yigitlik vaqtida haqqa ibodat aylasanglarchi,
Tutub amri xudoni emdi toat aylasanglarchi,
Ayo ahboblar, tarki sharorat aylasanglarchi.

Shoir she’riyatida nafaqat ayrim kishilarning tabiatidagi qusurlar, kamchiliklar, illatlar fosh etiladi, balki zamona ham tanqid qilinadi. Masalan, uning “Arzirmu” radifli muxammasi Zavqiy g‘azaliga tatabbu’ tarzida yozilgan. Zamonaning nosozligi va avj olgan zo‘ravonlik haqida Zavqiy g‘azalining matla’si quyidagicha boshlanadi:

Gunoh qilmoqda, ey tan, o‘yla kuygoninga arzirmu,
Bu yanglig‘ ming yil umring bir o‘lgoninga arzirmu?

Chor mustamlakasi Turkiston xalqlarining urf-odatlarini, dinini, milliy qadriyatlarini yo‘qotish bilan odamlardagi axloqiy me’yorlarni ham izdan chiqardi. Dinning tobora zaiflashuvi, iymon-e’tiqodning sustlashishi, kishilar xulqidagi urchib borayotgan salbiy illatlar shoirni chuqur qayg‘uga soladi. Insonlarni ziyraklikka, birdamlikka, gunohlardan poklanib, insoniy burch va bandalik shartlarini bajarishga undovchi g‘azal baytlariga hamohang, hammazmun Dilafkor misralari ham shoirning poetik maqsadlarini to‘ldiradi. Xalqning g‘aflatda ekani, ma’rifatdan yiroqligi, o‘zaro ittifoq yo‘qligi, nafslariga qul bo‘layotganligi kuyunchak va ta’sirchan misralarda beriladi. Shoirning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan xulosalari so‘nggi bandda ifodalanadi:

Kishiga sud qilmas bu jahonni(ng) aysh ila zavqi,
Chiqorg‘ay balki yo‘ldin makr-nayrang ila shavqi,
Dilafkor, tavba qil to tushmayin bo‘yningg‘a la’in tavqi,

Tiriklik borida izla[4] *haqiqat yorin, ey Zavqiy,*
Majolarni vasli so‘zi xijroningg‘a arzirmu?

Shoir Barqiyning hayoti va adabiy faoliyatiga kelsak, shoirning asl ismi Abdug‘ofurjon Qori 1901-yil Qo‘qonda tug‘ilgan. Adabiyotga yoshligidan qiziqqan. 1930-yillarda ota-onasi bilan Sharqiy Turkistonga ko‘chib kelib, Qashqar, Xo‘tan, Qog‘aliq kabi shaharlarda yashagan. Lekin shoir o‘z asarlarini biror matbuotda e’lon qilmagan. Chunki u ko‘p holatlarda safar qilib yurgan va ayni davrda matbuot tanqis bo‘lgani uchun asarlari faqat qo‘lyozma holatida xalq orasiga tarqagan. Yorkentda yashab ijod etgan shoir Najimiy (Asl ismi Ubaydulloh Hoji To‘ram bo‘lib, o‘zbek shoirlaridan hisoblanadi) bisotida Barqiyning qo‘lyozma asarlari saqlangani aytiladi. Bu ikki shoir bir-birlari bilan ijodiy hamfikr bo‘lishgan ekan.

Yana bir jihat: Zavqiyning evarasi O. Yoqubovning[5] bergan ma’lumotiga ko‘ra, shoir avlodlarining Qashqarga ko‘chib kelish vaqtlari taxminan bo‘lsa-da, Barqiyning Qashqarga kelish vaqtlariga to‘g‘ri kelar ekan. Biroq Shinjongdagi taniqli adabiyotshunos, madaniyatshunos olimlar yordamida surishtirib izlash natijasida u kishi boshqa shaxs bo‘lib chiqdi. Lekin shoir ijodidagi zavqiyona uslub bizni yana bu shoir hayoti va ijodi to‘g‘risida izlanishga undamoqda.

Barqiy ijodidagi g‘azal, muxammas, hattoki, she’riy maktublari ham Zavqiyga hamohang uslubda yozilgan. Masalan, Zavqiyning davr manzaralarini o‘tkir til va teran fikrlar bilan ifodalovchi baytlarini yodga soluvchi o‘rinlar ko‘p uchraydi:

Bor ismi Sulaymoncha, lokin o‘zidur tarso,
Gardanda kishi haqqi, barakka muddao yo‘q.
Ko‘zingni o‘yub bersang “Rahmat” demagay hech kim,
Vojgundur kuning Barqiy, bul yerda musaffo yo‘q.

Shoir fikrlari zaminida, albatta, ijtimoiy sabablar bor. Xalq ma’naviyatiga putur yetkazayotgan buzg‘unchilik, talonchilik, axloqsizliklarga tomoshabindek munosabatda bo‘lish uning vijdoniga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun ham she’rda zamon holati, davr kayfiyati, oddiy xalqning nochor ahvoli, boshqaruvdagi adolatsiz, zolim kishilarning qilmishlari Zavqiy asarlari tiliga yaqin va hamohang fosh etiladi. Shoir yashab turgan jamiyatdagi illatlar, zalolat, kufr, adolatsizlikni ko‘rib, har qanday qo‘rquv va g‘azabni pisand etmay haqiqatni baralla kuylaydi.

Shoirning adabiy merosi tarkibida sayohatnoma va she’riy maktublar ham bor. Sayohatnoma janrining o‘zga xos xususiyatlarini yaxshi o‘zlashtirgan Barqiy Muqimiy va Zavqiy ijodidagi shu usul va tartibda she’r yozib, ularga ijodiy ergashgan:

[4] Dilafkor taxmisida “izla” so‘zi, Zavqiy g‘azali (“Ajab zamona”)da “ista” tarzida berilgan.

[5] Bu kishi hozirda Qo‘qon shahrida yashab, savdo ishlari bilan shug‘ullanish bilan bir qatorda, shoir Zavqiyning adabiy merosini targ‘ib qilish va o‘rgatish borasida ko‘p ishlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, Farg‘ona viloyatida “Zavqiy fondi”ni tashkil etib rahbarlik qilmoqdalar.

Shahar ajoyib dilkusho,
Odamlari yengilnamo,
Har muyulishda doimo,
Tuproq to‘zar ham chang ekan.

Bandi bilan boshlanadigan sayohatnomasi garchi to‘liq yetib kelmagan bo‘lsa-da, uning Muqimiy sayohatnomasiga o‘xshash qismlardan, safar yo‘nalishlariga mos sarlavhalar ostida voqelik bayon etiladi. Faqat unda joy va kishi nomlari boshqa, tabiat manzaralari, sayohat maqsadi farq qiladi xolos. Asarning qolgan matni orqali uning ham bo‘lim (qismlar)dan tashkil topganligini sarlavhalardan bilib olish mumkin.

Masalan, “Xo‘tan” sarlavhasidagi qismda shoirning Xo‘tanga qilgan yurishi va safar taassurotlari bitilgan:

Xuftanda tushsam bir do‘kon,
Qildi ashula bir juvon,
Oldi qo‘lga dutor shu on,
Yangrorda xushohang ekan
Ozodadin to‘pori ko‘p,
Dukchisidin attori ko‘p,
Choy xo‘ridan ko‘knori ko‘p,
Bir rasta nos-u bang ekan.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, Barqiy va Dilafkor kabi shoirlar uslub jihatdan sodda va ravon asarlar yaratishda, badiiy tasvirda, qofiya va radiflar tanlay bilishda, xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanishda Zavqiy izidan bordi. Bu uslubiy xususiyatlarning naqadar yaqin ekanligi Zavqiy poetik ijodining ta’sirchanligini, ko‘lamdorligini ko‘rsatib turadi. Zavqiy she’riyati shoirlar uchun adabiy maktab vazifasini o‘tagan. Uning she’riyati har ikki ijodkor she’riyatiga barakali ta’sir ko‘rsatgan.

Bu kichik ilmiy tadqiqotimiz Dilafkor va Barqiy kabi uyg‘ur-o‘zbek klassik shoirlari ijodi bilan tanishish imkonini bersa, uyg‘urlar yurtidagi o‘zbek shoirlari bilan Turkistondagi ijodkorlarning o‘sha davrdagi adabiy aloqa va adabiy ta’sirlariga oydinlik kiritishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Иброхим Ҳаққул. Навоийни англаш машаққати // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2005, 1-сон, 3-бет.

2. Шинжонг ўзбек адиблари. Нашрга тайёрловчи: Қодир Акбар. – Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти. 1989. 114 – 140 бетлар.

4. Маматохунов У. (1960) Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент.

6. Аршиддинов Б. (1988) Уйғур классиклири ижадийитида дастан жанри. – Алмута.

7. Маллаудов С. Тарихий достонлар // Уйғур адабиёти ва фольклоридаги жанрлар. – Алмута, 1980.

8. Мугинов А. (1962) Описание уйгурских рукописей института народов Азии. – Москва.

9. Мухлисов Ю. (1956) Уйғур классик қўлёзмаларининг каталоги. – Урумчи.

10. Ҳурматжон Фикрат, Қодир Акбар. (2005) Ўзбек адабиёти тарихи. – Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти. (Уйғур тилида)

11. Розиева Д. Низорий ижодида Навоий традицияси // Уйғур адабиётидики традиця ва наваторлиқ масилилири. – Алмута, 1976.

12. Солиҳова Х. (1995) Уйғур достончилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий “Ҳамса”сининг ўрни // фил.ф.док.... диссертацияси. – Тошкент: ЎзМУ.

13. Уйғур адабиётининг қисқача тарихи. – Алмута, 1983.

14. Қодирий Р. (1963) Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”, 1-китоб.

15. Ажаб замона. Шеърлар. Нашрга тайёрловчилар: А. Мадаминов ва А. Турдиалиевлар. – Тошкент: Шарқ, 2003.

16. Каримова Ш. (2018) Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва янгиланишлар (Завқий ва Муҳсиний ижоди мисолида). Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент.

REFERENCES:

1. Ibrohim Haqqul. Navoiyni anglash mashaqqati // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2005, 1-son, 3-bet. (In Uzbek)

2. Shinjong o‘zbek adiblari. Nashrga tayyorlovchi: Qodir Akbar. – Urumchi: Shinjong xalq nashriyoti. 1989. 114 – 140 betlar. (In Uyghur)

4. Mamatoxunov U. (1960) Uyg‘ur adabiyoti klassiklari. – Toshkent. (In Uzbek)

6. Arshiddinov B. (1988) Uyg‘ur klassikliri ijadiyitida dastan janri. – Almuta. (In Kazak)

7. Mallaudov S. Tarixiy dostonlar // Uyg‘ur adabiyoti va folkloridagi janrlar. – Almuta, 1980. (In Kazak)

8. Muginov A. (1962) Opisaniye uygurskix rukopisey instituta narodov Azii. – Moskva. (In Russian)

9. Muxlisov Yu. (1956) Uyg‘ur klassik qo‘lyozmalarining katalogi. – Urumchi. (In Uyghur)

10. Hurmatjon Fikrat, Qodir Akbar. (2005) O‘zbek adabiyoti tarixi. –Urumchi: Shinjong xalq nashriyoti. (In Uyghur)

11. Roziyeva D. Nizoriy ijodida Navoiy traditsiyasi // Uyg‘ur adabiyotidiki tradisya va navatorliq masililiri. – Almuta, 1976. (In Kazak)

12. Solihova X. (1995) Uyg‘ur dostonchiligi va nasri taraqqiyotida Alisher Navoiy “Hamsa”sining o‘rni // фил.ф.док.... dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zMU. (In Uzbek)

13. Uyg‘ur adabiyotining qisqacha tarixi. – Almuta, 1983. (In Kazak)

14. Qodiriy R. (1963) Uyg‘ur adabiyotida Navoiy an’analari / “Adabiy meros”, 1-kitob. (In Uzbek)

15. Ajab zamona. She’rlar. Nashrga tayyorlovchilar: A. Madaminov va A. Turdialiyevlar. – Toshkent: Sharq, 2003. (In Uzbek)

16. Karimova Sh. (2018) O‘zbek mumtoz she’riyatida poetik mazmun va yangilanishlar (Zavqiy va Muhsiniy ijodi misolida). Filologiya fanlari nomz. ...diss. – Toshkent. (In Uzbek)

PHYTOMORPHIC UNITS EXPRESSING HUMAN IMAGE IN TURKISH AND UZBEK AND THEIR LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS

Salimova Zebo Rustam qizi
Higher School of Turkic Studies,
Tashkent State University of Oriental Studies
Senior teacher, PhD
Tel.: +998 90 936-83-63
e-mail: zebosalimova1990@gmail.com

Annotation. This scientific article is devoted to the use of phytomorphic units in the Turkish and Uzbek language to describe human appearance and character traits. The breadth of language possibilities in expressing the human image through phytonyms is analyzed. Phytonyms in Turkish and their Uzbek equivalents are observed. The use of phytonyms in the language serves for an artistic image, to show their importance in the creation of literary arts, and to enrich the phytonymy of the Turkish and Uzbek languages. Emphasis is placed on the vocabulary of the language in reflecting the human image and revealing their characters through the names of fruits and plants. In the article, the use of phytonyms for artistic images, their importance in the creation of artistic works (fruit, pomegranate, flower, cypress, orange, violet, narcissus, tulip, shamshad, wheat, barley), simile, allusion, etc. It is shown that it performed the function of an important lexical tool in the creation of artistic arts.

Keywords: *Language, human image, character, phytonym, image, portrait, positive, negative, appearance, simile, image, alternative, equivalent, language circle, meaning transfer.*

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA INSON OBRAZINI IFODALOVCHI FITOMORF BIRLIKLAR VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Salimova Zebo Rustam qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD
Tel.: +998 90 936-83-63
e-mail: zebosalimova1990@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola turk va o‘zbek tillarida inson qiyofasi va xarakter xususiyatlarini berishda fitomorf birliklardan foydalanish masalalariga bag‘ishlanadi. Fitonimlar orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko‘rib chiqiladi. Turk tilida fitonimlar va ularning o‘zbek tilidagi muqobili ko‘rib chiqiladi va tahlil etiladi. Tilda fitonimlarning badiiy tasvir uchun xizmat qilishi, ularning badiiy san’atlarni hosil qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatish, turk va o‘zbek tili

fitonimiyasini boyitish uchun xizmat qiladi. Meva va o‘simlik nomlari orqali inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so‘z boyligiga e’tibor qaratiladi. Maqolada fitonimlarning badiiy tasvir uchun xizmat qilishi, ularning badiiy san’atlarni hosil qilishdagi ahamiyati (meva, anor, gul, sumbul, sarv, noranji, binafsha, nargis, lola, shamshod, bug‘doy, arpalar) o‘xshatish, tashbeh, tashxis kabi she’riy san’atlarni yaratishda muhim leksik vosita vazifasini bajarganligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Til, inson qiyofasi, xarakter, fitonim, obraz, portret, ijobiy, salbiy, tashqi ko‘rinish, o‘xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, til doirasi, ma’no ko‘chishi.*

ФИТОМОРФНЫЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ОБРАЗ ЧЕЛОВЕКА В ТЮРКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Салимова Зебо Рустамовна
Ташкентский государственный университет востоковедения
Старший преподаватель Высшей школы тюркологии, к.ф.н.
Тел.: +998 90 936-83-63
e-mail: zebosalimova1990@gmail.com

Аннотация. Данная научная статья посвящена использованию фитоморфных единиц в турецком языке для описания внешности и черт характера человека. Рассмотрена широта языковых возможностей в выражении образа человека посредством фитонимов. Рассмотрены и проанализированы фитонимы на турецком языке и их узбекские эквиваленты. Использование фитонимов в языке служит художественному образу, показывает их значение в создании художественных искусств, обогащает фитонимию турецкого и узбекского языков. Особое внимание уделяется лексике языка, отражающей образ человека и раскрывающей его характер через названия фруктов и растений. В статье рассматривается использование фитонимов художественных образов, их значение в создании художественных произведений (фрукт, гранат, цветок, кипарис, апельсин, фиалка, нарцисс, тюльпан, шамшад, пшеница, ячмень), сравнения, аллюзия и др. Показано, что оно выполняло функцию важного лексического средства в творчестве художественных произведений.

Ключевые слова: *Язык, образ человека, характер, фитоним, образ, портрет, позитив, негатив, облик, сравнение, образ, альтернатива, эквивалент, языковой круг, передача значения.*

KIRISH

Nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlar muhim rol o‘ynaydi. Zero, inson hayoti flora bilan uzviy bog‘liqdir. Tilshunos olimlarning o‘simlik dunyosiga alohida e’tibor qaratishining birinchi sababi shu bo‘lsa, ikkinchidan, o‘simliklar bilan aloqador

til birliklari xalqning olam lisoniy manzarasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Fitonimlar xalq tafakkurida mifologik, diniy va adabiy an’analar bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Fitomorfizmlar fikrlashning dastlabki shakli bilan ham aloqador bo‘lib, unga xos tushunchalar tilga ham ko‘chgan. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilishda, turli diskurslarda (adabiy, she’riy, ilmiy) ko‘rib chiqilishda davom etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunoslikda fitonimlarning lingvistik tabiati, ko‘chimni shakllantirishdagi o‘rni, lison va nutqda qo‘llanish darajasi kabilar o‘rganilgan. Chunonchi, ingliz tili fitonimlarining tahlili J. Rasa, D. Huk, U. Krishke, D. Herman kabilarning ishlarida amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda fitonimlarning strukturasi, semantikasi, tasnifi, so‘z yasashdagi o‘rni kabilar diaxron va sinxron aspektda o‘rganilgan (Raţă G., Samfira I., Sala F., 1991:25). Rus tili fitonimlarining etnobotanik, terminologik, strukturaviy, semantik xususiyatlari va leksikografik talqini O. Ryabko, T. Soy, S. Dubrovina, A. Letova kabilarning tadqiqotlarida tahlilga tortilgan. O‘zbek tilshunosligida fitonimlarning strukturaviy-funksional, leksik-semantik, tarixiy-etimologik tahlili X. Jamolxonov, Y. Eshonqulov, G. Nigmatova kabi olimlar tomonidan qisman o‘rganilgan. M. Xoshimxo‘jayevaning “Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar (ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida)” nomli tadqiqotida shakl, rang, vaqt, ta’m, miqdor, hid tushunchalari asosida ingliz, rus va o‘zbek tillari fitonimik leksikasida motivatsiyaning tipologiyasi, fitokomponentli frazeologizmlarning inson tafakkuri va madaniyati bilan bog‘liq konseptual-ideografik hamda konnotatsion xususiyatlari kabilar tadqiq etilgan. Yuqoridagilardan anglashiladiki, fitonimlar asosida shakllangan metaforalarning lug‘aviy-badiiy va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash, yaxlit ilmiy tizimga solish, tavsiflash, tasniflash, leksikografik talqinini amalga oshirish, ulardan ijodkorlarning foydalanish mahoratini namoyish etish kabilar o‘zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash hamda lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda turk va o‘zbek tillaridagi turli lug‘atlar va filologiyaga oid manbalardan foydalangan holda fitomorf birliklar leksik va semantik jihatdan tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek va turk tillarining kelib chiqishi bir ildizga borib taqalishiga qaramasdan, o‘xshatishli qurilmalardan foydalanishida o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarning borligi har ikki til egalarining yashash tarzi, dunyoqarashi, istiqomat hududi turlicha

ekanligi bilan izohlanadi. Bizning tahlillarimiz mevasiz daraxt nomlari, asosan, insonlarning qaddi-qomatini aks ettirish uchun keng foydalanilishini ko‘rsatmoqda.

Nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlar muhim rol o‘ynaydi. Zero, inson hayoti flora bilan uzviy bog‘liqdir. Tilshunos olimlar o‘simlik dunyosiga alohida e’tibor qaratishining birinchi sababi shu bo‘lsa, boshqa sababi o‘simliklar bilan bog‘liq til birliklari xalq tilidagi olam manzarasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Fitonimlar xalq tafakkurida mifologik, diniy va adabiy an’analar bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Fitomorfizmlar fikrlashning dastlabki shakli bilan ham aloqador bo‘lib, fikrlashning bu shaklidan kelib chiqqan tushunchalar tilga ham ko‘chgan.

Turk lingvomadaniyatida armut - nok (murut) so‘zi inson tabiatini aks ettirishda keng qo‘llanadi. Xususan, “armut gibi” o‘xshatishli birikmasi yordamida “gap tushunmaydigan, anqov kishi”ga nisbatan ishlatiladi. A*rmut* gibi ne demek? Çok *anlayışsız*, bön. Armut mevasi yordamida ko‘pincha salbiy xarakterli kishilar obrazi yaratiladi. Dangasa, biror ish qilmasdan foyda kutadigan, rizqni osmondan tushadi deb o‘tiradigan odamlarga nisbatan turk badiiyatining olam manzarasida “armut piş, ağzıma düş” iborasi ham ishlatiladi. Bu o‘zbek lingvomadaniyatidagi “olma pish og‘zimga tush” iborasining aynan o‘zidir. Bu esa turklar tafakkurida armut - nok (murut) bilan bir xil ma’no kasb etuvchi hech bir mehnat sarflamasdan bir nima kutadigan odamlarga nisbatan ishlatiluvchi tekinxo‘r obrazini ifodalashini ta’kidlash joizdir.

O‘zbek va turk tillarida meva nomlarining o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishi ham ko‘p uchraydi. Bunday o‘xshatish etalonlariga “gilos”, “olma”, “yong‘oq” kabi meva nomlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Turk tilida “ayva göbekli” metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo‘llanadi.

Mevalar - inson hayotining ajralmas qismi. Dunyo tillarida inson tashqi ko‘rinishini ifodalashda meva nomlari ham faol ishtirok etadi. Mevalar bilan bog‘liq qiyoslar har bir xalqning yashash tarzidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Turk xalqida *nok, zaytun, xurmo, tog‘ pista, qovun, anor* kabi mevalar inson tashqi qiyofasini aks ettirishda keng qo‘llansa, o‘zbek millati uchun esa *olma, jiyda, yong‘oq, bodom, tarvuz* kabilar ahamiyatlidir.

Har ikki tilda *kiraz – gilos* fitonimi keng tarqalgan. Uning yordamida qip-qizil lablar gilosga qiyoslangan. Masalan, *kiraz dudaklı – gilos dudoqli*, ya’ni *lablari gilosday* qiyosi orqali lablari qizil va qalin bo‘lgan ayollar ta’rifi uchun qo‘llangan. *Dildor gilosday qizil, chiroyli lablariga yoyilgan tabassum bilan boshini silkidi. Oltinrang sochlari yelkalari uzra sochilib ketgan, qayrilma kiprikli ko‘zlarini ochib-yumganda gilosday qizil lablari o‘z-o‘zidan jilmayib qo‘yadigan qo‘g‘irchoqqa, ochig‘i, hammamizning havasimiz keldi* (Маҳмудов Н., Худойберганова Д.,

2013:56). O‘zbek xalq lingvomadaniyatida, shuningdek, “*labing gilosga o‘xshar, ko‘zing charosga o‘xshar*” deb aytiluvchi qo‘shiq misralari bor. Bu yerda lab gilosga o‘xshatilish asnosida ko‘z *charos*ga, ya’ni uzumning qora rangli naviga qiyoslanmoqda. Turklarda esa qorachadan kelgan odam ta’rifida *üzüm gibi* o‘xshatishi qo‘llanadi va bunda qora rangli uzum ma’nosi faollashtirilgan. Shuningdek, *‘çöpsüz üzüm’ yakın akrabaları hayatta olmayan kişi, üzüntü verici bir şeymiş gibi dursa da özellikle zengin koca arayan hanımlar için çift katlı ekmek kadayıfı durumudur.* Cho‘psiz uzum birikmasi hech kimi yo‘q yolg‘iz ayolni ifoda etadi[6]. *Üzüm gibi* turklarda qorachadan kelgan ma’nosida keluvchi bu metafora turk tilida asosan qorachadan kelgan qariya kishini bildirsa, o‘zbek tilida bu ko‘rinish uzumning quritilgani - *mayizday* ifodasi yordamida beriladi.

Elma – olma har ikki til egalari tafakkurida deyarli bir xil komparativ ma’noda keladi. Masalan, *elma yanaklı – olma yuzli* “yuzlari qip-qizil olmaga o‘xshagan kishilar”ga nisbatan turk tilida ham o‘zbek tilida ham ishlatiladi. O‘zbek folkloridan joy olgan yor-yorlarda ham, aytishuvlarda ham qizlarning yuzini olmaga o‘xshatish keng tarqalgan. Ayniqsa, “*Eronning olmasidek qip-qizil yuzlari*” o‘xshatishli birikmasi xalq orasida mashhur.

Turklarda ko‘proq ayollarning go‘zalligi anor guliga o‘xshatiladi: “Nar çiçeği” nomli she’rlari ham bor.

Canım kurban yoluna
Takıver yar koluna
Nar Çiçeğim, Yar Çiçeğim[7].

O‘zbek tilida “anordek yuzi” birikmasi ham mavjud bo‘lib, bu bilan sog‘lom insonlarning yal-yal yonib turgan yuzlari gavdalantiriladi. Qip-qizil, qon rangida, qizarmoq, qizil tusini olmoq kabi o‘xshatishlarda *anorday* etalonidan foydalaniladi. “Miryusuf Xilvatiy banoras to‘nining keng etaklari orasida oyoqlari chalishib, o‘rnidan turdi, qo‘ltig‘idan ipak matoga o‘ralgan bir kitobchani olib ochdi va anorday qip-qizil, yum-yumaloq yuzi ilhomdan lov-lov yonib, ovozi hayajondan titrab, o‘qiy ketdi” (O. Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi). “Uning ham qizlik havaslari uyg‘onadi, yuraklari muloyim va yoqimli bir talvasa bilan duk-duk ura boshlaydi: ikki yuzi dasturxon ustidagi anor singari qip-qizil bo‘ladi” (A. Cho‘lpon. Kecha va kunduz). “Jaloliddin Xorazmshohmi? - yuzlari anorday qizarib ketdi Robiyaxonimning” (E. Samandar. Sulton Jaloliddin). “Raqs va sharob ta’sirida yonoqlari anor yanglig‘ qizargan, ko‘kraklari qo‘sh kaptarday patirlab turgan qizni bag‘riga bosib erkalagan bo‘ldi-da, maqsadga ko‘chdi Hojib” (E. Samandar. Sulton Jaloliddin). “Hamma gapni o‘zlaring aytyapsizlar-u, yana cho‘zish shartmikan? - qimtinib, yuzlari anordek qizarib arang

[6] https://www.hurriyet.com.tr/mahmure/ruyada-uzum-gormek-ne-anlama-gelir-ruyada-uzum-yemek-tabiri-41400491
[7] https://onedio.com/haber/serdar-ortac-nar-cicegim-sarki-sozleri-845650

so‘zladi Sabo” (U. Hamdam. “Sabo va Samandar”) (Маҳмудов Н., Худойберганова Д., 2013:27).

O‘zbek tilida yong‘oq, danak, bodom birliklaridan ham kishi tashqi qiyofasini tasvirlashda foydalaniladi. Bo‘yi past, do‘mboq kishilarga ko‘ra *yong‘oqday bo‘yi bor* o‘xshatishli birikmasi keng qo‘llanadi. O‘zbek tilida yong‘oq fitonimi yordamida kishi xarakterini ifodalash turk tiliga qaraganda faolligi ma’lum bo‘ldi. Yong‘oq ham bo‘yi pakana dumaloq kishini tavsiflashda ishlatilishi bilan birga, kutilmaganda pand berib qo‘yadigan, tili boshqa dili boshqa odam obrazi uchun ham ishlatiladi. *Puch yong‘oq* metaforasi ana shu fikrning isbotidir. Quyidagi she’riy parchada buni ko‘rish mumkin:

Bilmaysiz, do‘stdan ham goh -
Sinovda qalb qaqshaydi.
U ichin etmas ogoh -
Puch yong‘oqqa o‘xshaydi[8].

Bundan tashqari o‘zbek tilida *bir qop yong‘oq* o‘xshatishi ham bor. Bu o‘xshatish ichida gap turmaydigan, hamma bilan til topishadigan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

Turk tilida *ayva göbekli* metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva - bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, qorni qopday yoki *tarvuz yutib olganday* o‘xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin.

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi ham katta o‘rin tutadi. Zaytun qora bo‘lishi bilan birga, foydali va mazali bo‘lgani uchun *zeytin gibi* o‘xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Shuningdek, quruq meva nomlari har ikki xalq lingvomadaniyatida keng foydalaniladigan inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar hisoblanadi. Fıstık yong‘og‘i kishilar orasida sevgilisini yoxud yosh bolani erkalab chaqirishda *fıstığım* shaklida qo‘llanadi, shirinligiga qiyoslanadi. Xalq orasida *çekirdekten yetişme* iborasi ham keng tarqalgan bo‘lib, tug‘ma iste’dodli insonga ko‘ra nisbatlanadi. Bu fitonim çekirdek-pista bo‘lib, turk xalqi yashash tarzida ajralmas o‘ringa egadir.

Umuman olganda, meva nomlari orqali shaxsning u yoki bu xususiyatini tasvirlash yaratish til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko‘rsatib beradi, ta’sirchanlikni oshiradi hamda tinglovchida shaxs haqida aniq taassurot qoldiradi va idrok qilinishini osonlashtiradi.

Insonni xarakterlash uchun meva nomlaridan foydalanish jarayoni qadimiy hisoblanadi. Inson mavjud bo‘lgan paytdan boshlab tabiat bilan chambarchas birlikda yashab, atrofdagi daraxt va o‘simliklarga turli xil munosabatda bo‘lgan. Tabiat va inson uyg‘unligi dunyoning barcha lisoniy manzaralarida universaldir.

[8] http://www.uzbekshe‘rlari.uz

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog‘liq fitonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa asosan, daraxtning kesilgan tanasi, o‘tin yoki to‘nka bilan bog‘liq birliklar orqali ta’riflanadi.

Ushbu turdagi qiyosiy tadqiqotlar taqqoslangan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini, shuningdek ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning milliy mentaliteti va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, fitonimik nominatsiyalar o‘zbek va turk tillarida insonning ichki dunyosi va tashqi ko‘rinishini belgilashda keng qo‘llanadi va ba’zi hollarda insonning har qanday xususiyatlariga (tashqi qiyofasi, aqliy qobiliyatlari, ichki hissiy holati, yoshi, kasbi, ijtimoiy holati) o‘ziga xos standart bo‘lib xizmat qiladi.

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog‘liq fitonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, uning tashqi ko‘rinishi manzarali daraxt nomlariga qiyoslanadi. Insonning ijobiy yoki salbiy xarakterlari esa shirin va achchiq meva nomlari yordamida ham aks ettiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gul, o‘t-o‘lan, sabzavot va poliz mahsulotlari bilan bog‘liq nomlar orqali kishining ijobiy xarakter-xususiyatlarini ham, salbiy xarakter-xususiyatlarini ham ifodalash mumkin. O‘simliklarning ushbu turlari bilan inson har kuni to‘qnash keladi va u inson ongida oson saqlanadi. Shu bois biror kishini ta’riflashda ulardan foydalanish juda qo‘l keladi. Insonlar muloqotida biror kishini ta’riflashda uning nozik jihatlarini gavdalantirish va yaqqolroq namoyon etishda gul, o‘t-o‘lan, sabzavot va poliz ekini nomlari alohida o‘rin tutadi.

Har ikki tilda inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq gullardan foydalanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa, asosan, o‘t-o‘lan va poliz ekinlari nomi bilan bog‘liq fitonimlarga murojaat qilingan.

O‘zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, “qorni qopday” yoki “tarvuz yutib olganday” o‘xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin.

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o‘rin tutadi. Zaytun qora bo‘lishi bilan birga, ham foydali ham mazali bo‘lgani uchun “zeytin gibi” o‘xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Shuningdek, quruq meva nomlari har ikki xalq lingvomadaniyatida keng foydalaniladigan inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar hisoblanadi. Fıstık yong‘og‘i kishilar orasida sevgilisini yoxud yosh bolani erkalab chaqirishda “fıstığım” shaklida qo‘llanadi, shirinligiga qiyoslanadi. Xalq orasida “çekirdekten yetişme”

iborasi ham keng tarqalgan bo‘lib, tug‘ma iste’dodli insonga ko‘ra nisbatlanadi. Bu fitonim çekirdek-pista bo‘lib, turk xalqi yashash tarzining ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1995. – S. 1205.
2. Esendal M. (2010) Türkçe Sözlük. – Ankara.
3. Kemal Y. (2010) Türkçe Sözlük. – Ankara. – S. 1088.
4. Ortaç Y. (1999) Türkçe Sözlük – Ankara. – S. 206.
5. Türkçe Sözlük. I-II. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, 1988. – S. 745
6. Usmanova Sh. (2019) Lingvokulturologiya. – Toshkent. – B. 153.
7. Ахметова Э. (2012) Названия овощей и фруктов в татарском языке. Автореф. канд. филол. наук. – Казань. – С. 229.
8. Бурганова Н. (1976) О татарских народных названиях растений. Вопросы лексикологии и лексикографии. – Казань. – С. 141.

REFERENCES:

1. Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1995. – S. 1205. (In Turkish)
2. Esendal M. (2010) Türkçe Sözlük. – Ankara. (In Turkish)
3. Kemal Y. (2010) Türkçe Sözlük. – Ankara. – S. 1088. (In Turkish)
4. Ortaç Y. (1999) Türkçe Sözlük – Ankara. – S. 206. (In Turkish)
5. Türkçe Sözlük. I-II. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, 1988. – S. 745. (In Turkish)
6. Usmanova Sh. (2019) Lingvokulturologiya. – Toshkent. – B. 153. (In Uzbek)
7. Axmetova E. (2012) Nazvaniya ovoshey i fruktov v tatarskom yazike. Avtoref. kand. filol. nauk. – Kazan. – C. 229. (In Russian)
8. Burganova N. (1976) O tatarskix narodnix nazvaniyax rasteniy. Voprosi leksikologii i leksikografii. – Kazan. – C. 141. (In Russian)

STUDY OF THE SYSTEM OF KINSHIP TERMS IN TURKISH AND UZBEK AS A LINGUISTIC CATEGORY

Sabirova Zuhra Shakirovna
Tashkent State University of Oriental Studies
Teacher of the Higher School of Turkic Studies
Tel.: +998 99 886-60-40
e-mail: kasimova.z@gmail.com

Annotation. This scientific article is devoted to issues of kinship terms in Turkish and Uzbek languages, lexical-semantic features of these terms. Terminology is one of the most important parts of linguistics. Therefore, it can be said that there is a lot of research to be done in the field of terminology. In this article, through the set of terms of kinship and proximity, the expression plan of the kinship logical-linguistic category and features of each language are analyzed. The significance and uniqueness of the maternal side in the matter of birth and consanguinity in Turks has not lost its importance in linguistics. The reason for its linguistic value lies in the continuous process of self-realization of a person with his relatives and friends. On the one hand, it covers all new layers of vocabulary, on the other hand, it penetrates to different levels of language. The use of kinship terms in expressions is a sign of the breadth of the vocabulary of the language.

Keywords: *language, human view, lexical category, phrase, ethnic-relative, kinship names, image, house, generation, ancestor, character.*

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK ATAMALARI TIZIMINING LISONIY KATEGORIYA SIFATIDA O‘RGANILISHI

Sabirova Zuxra Shakirovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi o‘qituvchisi
Tel.: +998 99 886-60-40
e-mail: kasimova.z@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola turk va o‘zbek tillarida qarindoshlik atamalari, mazkur terminlarning leksik-semantik xususiyatlari masalalariga bag‘ishlanadi. Termin yoki atamalar tilshunoslikning eng asosiy bo‘g‘inlaridan hisoblanadi. Shu boisdan ham atamashunoslik sohasida qilinishi kerak bo‘lgan tadqiqotlar talaygina deyish mumkin. Ushbu maqolada qarindoshlik va yaqinlik terminlari majmui orqali har bir tilning qarindoshlik mantiqiy-lisoniy kategoriyasi va xususiyatlarining ifoda plani tahlil qilingan. Turklarda tug‘ishganlik va qondoshlik

masalasida ona tomonning ahamiyati va o‘ziga xosligi tilshunoslikda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning lingvistik qiymatining sababi insonning yaqinlari, qavm-qarindoshlari bilan o‘zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Bir tomondan, u so‘z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomondan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi. Qarindoshlik atamalarining iboralarda qo‘llanilishi esa tilning lug‘at boyligi ko‘lamining kengligidan dalolatdir. Mazkur maqolada turk va o‘zbek tillarida qarindoshlik atamalari tizimining lisoniy kategoriya sifatida o‘rganilishini tahlil qilish vazifasi qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: *til, inson qiyofasi, leksik kategoriya, ibora, qavm-qarindosh, aqrabolik nomlari, obraz, uy, avlod, ajdod, xarakter.*

ИЗУЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ТЕРМИНОВ РОДСТВА В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ КАК ЯЗЫКОВОЙ КАТЕГОРИИ

Сабирова Зухра Шакировна
Ташкентский государственный университет востоковедения
Преподаватель Высшей школы тюркологии
Тел.: +998 99 886-60-40
e-mail: kasimova.z@gmail.com

Аннотация. Данная научная статья посвящена вопросам терминов родства в турецком и узбекском языках, лексико-семантическим особенностям этих терминов. Терминология является одной из важнейших частей языкознания. Таким образом, можно сказать, что в области терминологии предстоит провести много исследований. В данной статье через совокупность терминов родства и близости анализируется план выражения логико-лингвистической категории родства и особенности каждого языка. Значение и своеобразие материнской стороны в вопросе рождения и кровного родства у тюрков не утратило своего значения и в лингвистике. Причина его языковой ценности откроется в непрерывном процессе самореализации человека со своими родственниками и друзьями. С одной стороны, оно охватывает все новые пласты лексики, с другой – проникает на разные уровни языка. Употребление в выражениях терминов родства является признаком широты словарного запаса языка.

Ключевые слова: *язык, человеческий облик, лексическая категория, словосочетание, этнически-родственные, родственные имена, образ, дом, поколение, предок, характер.*

KIRISH

Qarindoshlik atamalari bu – o‘zi bilan qarindosh bo‘lgan kishini nazarda tutadigan atamadir. Turk qarindosh-urug‘chilik atamalarining nomlanish tizimi juda murakkab bo‘lib, nafaqat turli xil qarindoshlik munosabatlari yuzasidan nomlanishi,

balki bir xil qarindoshlik munosabatiga tegishli bo‘lib, ko‘pincha mahalliy lahjalar orasida katta farqlarga ega. Qarindoshlik atamalari odamlarning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, odamlar ularni juda erta o‘rganishni boshladilar. Ammo hozirgi kunga qadar ularning mantiqiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar, ayniqsa qarindoshlarning munosabatlari asosidagi tadqiqotlar hali ham sust. Qarindoshlik atamalarining shakllanishi va ularning lahjalardagi varianti uning yozuvi, shuningdek madaniy masalalar bilan bog‘liq holda juda murakkabdir. Til shakllanishi, talaffuz, semantika va yozuv kabilar til va uning o‘zgarishiga ta’sir qilishi mumkin. Madaniy tizimlar nuqtai nazaridan o‘z millatiga hurmat, keksalarni hurmat qilish, erkaklarning ustunligi, rashk, patriarxal fikr, nikoh tizimi, yashash tizimi va chet elliklar bilan madaniy aloqalar kabilar uning shakllanishiga ta’sir qilishi mumkin.

Bugungi kungacha turkiy qarindoshlik atamalari ustida rus olimlari va o‘zbek tilshunoslari bir qancha ishlar olib borgan bo‘lib, masalaga doir tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rishimiz mumkin: umumturkiy tillar doirasida, ularning leksik-grammatik, morfologik, etnolingvistik, qiyosiy-tarixiy aspektida o‘tkazilgan tadqiqotlar. Masalaga doir tadqiqotlar tilshunoslar tomonidan olib borilgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi umumturkologiyaga bag‘ishlangan yoki bir taraflama yondashilib, qisman ma’nolari ochib berilgan holda, umumturkiy tildagi qarindoshlik atamalarining qiyosi to‘g‘risida ishlar olib borilgan. Turkologiyada olib borilgan ishlarning ko‘pchiligi turkiy tillardagi atamalarni bir-biriga qiyos qilish yo‘li bilan tekshirib chiqilgan. O‘zbek tilida ham qarindoshlik atamalari xususida bir qancha ishlar olib borilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kungacha o‘zbek tilida qavm-qarindoshlik atamalari keng ko‘lamda o‘rganib kelinmoqda (Саидова М., 1995). O‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tavsif qilishga bag‘ishlangan I.Ismoilovning monografiyasida ham, avvalgi ishlardagidek qarindoshlik atamalarining tavsifi va leksik-semantik xususiyatlari, kontekstda anglatgan ma’nolari tahlil qilingan, xolos. Aslida turkiy tilda qarindoshlik rishtalari va qarindoshlarning nomlanishi qadimdan shakllangan aniq tamoyillar asosida belgilanadi. Bu borada tilshunos olimlar o‘nlab tadqiqotlar olib borganlar. L.P. Patapovning ishida Qo‘ng‘irot o‘zbeklari o‘rtasidagi oilaviy munosabatlarga oid materiallar faqat tor doirada ishlab chiqilgan. Narziyeva ham o‘z monografiyasida qon-qarindoshlik nomlarining faqatgina komponent tahlili ustida ish olib borgan. O‘zbek tilshunosligida ham bu masala qisman ochib berilgan bo‘lib, qavm-qarindoshlikni anglatuvchi ota, ona, bola, o‘g‘il, qiz, nabira kabi qon-qarindoshlik atamalarigina leksikologiya tarixi bilan bog‘lab tekshiriladi va misol tariqasida ko‘rsatib o‘tiladi yoki o‘zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik

atamalarini tekshirish, jiddiy ilmiy ish olib borish kerakligi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati to‘g‘risida to‘xtab o‘tiladi (Ишаев А., 1971). O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda yaratilgan ilmiy ishlarda ham faqat bir tomonlama yondashilgan. Mazkur maqolada aqrabolik terminlari o‘zbek va turk tillari miqyosida qiyosiy o‘rganiladi, tahlil etiladi va o‘xshash hamda farqli tomonlari ko‘rsatib beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur maqolada qarindoshlik atamalari murojaat shakllari bilan bog‘liq ismlarning turk va o‘zbek tillari lisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash maqsadida o‘zbek va turk tilidagi aqrabolik atamalarining qo‘llanilishini tahlil qilish vazifasi qo‘yilgan. Tadqiqot doirasida ham o‘zbek tilidagi, ham turk tilidagi qarindoshlik terminlariga murojaat qilinar ekan, asosan, qiyoslash va lingvomadaniy tahlil usuli yordamida o‘rganildi va bu kelgusi tadqiqotchilar uchun asosiy manba sifatida tadqiqot obyekti bo‘la olishi ko‘zda tutilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy ma’nodagi atamalar kishilarning kasbiy-mehnat ehtiyojlariga xizmat qiluvchi ilmiy tushunchaga ega bo‘lgan so‘zlardir. Atamaning ma’nosi umumiste’moldagi so‘zlarning ma’nolariga nisbatan qat’iy tushunchadir. Ya’ni, tushuncha haqida ma’lumot beradi, uni ifodalaydi va shakllantirishda ishtirok etadi. Termin leksik ma’nosining sof tushunchasi uni umumiste’mol so‘zlariga xos ayrim sintagmatik va so‘z yasovchi xususiyatlardan mahrum etadi. Masalan, terminlarda bunday bog‘lanishlar istisno qilinmasa-da, obrazli, xususan, metaforik ma’nolar yaratuvchi sintagmatik bog‘lanishlarga erkin kirisha olmaydi. Odatda, atamalar subyektiv baho qo‘shimchalarini o‘z ichiga olmaydi hamda ekspressivlik va modallik ma’nosidagi yasama so‘zlar hosil qilishda ishtirok etmaydi. Shu bilan bir qatorda, terminlar ilmiy nuqtai nazardan “adabiy leksikaning maxsus qatlamini tashkil etadi va tor ixtisoslik so‘zlari terminlarga emas, balki umumiste’mol so‘zlariga qarshi qo‘yiladi”. Ta’kidlash kerakki, qarindoshlik terminlari jonli xalq tilining maxsus leksik qatlamini tashkil qiladi, ular ilmiy tushunchada terminlarga nisbatan badiiy shaklda ifodalanmaydi. Turkiy tillarning qarindoshlik terminlarini o‘rganishda I.Ismoilovning “Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari” nomli monografiyasi muhim rol o‘ynaydi (Ismoilov I., 1966). Tadqiqot ishi uch qismdan iborat: Bugungi kungacha turkiy qarindoshlik atamalari ustida rus olimlari va o‘zbek tilshunoslari bir qancha ishlar olib borgan bo‘lib, masalaga doir tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rishimiz mumkin: umumturkiy tillar doirasida, ularning leksik-grammatik, morfologik, etnolingvistik, qiyosiy-tarixiy aspektida o‘tkazilgan tadqiqotlar. Masalaga doir tadqiqotlar tilshunoslar tomonidan olib borilgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi

umumturkologiyaga bag‘ishlangan yoki bir taraflama yondashilib, qisman ma’nolari ochib berilgan bo‘lib, umumturkiy tildagi qarindoshlik atamalarining qiyosi to‘g‘risida ishlar olib borilgan.

Tilimizdagi qarindoshlik atamalari birdan paydo bo‘lib qolgan emas, albatta. U o‘ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o‘tib, hozirgi ko‘rinishga kelgan. Hozirgi tilimizda qo‘llanilib kelinayotgan har bir atama paydo bo‘lgan vaqti jihatidan ham, to‘g‘ri funksiyalarda qo‘llanilishi va har xil o‘zgarish hamda yangiliklarni qabul qilish jihatidan ham o‘ziga xos tarixga egadir. O‘zbek tilidagi qarindoshlik atamalari hozirgi ahvolga kelguncha ko‘p davrlarni va turli bosqichlarni boshidan kechirdi. Vaqtning o‘tishi, o‘zbek xalqi hayotida yuz bergan zo‘r iqtisodiy, siyosiy, madaniy o‘zgarishlar tilimizning lug‘at tuzilishini ham o‘zgartirdi, ko‘pgina qon-qarindoshlik atamalari eskirdi, iste’mol doirasidan chiqdi, bir turkum atamalarning ma’no doiralari kengaydi va o‘zgarishga uchradi. Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyot jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi ko‘pgina xalqlar bilan birga hayot kechirdi, ularga aralashib ketdi. Shu sababli, tilimiz murakkab sharoitda shakllandi va uning lug‘at tuzilishi, shu jumladan, qon-qarindoshlik atamalari ham boshqa tillarning leksik elementlari atamalarini o‘z ichiga olgan holda rivojlandi va taraqqiy etdi. Lekin, shunga qaramay, tilimizning asosiy qon-qarindoshlik atamalari saqlanib qoldi va ma’no qamrovi yanada kengaydi.

Turkiy qarindoshlik atamalarining asosan uchta ildizi qarindoshlik atamalarining kelib chiqishini ko‘rsatadi: Qarindosh (ota tomondan), Tai-tog‘iy (ona tomondan), Quda yoki ayollarga nisbatan qudag‘ay (nikoh orqali bog‘langan).

Turkiy qarindoshlik terminologiyalari antropologlar va tilshunoslar tomonidan avvalgi tadqiqotlarda turk-mo‘g‘ul, sibir avlodi, omaxa va boshqalar deb, har xil tasniflangan. Shubhasiz, barcha turkiy tillarni qamrab oladigan o‘zgarmas qarindoshlik tizimini da’vo qilish qiyin, chunki zamonaviy turkiy qarindosh tizimlar nafaqat prototurk yoki qadimgi turkiy tizimdan, balki vaqt o‘tishi bilan ham o‘zlaridan farq qilgan. Ushbu hujjat yaxshi tasdiqlangan qarindosh-urug‘larning omon qolishlariga asoslanib, prototurk tilidan hozirgi kungacha bo‘lgan qarindoshlik tizimidagi o‘zgarishlarni kuzatishga bo‘lgan urinishlarni ko‘rsatadi. Qarindoshlik terminologiyasi lug‘atning keng qo‘llanuvchi qatlamlaridan biri bo‘lib qolishi tan olingan. Barcha tillar qarindoshlik terminologiyasiga ega bo‘lganligi sababli, lug‘at tarkibiy qismi universal deb hisoblanadi. Ammo u turli jamiyatlarda farq qiladi.

Turkologiyada olib borilgan ishlarning ko‘pchiligi turkiy tillardagi atamalarni bir-biriga qiyos qilish yo‘li bilan tekshirib chiqilgan. O‘zbek tilida ham qarindoshlik atamalari xususida bir qancha ishlar olib borilgan bo‘lib, ular o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tavsif qilishga bag‘ishlangan I.Ismoilovning monografiyasida ham, avvalgi ishlardagidek qarindoshlik atamalarining tavsifi va leksik-semantik xususiyatlari, kontekstda

anglatgan ma’nolari tahlil qilingan, xolos. Shuningdek, M.Saidovaning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tili va uning shevalarida mavjud rang-barang va juda qadimiy tarixga ega bo‘lgan, ammo hali sof lingvistik jihatdan tadqiq qilinmagan qarindoshlik terminologiyasining qiyosiy-tarixiy genezisi Namangan shevalarida o‘rganilgan (Saidova M., 1995: 156). Ushbu ishda qarindoshlik nomlariga faqat atama sifatida qaraladi.

Yuqorida aytilganidek, turkiy qarindoshlik atamalarining asosan uchta ildizi qarindoshlik atamalarning kelib chiqishini ko‘rsatadi: Qarindosh (ota tomondan), Tai-tog‘iy (ona tomondan), Quda yoki ayollarga nisbatan qudag‘ay (nikoh orqali bog‘langan). Keyinchalik bu tasnif o‘zgarib, ularning etimologiyasi quyidagicha bo‘ladi:

1. Ota urug‘i – qarindosh (suyak söök)
2. Ona urug‘i – tag‘i
3. Nikoh orqali bog‘langan urug‘ – qain (Mirzayeva A., 2022).

Qadimda barcha turkiylarda ota urug‘i odam vujudining negizi bo‘lgan “suyak”ka nisbat berilgan va bu urug‘ning barcha vakillari bir-biriga nisbatan og‘a-ini sanalgan, ularning qoni bir bo‘lib, qarindosh hisoblangan. Bir-birlari bilan ota tomondan yaqin bo‘lgan kishilar o‘zaro yoshi kattasini og‘a, kichigini esa ini deb chaqirgan. Ota turkiyzabonlarda, xususan o‘zbeklarda ham ulug‘ nom sanalib kelinadi. Suyak (söök, syook) so‘zi esa qadimda familiya tushunchasini bergan. O‘zbek tilidagi qarindoshlik atamalari nomlarining kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra asosan uchta katta guruhga bo‘linadi:

I. Qon-qarindoshlik atamalari;
II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik atamalari;
III. Yaqinlik nomlari.

I. Qon-qarindoshlik nomlariga quyidagilar: ona, ota, opa, aka, uka, singil, xola, tog‘a, amma, amaki, buvi, buva, nabira kabi atamalar;

II. Nikohdan keyin paydo bo‘ladigan atamalarga esa: er, xotin, kuyov, kelin, boja, pochcha, ovsin, qayin ona (qaynona), qayin ota (qaynota), qayin singil, qayin og‘a, quda, quda xola, quda buva, o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay bola kabilar;

III. Yaqinlik nomlariga: yuqoridagi ikki guruhdan butunlay farq qiladi. Bular tutingan so‘zi bilan kelib, tutingan ota+m, tutingan ona+m, tutingan o‘g‘li+m kabi atamalardir. Atamalarning birinchi guruhiga mansublari o‘z guruhidagi atamalar bilan birgalikda juftlashgan holda ko‘plik, jamlik ma’nolarini ifodalaydi: ota-bola, opa-singil, aka-uka, ota-ona, ota-bobo, amma-xola, tog‘a-jiyan kabi. Bular o‘ziga affikslarni qabul qilib, yangi ma’noli so‘zlarni hosil qiladi.

XULOSA

O‘zbek va turk tillari leksikasida qarindoshlik terminlari sifatida nutqda qo‘llanuvchi alohida so‘zlar ham bor. Bu so‘zlarning o‘ziga xosligi ularning umumlashgan qardoshlik tushunchasiga – “qarindosh” ma’nosiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qarindoshlik darajasi xususiyatiga ko‘ra, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: yaqin qarindoshlik hamda uzoq qarindoshlik. Qarindoshlikning birinchi guruhiga quyidagilar kiradi: zot, urug‘. Ikkinchi guruhga tomir, taraf, yaqin, negiz, arqonning bir uchi singari iboralashgan birikmalar kiradi. Bu leksemalar (va frazemalar) shunisi bilan o‘ziga xoski, ular unutilish bosqichida bo‘lgan aloqalarga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘zlarni obyekt – adresatga nisbatan ishlatib, gapiruvchi subyekt – adresant uning suhbatdoshi – adresatning ota yoki ona tomondan qarindoshi ekanligini bilmaydi. Muloqotdagi ko‘pchilik qarindoshlik terminlari murojaat sifatida ishlatiladi va suhbatdosh – adresatning so‘zlovchi – adresantga nisbatan qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat’i nazar shu tartibda chaqiradi: “Amaki, qayerga borayapsiz?” O‘zbek tilidagi singil so‘zi murojaatda 1-shaxs 1-son qo‘shimchasini oladi – singlim: “Singlim, qayerda o‘qiysan?” O‘zbek tilida o‘g‘il, qiz, bola va boshqa qarindoshlik atamalari 1-shaxsdagi egalik qo‘shimchasini qabul qiladi: qizim, o‘g‘lim, bolam va hokazo. Ayrim qarindoshlik atamalari leksemalari, masalan, bolakay (bola+kay), qizaloq (qiz-aloq) murojaat funksiyasini bajarishi mumkin. Ulardan foydalanish ijtimoiy jihatdan cheklangan, chunki bu faqat bolalarga murojaat qilish shakli. Kattalarning bir-biriga bolakay, qizaloq so‘zlari bilan murojaat qilishi betakalluflik yoki kinoya bo‘yog‘ini kasb etadi. Bu jihat singlim – erkak kishining qizlarga singlim ma’nosidagi murojaati, qizim – keksa odamning yosh ayolga nisbatan murojaati, onasi – erning o‘z xotiniga murojaati, otasi, dadasi – xotinning eriga murojaati, bobosi – buvining o‘z eriga, nevaralariga nisbatan bobosiga murojaati, buvisi – boboning o‘z xotiniga, nevaralarga nisbatan buvisiga murojaati va boshqa so‘z-atamalari uchun ham xos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ismoilov I. (1966) Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti.
2. Engels F. (1956) Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi. – Toshkent.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘ati turk, I-III tom. – Toshkent, 1960-1963.
4. Shoabdurahmonov Sh. (1962) O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – Toshkent.
5. Покровская Л. (1961) Термины родства в тюркских языках / Историческое развитие лексики тюркиских языков. – Москва.
6. Саидова М. (1995) Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. – Тошкент.

7. Ишаев А. (1971) Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари / Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан.

REFERENCES:

1. Ismoilov I. (1966) Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. (In Uzbek)
2. Engels F. (1956) Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi. – Toshkent. (In Uzbek)
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘ati turk, I-III tom. – Toshkent, 1960-1963. (In Uzbek)
4. Shoabdurahmonov Sh. (1962) O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – Toshkent. (In Uzbek)
5. Pokrovskaya L. (1961) Termini rodstva v tyurkskix yazikax / Istoricheskoye razvitiye leksiki tyurkiskix yazikov. – Moskva. (In Russian)
6. Saidova M. (1995) Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili. – Toshkent. (In Uzbek)
7. Ishayev A. (1971) O‘zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari / O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

Internet saytlar:

1. www.wikipedia.org
2. https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/
3. https://m.sabah.com.tr
4. https://lotusmagus.com

STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGISTS IN ARABIC AND UZBEK: COMMON AND DIFFERENT ASPECTS

Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich
Trainee teacher, Department of Oriental Languages,
Oriental University
Tel.: +998 97 420-99-00
e-mail: m.boborajabov62@gmail.com

Annotation. During the current development of world linguistics, the study of different national languages in the comparative paradigm in connection with the human factor, the interpretation of the issues of the practical application of language system units has become one of the urgent issues of linguistics. Despite the fact that some researches have been done on modern Uzbek phraseology, especially its alternative version, there are still many problems that are waiting to be solved in this field. For example, although the structural features of Uzbek phraseology are compared with phraseology in Western languages, Eastern languages are not compared with phraseology in Arabic. From this point of view, clarification of the structural composition of phraseology in Arabic and Uzbek languages, analysis of common and different aspects is one of the issues waiting to be solved in linguistics. This article describes the structural features of phraseology in the Arabic and Uzbek languages. In order to find a solution to the problem, the structural composition of phraseologisms in Arabic and Uzbek languages was studied. Their differences and similarities were revealed. Also, phraseologisms in the compared languages were formed in the structure of structurally simple and complex phraseological units. The results of the research serve as a theoretical resource in studying problems such as general linguistics, common and different aspects of phraseological units in different languages. The results of the research work can be used to study the characteristics of phraseological units in Arabic and Uzbek hybrid linguistics in a comparative aspect.

Key words: *phraseologism, semantic, verbal, substantive, verb, noun, adjective, adverb, case, possessive, participle, component, preposition, addition, conjunction, agreement, phrase, sentence.*

ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI: UMUMIY VA FARQLI JIHATLAR

Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich
Oriental Universiteti, Sharq tillari kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Tel.: +998 97 420-99-00
e-mail: m.boborajabov62@gmail.com

Annotatsiya. Jahon tilshunosligining hozirgi taraqqiyoti davrida turli xalq tillarini qiyosiy paradigmada inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish, til sistemasi birliklarining amalda real qo‘llanilishi masalalari talqini tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Hozirgi zamon o‘zbek tili frazemasi, ayniqsa, uning muqobil variantiga oid birmuncha tadqiqotlar qilingan bo‘lishiga qaramay, bu sohada hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar kam emas. Jumladan, o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning struktur xususiyatlari g‘arb tillaridagi frazeologizmlar bilan o‘zaro qiyoslangan bo‘lsa-da, sharq tillari ayniqsa arab tilidagi frazeologizmlar bilan qiyoslanmagan. Shu nuqtayi nazardan arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur tarkibini yoritish, umumiy va farqli jihatlarini tahlil qilish tilshunoslikda yechimi kutilayotgan masalalardan biridir. Ushbu maqolada arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur xususiyatlari yoritilgan. Muammoga yechim topish maqsadida arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur tarkibi o‘rganildi. Ularning farqli va o‘xshash jihatlari ochib berildi. Shuningdek, qiyoslanayotgan tillardagi frazeologizmlar struktur jihatdan sodda va murakkab frazeologik birliklar tuzilishida shakllandi. Tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, turli tillardagi frazeologik birliklarning umumiy va farqli jihatlari kabi muammolarning o‘rganilishida nazariy manba vazifasini o‘taydi. Tadqiqot ishi natijalaridan arab va o‘zbek chog‘ishtirma tilshunosligida frazeologik birliklarning xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, semantik, verbal, substansiv, fe’l, ot, sifat, ravish, hol, ega, kesim, komponent, predlog, izofa, birikma, kelishik, ibora, gap.*

СТРУКТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: ОБЩИЕ И РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ

Бобораджабов Мухаммадикбол Эмомалиевич
Стажер-преподаватель кафедры восточных языков
университета Ориентал
Тел.: +998 97 420-99-00
e-mail: m.boborajabov62@gmail.com

Аннотация. В ходе современного развития мирового языкознания изучение различных национальных языков в сравнительной парадигме в связи с человеческим фактором, интерпретация вопросов практического применения единиц языковой системы стала одной из актуальных проблем языкознания. Несмотря на то, что были проведены некоторые исследования современной узбекской фразеологии, особенно ее альтернативного варианта, в этой области еще много проблем, которые ждут своего решения. Например, хотя структурные особенности узбекской фразеологии сравниваются с фразеологией западных

языков, восточные языки не сравниваются с фразеологией арабского языка. С этой точки зрения выяснение структурного состава фразеологии арабского и узбекского языков, анализ общих и различных аспектов является одной из проблем, ждущих своего решения в языкознании. В данной статье описываются структурные особенности фразеологии арабского и узбекского языков. Для решения проблемы был изучен структурный состав фразеологизмов арабского и узбекского языков. Выявлены их различия и сходства. Также фразеологизмы в сравниваемых языках были сформированы в составе структурно простых и сложных фразеологических единиц. Результаты исследования служат теоретическим ресурсом при изучении таких проблем, как общее языкознание, общие и различные аспекты фразеологических единиц в разных языках. Результаты научно-исследовательской работы могут быть использованы при изучении особенностей фразеологических единиц в арабском и узбекском гибридном языкознании в сопоставительном аспекте.

Ключевые слова: *фразеологизм, смысловой, глагольный, существительный, глагол, существительное, прилагательное, наречие, падеж, притяжательный падеж, причастие, компонент, предлог, дополнение, союз, согласие, словосочетание, предложение.*

KIRISH

O‘zbek tilshunosligi o‘zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi. Mustaqillikka erishilgach, yurtimizda islomshunoslik, dinshunoslik sohalariga, shuningdek, arab tili va boshqa sharq tillari, sharq xalqlari madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayib, ushbu yo‘nalishlarda bir qancha tadqiqot ishlari olib borildi. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning jadallashuvi va takomillashuviga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlar ham turtki bo‘ldi. Jumladan, 2021-yil 19-maydagi PQ 5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim sifatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish masalalari ta’kidlab o‘tildi. Bugungi kun milliy til va milliy ma’naviyat mushtarakligi masalasiga daxldor yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni boshqa tillardagi frazeologik birliklar bilan qiyoslash, chog‘ishtirma tilshunoslikdagi tadqiqotlar sonini ko‘paytirish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi.

Ushbu tadqiqot ishida arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish maqsad qilib belgilangan. Tadqiqotning vazifasi arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur jihatdan tavsiflash hamda umumiy va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Ushbu tadqiqot ilmiy jihatdan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur tarkibi aniqlanganligi hamda ikki tildagi frazeologizmlarning qiyosiy tahlili yoritilganligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab tilshunosligida tildagi frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Jumladan, Izzat Husayn G‘urobning “Qur’oni Karimdagi frazeologizmlarning semantikasi va tarkibi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi, doktor Vafo Komil Foidning “Zamonaviy arab tilida ayrim frazeologizmlar turlari” nomli maqolasi kabi tadqiqotlarda frazeologizmlarning semantik, struktur, lingvopoetik, lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Rus tilshunoslari bir qator tadqiqotlarda arab va rus tillaridagi frazeologizmlarning struktur xususiyatlarini yoritib berganlar. Jumladan, R. Bekirov o‘zining “Общие вопросы лексико-семантических преобразований в глагольных фразеологизмах арабского языка” nomli tadqiqot ishida fe’lli frazeologik birliklarning qiyosiy tahlilini keltirib o‘tgan.

Shuningdek, dunyo arabshunosligida ham frazeologizmlar tahliliga oid bir qator ishlar kuzatiladi. Jumladan, Murat Yig‘itning “Arab tilidagi frazeologizmlar va ularning Qur’oni Karimda qo‘llanilishi” doktorlik dissertatsiyasi, Mansur Muhammad Hasan Sammanining “Rus tilidagi frazeologizmlar va evfemizmlar arab tili misolida: lingvokulturologik aspekt” nomli doktorlik dissertatsiyasi, S. Abdulhamidning “Arab va rus tillaridagi frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili doktorlik dissertatsiyasi, R. Bekirov tomonidan yozilgan “Arab tilidagi frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, I. Shabaga tegishli “Arab va rus tillaridagi frazeologizmlar qiyosiy tahlili” nomli maqolalar va yana bir qator dissertatsiya, monografiya va maqolalarda frazeologizmlarning lingvopoetik (sistem-struktur) va lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklarga oid bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Sh. Rahmatullayev, Sh. Usmanova, M. Xoliqova, Sh. Abdullayev va boshqalarning tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning boshqa tillardagi frazeologizmlardan farqlari alohida ko‘rsatib o‘tilgan. A. Mamatov o‘z asarlarida frazeologizmlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy asoslarni belgilab berdi. B. Yo‘ldoshevning qator asarlari hamda doktorlik dissertatsiyasi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari, ayni damda, o‘zbek frazeografiyasi taraqqiyotida katta burilish bo‘ldi. K. Bozorboyevning so‘zlashuv nutqi frazeologizmlarga, Sh. Almamatovaning frazemalar komponent tahliliga, M. Vafoyevaning frazeologik sinonimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlari o‘zbek frazeologiyasining rivojiga ma’lum darajada katta hissa qo‘shdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada arab va o‘zbek tilshunosligidagi frazeologizmlarning struktur xususiyatlarini o‘rganish asosiy masala hisoblanadi. Bundan tashqari tadqiqotda qiyoslanayotgan tillardagi frazeologizmlar struktur jihatdan sodda va murakkab frazeologik birliklar tuzilishida shakllanganligi ochib beriladi.

Ushbu tadqiqot ishida tavsifiy, komponent tahlil, qiyosiy-chog‘ishtirma metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir tildagi frazeologizmlarning semantikasi, tarkibiy tuzilishi bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan murakkabligi bilan ajralib turadi. Arab tilida frazeologizmlar tuzilishiga ko‘ra juda murakkab bo‘lib, quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fe’lli frazeologik birliklar. Bunday frazeologizmlar verbal frazeologizmlar deb ataladi. Ular funksional jihatdan fe’llar bilan bog‘liq bo‘lib, asosiy qismini fe’l komponentlari tashkil etadi. Ushbu turga kiruvchi frazeologizmlar arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning asosiy qismini tashkil etadi. Arab tilida bunday frazeologizmlar فعل (fe’l), فاعل (ega) va مفعول (to‘ldiruvchi) qismlardan tashkil topadi. Masalan: ابتلع لسانه (tilini yutib yubormoq), بل الصدر (yengil tortmoq), بلغ أشده (balog‘atga yetmoq). Ushbu frazeologizmlarda ham fe’l, ega va to‘ldiruvchilar, shuningdek, egaga qaytuvchi birikma olmoshlari ishtirok etganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilida verbal frazeologizmlar har xil gap bo‘laklari funksiyalarini, jumladan kesim, ega va hol funksiyalarini bajaradi. Masalan, S. Ayniyning “Qullar” asarida keltirilgan “*direktor bo‘lganidan keyin dimog‘i shishib ketibdi”* jumlasida “*dimog‘i shishib ketibdi”* iborasi kesim vazifasida kelgan bo‘lsa, Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar” asarida kelgan “*hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi”* gapidagi “*ko‘zi ilinmoq”* iborasi hol vazifasida kelmoqda.

2. Substantiv frazeologik birliklar. Bunday frazeologizmlar funksional jihatdan ot bilan bog‘liq bo‘ladi. Arab tilida bunday frazeologizmlar fe’lli frazeologizmlarga nisbatan kamroq uchraydi. Masalan, اللعب بالنار – olov bilan o‘ynashish, الخروج من عنق الزجاجة – shishaning bo‘ynidan omon qolish. O‘zbek tilida ham bunday frazeologizmlar uchraydi. *Ko‘zining oq u-qorasi, olam guliston, ora ochiq, do‘ppisi yarimta* kabi iboralar bularga misol bo‘la oladi.

3. Sifat so‘z turkumidan tashkil topgan frazeologizmlar. Arab tilida bunday frazeologik birliklar asosan izofa birikmasi va moslashgan aniqlovchili birikma shaklida keladi va insonning xarakteri yoki buyumlarning shaklini ifodalab beradi. Misol uchun, خفيف اليد (qo‘li yengil), ثاقب النظر (o‘tkir qarashli), حاد الطبع (agressiv), القبضة الحديدية (temir musht), الخطوط العريضة (bepoyon chiziqlar).

O‘zbek tilida ham bunday frazeologizmlar ko‘p uchraydi. *Qo‘li ochiq, yuzi yorug‘, baxti qaro, ko‘ngli g‘ash, ta’bi xira* kabi iboralar shular jumlasidandir.

4. Predlogli frazeologik birliklar. Arab tilida ayrim frazeologizmlar predloglar bilan boshlanadi. Masalan, على عينه غشاوة (ko‘zida parda bor, ya’ni haqiqatni ko‘ra olmaydi), على كف عفريت (Ifritning kaftida, ya’ni hayoti xavf-xatar ostida), على يده (qo‘l ostida). Bunday frazeologik birliklar o‘zbek tilida uchramaydi.

5. Izofa birikmasi orqali hosil bo‘lgan iboralar. Bunday frazeologizmlar muzof (qaratqich) va muzofun ilayhi (qaralmish) qismlaridan tashkil topadi. Masalan bunday: حدائق الشيطان (shayton bog‘lari), سقوط الأقنعة (niqoblarning tushishi), دار الآخرة (oxirat hovlisi). Bunday iboralar arab tilida التعبيرات deb nomlansa-da, o‘zbek tilidagi frazeologizmlarga to‘g‘ri kelmaydi. Ushbu iboralarni o‘zbek tilidagi perifrazalarga misol qilish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ayon bo‘ladiki, arab tilidagi frazeologik birliklar tuzilishi jihatidan o‘zbek tilinikidan katta farq qilmaydi. Frazemalarning tuzilishida ism, fe’l va yordamchi so‘z turkumlari muhim sanaladi.

Arab tilidagi frazeologizmlarning struktur tarkibi arab tilshunoslari tomonidan tahlil qilinmagan bo‘lsa-da, bir qator rus tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, R.A. Bekirovning fikriga ko‘ra, zamonaviy arab tilshunosligidagi frazeologik birliklar asosan fe’l bilan boshlangan bo‘lib, ular quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

fe’l + ismlardan tashkil topgan frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlar arab tilida ko‘p uchraydi. Masalan, ضبط النفس (o‘zini nazorat qilmoq), كسر الصمت (sukutni buzdi – gapirdi), انقبض قلبه (yuragi siqilmoq).

fe’l + boshqa so‘z turkumidan tashkil topgan frazeologizmlar. Masalan, ضاق به ذرعا (sabr qila olmaydigan holatga yetmoq). ارتسم على وجهه السرور (yuziga tabassum yugurdi).

Biroq tilshunos fe’lli frazeologizmlarning predloglar bilan birga kelishini ta’kidlab o‘tmagan. Arab tilida aksar frazeologizmlar tarkibida predloglar qatnashishini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin: تقوقع على نفسه (o‘ziga berkinib olmoq) – boshqalarga qo‘shilmaslik, حفظ عن ظهر قلب (yurak tubi bilan himoya qilmoq) – qattiq himoya qilmoq, ختم على قلبه (yuragiga muhr bosmoq) – hech narsani tushunmaslik, خرج إلى النور (yorug‘likka chiqmoq) – ishlari yurishib ketmoq, سبح في خياله (xayolida suzmoq) – amalga oshmaydigan xomxayol qilmoq va boshqalar. Yuqoridagi frazeologizmlardan anglashildiki, arab tilidagi frazeologik birliklar tarkibida predloglar qatnashadi va ular frazeologik ma’noga ta’sir o‘tkazadi.

Fe’lli frazeologizmlarning tarkibida quyidagi so‘zlar faol qatnashadi:

- his-tuyg‘uni ifodalovchi so‘zlar;
- “aql”, “iroda”, “istak” kabi leksemalar;
- tana a’zolari nomlari (somatizmlar);
- sonlar (Bekirov R.A., 2011:124).

Tilshunos ushbu taqsimotini to‘g‘ri amalga oshirgan bo‘lib, arab tilida bunday turdagi frazeologizmlar ko‘p uchraydi. Masalan, his-tuyg‘uni ifodalovchi so‘zlardan

tashkil topgan frazeologizmlarga الألم يعتصر قلبه (og‘riq yuragini ezmoqda), انفرط قلبه (yuragi parchalandi), الروح ترتاح (ruhiyati dam olmoq) – taskin topmoq, الروح تلتهب (joni achimoq) kabi frazeologizmlarni, “aql”, “iroda”, “istak” kabi leksemalardan tuzilgan frazeologizmlarga عاد عقله إلى رأسه (aqli boshiga qaytdi) – es-hushini yig‘ib oldi, حكم عقله (aqlini ishlatmoq), إعتصر عقله (aqlini siqmoq) – miyasi achishib ketmoq kabi iboralarni, somatizmlardan tashkil topgan frazeologizmlarga عض بنانه (barmog‘ini tishlamoq) – afsuslanmoq, فاضت عينه (ko‘zi oqdi) – yig‘ladi, وقف شعر رأسه (tepa sochi tikka bo‘ldi) kabilarni, sonlardan tuzilgan frazeologizmlarga esa, masalan, بدأ من الصفر (noldan boshlamoq), ضرب عصفورين بحجر واحد (bir tosh bilan ikki chumchuqni urmoq) kabilarni misol keltirish mumkin.

R. Bekirov o‘zining yana bir boshqa maqolasida arab tilidagi fe’lli frazeologik birliklarning struktur tartibini quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

Fe’l+bosh kelishikdagi ism. أكلت الغيرة (rashk yedi) – rashk o‘tida kuymoq, سقط السماء (osmon tushdi) – yomg‘ir yog‘moq.

Fe’l+predlog+birikma olmoshi+bosh kelishikdagi ism. جازت عليه الحيلة (hiyla uning ustidan g‘alaba qozondi) – aldandi, ضاقت به صدرها (undan yuragi xijil bo‘ldi).

Fe’l+bosh kelishikdagi ism+birikma olmoshi. ابيض وجهه (yuzi oqardi) – yuzi yorug‘ bo‘ldi, اسود وجهه (yuzi qoraydi) – yuzi shuvut bo‘ldi.

Fe’l+bosh kelishikdagi ism+tushum kelishigidagi ism. بلغت الروح أنفه (joni burniga tegdi) – o‘ta charchadi.

Fe’l+bosh kelishikdagi ism+predlog+qaratqich kelishigidagi ism. Misol uchun, اختبس الصوت في خلقه (ovozi bo‘g‘ilib qoldi), اسودت الدنيا في وجهه (dunyo ko‘ziga qorong‘i ko‘rindi) (Bekirov R., 2011:135)

O‘zbek tilida ham frazeologizmlarning struktur tarkibi va ularning grammatik tuzilishi to‘liq ochib berilmagan. Biroq, qisman bo‘lsa-da, professor H. Jamolxonov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida bu haqida ma’lumot berib o‘tgan. Tilshunos frazemalar tarkibidagi turkum semalarni bo‘lar ekan, ularning fe’l frazema, sifat frazema, ravish frazemalarga bo‘linishini ta’kidlab o‘tadi. Undan tashqari olim o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiyaga bo‘lib, ularning har biriga misollar keltirgan. H. Jamolxonov frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma’no bo‘lsa, frazeologik monosemiya, ikki va undan ortiq frazeologik ma’no bo‘lsa, frazeologik polisemiya bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi (Jamolxonov H., 2005: 217-218).

Tilshunos H. Jamolxonovning ushbu taqsimoti to‘g‘ri amalga oshirilgan. O‘zbek tilidagi frazeologizmlarning aksar qismini frazeologik monosemiyalar tashkil etadi. Masalan, *ko‘ngli bo‘sh – rahmdil, ko‘ngilchan; ko‘ngli g‘ash – tashvishlangan, bezovta; ko‘nglini olmoq – xursand qilish bilan o‘ziga xayrixoh qilmoq; mukkasidan ketmoq – o‘zini tiya olmaydigan darajada berilib ketmoq; og‘zi qulog‘ida – nihoyatda xursand; sirkasi suv ko‘tarmaydi – tanqidni ko‘tara olmaydi; ter to‘kmoq –*

mashaqqatli jismoniy mehnat qilmoq va boshqalar. Ushbu frazeologizmlarning semantik tarkibida faqat bitta frazeologik ma’no ifodalanmoqda. Frazeologik polisemiyalar nisbatan kamroq bo‘lsa-da, ulardan ayrimlari tilshunoslikda faol qo‘llaniladi. Masalan, *avj olmoq – rivojlanmoq, zo‘raymoq, kuchaymoq; adi-badi aytishmoq – turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashmoq, so‘z tashlamoq, janjallashmoq; barmog‘ini tishlamoq – hech narsa qilolmay qolmoq, natijaga erisholmay qolmoq, afsuslanmoq; gap tegdi – gapirishga imkon berildi, tanbeh eshitdi; jon bermoq – hayot bag‘ishlamoq, o‘lmoq; ichi qizidi – qiziqish uyg‘ondi, zerikib siqildi va boshqalar*. Ushbu frazeologizmlar bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq ma’noni anglatib kelmoqda.

Arab tilshunosligida frazeologizmlar ushbu turlarga ajratib o‘rganilmagan. Biroq ularni ham frazeologik monosemiya va polisemiyaga alohida ajratish mumkin. Masalan, بلغت القلوب الحناجر (yurakka xanjar tegdi) – qattiq qo‘rqdi, جاوز الحد (haddidan oshmoq) – o‘zidan ketmoq, اختلط الحابل بالنابل (Hobilni Nobil bilan aralashtirmoq) – chalkashib ketmoq, ارتسم على وجهه السرور (yuziga xursandchilik yorishmoq) – xursand bo‘lmoq, chehrasi ochilmoq, طرق الحديد و هو ساخن (temirni issig‘ida bosmoq) – biror ishni o‘z vaqtida qilib olmoq va boshqalar. Shuningdek, arab tilida frazeologik polisemiyalar ham ko‘p uchraydi va o‘z semantik tarkibida bir nechta ma’nolarni anglatadi. Ularga quyidagi frazeologizmlarni misol keltirish mumkin:

بلغ أشده (balog‘atga yetmoq). Ushbu ibora ikki xil ma’noni anglatadi. Birinchi ma’nosi balog‘at yoshiga yetgan o‘smirga nisbatan qo‘llanilsa, ikkinchi ma’nosi biror bir narsani shiddatli avj olganini ifodalaydi. بلغت الحرب أشدها – urush nihoyatda avj oldi.

زاغ بصره (ko‘zi og‘moq). Ushbu frazeologizm bir vaqtning o‘zida uchta ma’noga dalolat qiladi. 1. Haqiqatni ko‘ra olmaslik; 2. Obro‘si to‘kilmoq; 3. Muayyan bir ish yuzasidan fikrlash qobiliyatini yo‘qotmoq.

بل ريقه (tomog‘i ho‘llanmoq). Ushbu ibora birinchi navbatda xotirjam bo‘lmoq, maqsadga erishish natijasida xursand bo‘lmoq ma’nolarini bildirib kelsa, ikkinchi darajada ovqat yeyishni xohlamoq, qattiq yeyishni xohlash natijasida so‘lagi oqmoq ma’nolarini ifodalaydi (الدكتور محمد محمد داود.، 2003: ص. 394).

Yuqoridagi ushbu misollardan ma’lum bo‘ladiki, arab tilida ham frazeologik monosemiya va polisemiyalar mavjud bo‘lib, ularni muayyan guruhlarga taqsimlab tahlil qilish va ushbu masala yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilidagi frazeologizmlarni struktur jihatdan iboraga teng frazeologizmlar va gapga teng frazeologizmlarga ajratish mumkin. Bu haqida A. Hojiyev o‘zining “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da ta’kidlab o‘tgan. Uning fikriga ko‘ra, frazeologik birliklar tuzilishi jihatdan so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlikdir (Hojiyev A., 1985: 137). O‘zbek tilida

birikmaga teng frazeologizmlar juda ko‘p uchraydi. *Boshidan oyoq, ipidan ignasigacha, boshi yostiqqa tekkanda, o‘ylab o‘yiga yetolmaslik, tarvuzini qo‘ltig‘iga olib, ko‘ngli g‘ash, dimog‘i chog‘, ta’bi xira, dunyoni suv olib ketsa to‘pig‘idan kelmaslik, yeng shimarib, yetti uxlab tushiga ham kirmaslik, yog‘ tushsa yalagudek qilib, yuragini hovuchlab, kecha-kunduz demay* ... kabi frazeologizmlar shular jumlasidandir. Shuningdek, *-moq* qo‘shimchasi qatnashgan frazeologik birliklar ham birikmaga teng frazeologizmlarga kiradi. Masalan, *dong chiqarmoq, dosh bermoq, boshini yerga qaratmoq, yodga solmoq, yon bosmoq, yoqasini ushlamoq, jar solmoq, zahrini sochmoq, izga solmoq, kovushini to‘g‘rilamoq, kalavasini yo‘qotmoq, ko‘zdan kechirmoq, ko‘ngli g‘ash bo‘lmoq, boshini achitmoq, adabini bermoq, oyog‘ini yerga tiramoq, og‘ziga talqon solmoq, pashshadan fil yasamoq.*

Yuqorida keltirilgan barcha iboralarda kesim qatnashmaganligi va gap hosil bo‘lmaganligi kuzatildi. Shu sababli bunday iboralar birikmaga teng frazemalar deyiladi.

O‘zbek tilida struktur jihatdan gapga teng bo‘lgan frazeologizmlar ham ko‘p uchraydi. Ularga *bag‘ri qon bo‘ldi, yuzi shuvut bo‘ldi, boshi aylandi, vahima bosdi, dami ichiga tushib ketdi, dili yorishdi, dimog‘i shishdi, do‘ppisi tor keldi, joniga oro kirdi, jon-poni chiqib ketdi, ichagi uzildi, ichi qizidi, kapalagi uchdi, og‘zi yopildi, pichoq suyakka borib taqaldi, putur yetdi, sabr kosasi to‘lib toshdi, suyagi qotdi, tili qisildi, tishi o‘tmaydi, toqati toq bo‘ldi, umidi uzildi* kabi frazeologizmlarni misol keltirish mumkin.

Arab tilida ham o‘zbek tilida bo‘lgani kabi birikmaga va gapga teng iboralar uchraydi. Ammo o‘zbek tilidan farqli ravishda gapga teng frazeologizmlar soni ko‘proq va ularning aksarini fe’l kesimli gapga teng iboralar tashkil etadi. Masalan, انسلخ من جلده (terisidan ajralib ketdi) – butunlay o‘zgarib ketdi, ارتسم على وجهه السرور (yuzida xursandchilik yorishdi), تجمد الدم في عروقه (qoni tomirlarida qotib qoldi), ضرب رأسه في الحائط (boshini devorga urdi), فتح عينيه جيدا (ko‘zlarini yaxshilab ochdi), ضرب كفا بكف (kaftini kaftiga urdi), طار من الفرح (xursandchilikdan uchdi). Ushbu iboralar struktur jihatdan fe’l kesimli gapga tengdir.

Birikmaga teng iboralarga esa البكاء على اللبن المسكوب (to‘kilgan sutga yig‘lamoq), yana, بقلب مفتوح (ochiq qalb bilan), بملء الفم (og‘zini to‘ldirib), حتى يشيب الغراب (qarg‘a qarib ketguncha), خفيف اليد (qo‘li yengil), حديد القلب (yuragi temir) kabi frazeologizmlarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, arab tilida شبه جملة (jumlaga o‘xshash) gaplarga teng birikmalar ham mavjud bo‘lib, ular predloglar bilan boshlanadi. Masalan, على عينه غشاوة (ko‘zida parda bor) ya’ni haqiqatni ko‘rmaydi, فيه داء ظبي (uning kasalligi kiyikning kasalligi). Kiyik kasallikdan tez tuzalganligi sababli ushbu ibora tez tuzaladigan insonga nisbatan qo‘llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur xususiyatlari tahlili o‘laroq quyidagi xulosalarga kelindi:

- arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning asosiy qismini fe’l kesimli frazeologizmlar tashkil etadi va ular arab tilshunosligida juda keng qo‘llaniladi;
- har ikki tilda ham so‘z birikmasiga teng va gapga teng frazeologizmlar uchraydi va ular murakkab semantik tarkibga ega. Biroq arab tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda gapga teng frazeologizmlar soni ko‘proqdir va ularning aksarini fe’l kesimli gapga teng iboralar tashkil etadi.

Ushbu misollardan xulosa qilish mumkinki, arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning struktur tarkibidagi farq katta emas. Balki har ikki tildagi frazeologik birliklar deyarli bir xil tuzilishga ega. Biroq, ularda so‘zlarning joylashuvi va ketma-ketligi bir-biridan farq qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бекиров Р.А. (2016) Общие вопросы лексико-семантических преобразований в глагольных фразеологизмах арабского языка // Научный вестник Крыма. – № 2(2). – С. 142.
2. Бекиров Р.А. (2011) Классификация глагольных фразеологизмах арабского языка на мезосинтаксическом уровне // Ученые записки Таврического национального университета им. В. И. Вернадского. Серия «Филология. Социальные коммуникации. – № 3. – С. 130-135.
3. Бозорбоев К. (2000) Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD). – Самарқанд.
4. G‘aniyeva Sh.A. (2017) O‘zbek frazeologizmlari strukturasi. (Shakliy va mazmuniy modellashtirish). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) … diss. avtoref. – Farg‘ona.
5. Раҳматуллаев Ш. (1978) Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. – 407 б.
6. Ҳожиев А. (1985) Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. – 520 б.
7. Жамолхонов Ҳ. (2005) Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин. – 321 б.
8. Юлдошев Б. (2007) Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд: СамДУ. – 106 б.
9. Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. (1976) Ўзбек фразеологиясидан материаллар. I қисм. – Самарқанд. – 176 б.
10. **الدكتور محمد محمد داود. معجم التعبير الاصطلاحي في العربية المعاصرة. – القاهرة: دار الغريب للطباعة و النشر و التوزيع، ٢٠٠٣. – ص. 394.**

REFERENCES:

1. Bekirov R.A. (2016) Obshiye voprosi leksiko-semanticheskix preobrazovaniy v glagolnix frazeologizmax arabskogo yazika // Nauchniy vestnik Krima. – № 2(2). – S. 142. (In Russian)

2. Bekirov R.A. (2011) Klassifikatsiya glagolnix frazeologizmax arabskogo yazika na mezosintaksicheskom urovne // Ucheniye zapiski Tavricheskogo natsionalnogo universiteta im. V. I. Vernadskogo. Seriya «Filologiya. Sotsialniye kommunikatsii. – № 3. – S. 130-135. (In Russian)

3. Bozorboyev K. (2000) O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD). – Samarqand. (In Uzbek)

4. G‘aniyeva Sh.A. (2017) O‘zbek frazeologizmlari strukturasi. (Shakliy va mazmuniy modellashtirish). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) … diss. avtoref. – Farg‘ona. (In Uzbek)

5. Rahmatullayev Sh. (1978) O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. – 407 b. (In Uzbek)

6. Hojiyev A. (1985) Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – 520 b. (In Uzbek)

7. Jamolxonov H. (2005) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. – 321 b. (In Uzbek)

8. Yuldoshev B. (2007) O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand: SamDU. – 106 b. (In Uzbek)

9. Berdiyorov X., Rasulov R., Yo‘ldoshev B. (1976) O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. I qism. – Samarqand. – 176 b. (In Uzbek)

10. **الدكتور محمد محمد داود. معجم التعبير الاصطلاحي في العربية المعاصرة. – القاهرة: دار الغريب للطباعة و النشر و التوزيع، ٢٠٠٣. – ص. 394.**

THE ROLE OF SPEECH ACTS IN LEGAL DISCOURSE: A PRAGMALINGUISTIC PERSPECTIVE

Rahmatova Bahora Ibodulla qizi
Oriental University, Faculty of Philology,
a senior teacher of Western Department, Independent researcher
Tel.: +998 90 022-96-60
e-mail: raxmatovabahorai@gmail.com

Annotation. This study explores the pragmalinguistic features of legal discourse using the lens of speech act theory, focusing on how different illocutionary acts function within various legal genres. Through a qualitative analysis of legislative texts, court rulings, and contractual agreements, the study identifies key illocutionary acts such as directives, declarations, assertives, commissives, and expressives, and examines their roles in establishing obligations creating legal realities and shaping commitments. The findings emphasize the importance of illocutionary force, authority, and institutional conventions in determining the legal meaning and implications of these acts. This analysis underscores the performative nature of legal language and its centrality in the practice of law.

Keywords: *legal discourse, pragmalinguistics, speech act theory, illocutionary act, legal genres.*

YURIDIK DISKURSDA NUTQ AKTLARINING AHAMIYATI: PRAGMALINGVISTIK PERSPEKTIV

Rahmatova Bahora Ibodulla qizi
Oriental universiteti, filologiya fakulteti,
G‘arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
Tel.: +998 90 022-96-60
e-mail: raxmatovabahorai@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuridik diskursda nutq aktlarining ahamiyati va funksiyalari batafsil o‘rganilgan. Nutq aktlari nazariyasiga asoslangan holda, maqolada deklarativ, buyruq beruvchi, va ma’lumot beruvchi nutq aktlarining yuridik kontekstda qanday qo‘llanishi va ularning pragmatik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot yuridik hujjatlar, sud jarayonlari va fuqarolar murojaatlaridagi nutq aktlarining rasmiylik darajasini oshirishi, yuridik munosabatlarni boshqarishdagi rolini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada nutq aktlarining yuridik matnlar va muloqotlarda huquqiy strategiyalarni shakllantirish va amalga oshirishdagi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Maqolaning asosiy maqsadi - nutq aktlari nazariyasi yuridik diskursda qanday vazifalarni bajarishi hamda ularning huquqshunoslik va tilshunoslikda tutgan o‘rni

borasida olimlar tomonidan keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *yuridik diskurs, pragmalingvistika, nutq aktlari nazariyasi, illokutiv akt, yuridik janrlar*

ЗНАЧЕНИЕ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В ПРАВОВОМ ДИСКУРСЕ: ПРАГМАЛИГВИСТИЧЕСКАЯ ПЕРСПЕКТИВА

Рахматова Бахора Ибодуллаевна
Филологический факультет университета Ориентал,
Старший преподаватель кафедры Западных языков,
независимый исследователь
Тел.: +998 90 022-96-60
e-mail: raxmatovabahorai@gmail.com

Аннотация. Данная статья посвящена изучению роли и функций речевых актов в юридическом дискурсе. Основываясь на теории речевых актов, статья анализирует использование декларативных, директивных и информативных актов в юридическом контексте и их прагматические особенности. Исследование подчеркивает, как речевые акты в юридических документах, судебных процессах и обращениях граждан повышают уровень формальности, усиливают авторитетность и регулируют правовые отношения. Особое внимание уделено роли речевых актов в стратегическом управлении коммуникацией между государственными органами и гражданами, а также в реализации правовых норм и принятии решений. Статья раскрывает специфику речевых актов в формировании и реализации юридических стратегий в текстах и коммуникациях.

Ключевые слова: *юридический дискурс, прагмалингвистика, теория речевых актов, иллокутивная сила, юридические жанры.*

INTRODUCTION

Legal discourse, as a specialized form of language, is characterized by a high degree of formality, precision, and institutional authority. It operates within a framework where language not only conveys information but also performs actions. For example, when a judge pronounces a sentence or a legislator passes a law, language does not merely describe facts, it creates binding realities and obligations (Tiersma P., 1999:54). Speech act theory, as introduced by J.L. Austin (Austin J., 1962:75) in “How to do things with words” and developed further by John Searle (Searle J., 1969:49), provides a framework for analyzing how language functions to achieve performative effects. Austin proposed three central acts within every utterance: locutionary (the act of saying something), illocutionary (the act intended by the speaker), and

perlocutionary (the effect on the listener). Legal discourse, particularly, is rich with illocutionary acts that reflect the speaker's authority, intention, and institutional power.

LITERATURE REVIEW

The study of speech acts within legal discourse has been a significant area of research in pragmatics and legal linguistics. Scholars have consistently explored how legal language functions not only to convey information but also to perform actions such as asserting, promising, commanding, and declaring. This section reviews the key contributions and findings of notable scholars in this field.

The application of Speech Act Theory, developed by J.L. Austin (Austin J., 1962:18) and further advanced by John Searle (Searle J., 1969:58), provided the foundational framework for understanding how utterances in legal contexts perform actions. Austin's concepts of "locutionary", "illocutionary", and "perlocutionary acts" have been adapted to study legal texts and courtroom interactions, where illocutionary acts, such as directives and declaratives, are particularly prevalent. Searle's taxonomy of speech acts – assertives, directives, commissives, expressives, and declarations – offers a detailed lens through which legal speech can be analyzed. Research by Tiersma (Tiersma P., 1999:77) emphasizes that legal language has specific pragmalinguistic features that distinguish it from other discourse types. According to Tiersma, the use of performative verbs such as "declare", "order", "authorize", and "convict" exemplifies the performative nature of legal discourse. Tiersma's studies highlighted how the authoritative and formal nature of legal language relies on performatives to fulfill institutionalized roles and obligations.

Ashurova D. (Ashurova D., 2019:115) also explored the performative power of legal language, showing how it constructs realities, especially in written legal documents like contracts, wills, and statutes. She argued that legal discourse, through specific speech acts, creates and regulates relationships between parties. In courtroom settings, some scholars investigated how directives are employed by judges and attorneys. They argued that the repetitive and authoritative use of questions, orders, and instructions not only controls the flow of courtroom discourse but also establishes and maintains institutional power dynamics. These findings have been corroborated by Safarov (Safarov Sh., 2008:36), who analyzed how legal professionals use directives and questions to frame narratives, elicit responses, and manipulate the interactional context to achieve desired legal outcomes. In analyzing legislative texts, Bhatia (Bhatia V., 1987:110) pointed out that legislative drafting heavily relies on the use of declarative speech acts, making statutes resemble a set of commands or regulations. He emphasized that legal drafting aims to achieve precision and authority through the strategic use of speech acts, which often include performatives and conditionals to guide legal interpretation.

From a sociopragmatic perspective, Tiersma (Tiersma P., 2005:47) argued that the authority embedded in legal speech acts is not inherent but is socially constructed and maintained through legal conventions. The authors examined how power relations in legal institutions are reinforced through repetitive use of authoritative declaratives and directives, asserting that these acts are crucial in sustaining institutional legitimacy. The study of speech acts in legal discourse reveals how legal professionals strategically use language to assert authority, control interactions, and achieve legal objectives. Scholars have identified the distinct characteristics of legal speech acts and have explored their functions across different legal genres and cultural contexts.

RESEARCH METHODOLOGY

This study employs a qualitative research approach to analyze the pragmalinguistic features of legal discourse within the framework of speech act theory. The research is divided into three stages: data collection, data analysis, and validation of findings. The methodology incorporates contributions from Uzbek and Russian scholars in the fields of legal linguistics and pragmatics to enrich the theoretical foundation of this study.

The primary data sources for this study include legislative texts, court rulings, and contractual agreements from both common law and civil law traditions. The selection criteria focused on texts where illocutionary acts such as directives, declarations, assertives, commissives, and expressives are prominently featured. Additionally, the study draws on materials from Uzbek and Russian legal discourse to incorporate cross-cultural perspectives and identify variations in the use of speech acts. In order to analyse our research we used the following research steps:

1. **Identification of Illocutionary Acts:** Each text was examined to identify instances of the five key illocutionary acts: directives, declarations, assertives, commissives, and expressives. The identification process was guided by theoretical frameworks established by Austin (Austin J., 1962:219), Searle (Searle J., 1969:97), and additional contributions from Uzbek and Russian scholars.

Uzbek researchers such as T.K. Nuriddinov and M.M. Muhamedov have contributed significantly to the study of pragmatics and legal discourse in Uzbek language contexts. Nuriddinov's work (Nuriddinov T., 2015:56) emphasizes the role of directives in establishing legal norms and authority in legislative texts, while Muhamedov (Muhamedov M., 2017:37) explores how declarative speech acts in Uzbek court judgments create binding legal realities. These insights informed the analysis of legislative texts and judicial decisions in this study.

2. **Categorization by Legal Genre:** The identified speech acts were categorized based on the genre of legal texts, such as legislative provisions, courtroom exchanges, and contractual agreements. The categorization followed the models proposed by

Uzbek scholar M.A. Karimov (Karimov M., 2019:83), who highlighted the importance of understanding legal genres in pragmalinguistic analysis.

3. **Analysis of Illocutionary Force and Institutional Context:** Following Searle's (Searle J., 1979:118) principles of illocutionary force, the study examined how institutional norms, legal authority, and procedural conventions shape the effectiveness of speech acts. The analysis drew on the work of Russian linguist A.Y. Shcherbinin (Shcherbinin A., 2018:74), who emphasized the interplay between institutional authority and illocutionary force in legal discourse. Shcherbinin's research on courtroom language in Russian courts provided valuable insights into how illocutionary force is reinforced through institutionalized legal practices.

Validation of Findings

To ensure the validity and reliability of the findings, the study employed the following validation methods:

1. **Cross-Cultural Comparison:** The analysis included a comparative examination of legal texts from Uzbek, Russian, and English legal contexts. This cross-cultural approach aimed to identify variations in the use of illocutionary acts across different legal systems. The works of Russian scholars like V. I. Karasik (Karasik V., 2002:56) and Uzbek researchers such as S.R. Akhmedova (Akhmedova S., 2016:19) on the cross-cultural pragmatics of legal language were instrumental in guiding this comparative analysis.

2. **Peer Review:** Preliminary findings were shared with legal linguistics experts from Uzbek and Russian academic institutions for feedback. Their input helped refine the interpretation of illocutionary acts in the selected texts and ensured that the analysis accounted for cultural and legal specificities.

3. **Thematic Analysis:** The study utilized thematic analysis to identify recurring themes related to the use of speech acts in legal discourse. This approach was informed by the methods proposed by Russian linguist M. N. Volodina (Volodina M., 2014:24), who advocated for a systematic examination of themes and patterns in legal communication.

ANALYSIS AND RESULTS

The results indicate that legal discourse employs a combination of illocutionary acts to achieve its communicative and institutional objectives. Each genre of legal text is characterized by a distinct set of speech acts that serve to impose obligations, confer rights, or legitimize actions. Legislative texts rely heavily on directive speech acts to establish rules, obligations, and permissions. The use of modal verbs like *shall, must, and may* is a defining feature of these texts. For example, the phrase, "*The employee shall provide a two-week notice before termination,*" establishes a binding obligation

on the employee. According to Searle (Searle J., 1979:63), these directives function as commands that derive their illocutionary force from the authority vested in lawmakers.

This aligns with Bhatia's (Bhatia V., 1993:58) observation that legislative texts are performative in nature, as they prescribe actions and behaviors. Directives in legal texts are not merely requests but carry the force of law, backed by institutional power and enforced by the state. Declarations are a central feature of courtroom discourse and judicial opinions. Judges and legal officials often make declarations that create new legal realities, such as pronouncing a defendant guilty or declaring a contract void. These declarations are performative acts that require the speaker's institutional authority to be effective (Kurzon D., 1986:76).

For instance, the statement, "The court hereby sentences the accused to five years in prison," is a declaration that changes the legal status of the accused. The illocutionary force of such declarations depends on adherence to legal procedures and the institutional framework within which the judge operates (Felton R., 2009:37).

Assertive speech acts are prevalent in legal discourse, particularly in courtroom exchanges and legal arguments. Lawyers and witnesses use assertives to present facts, introduce evidence, and make claims. According to Heffer (Heffer C., 2005:124), assertives serve to establish legal truths and persuade the audience of their validity.

For example, a lawyer might state, "The evidence clearly shows that the defendant was at the crime scene at the time of the incident." This assertive statement commits the speaker to the truth of the claim and is intended to influence the court's understanding of the case. Assertives in legal contexts are often reinforced by references to evidence and legal precedents (Cotterill J., 2003:110).

Commissives are critical in legal agreements and contracts, where parties make binding promises to undertake specific actions. For example, a commercial contract might include the clause, "The seller agrees to deliver the goods within 30 days." This is a commissive speech act that establishes a legal obligation for the seller.

Gibbons (Gibbons J., 2003:127) notes that contracts are built on the mutual exchange of promises, which are legally binding commissive acts. Failure to fulfill these promises can result in legal consequences, such as damages or penalties, highlighting the performative nature of commissive acts in legal contexts.

Expressive speech acts, which convey the speaker's emotions or attitudes, play a lesser but notable role in legal discourse. Judges sometimes use expressives in their opinions to reflect their assessment of the parties' conduct or the severity of a situation. For instance, a judge may state, "The court expresses its deep concern over the defendant's lack of remorse," signaling disapproval and emphasizing the gravity of the offense (Cotterill J., 2003:103).

DISCUSSION

The findings of this study underscore the complexity of legal discourse, highlighting its reliance on a combination of various illocutionary acts to fulfill specific legal and institutional functions. By examining directives, declarations, assertives, commissives, and expressives, this study has revealed the distinctive ways in which legal language operates within institutional contexts to create legal obligations, assert rights, and convey authority. This section discusses each type of illocutionary act in greater detail, along with its role in shaping legal discourse.

1. Directives and Their Institutional Power

In legislative texts, directives play a central role in establishing rules and norms that citizens and organizations must follow. For instance, legislative provisions often employ modal verbs such as *shall, must, or may* to indicate legal requirements, permissions, and prohibitions. The phrase, "The parties *shall* act in good faith in all dealings," exemplifies a directive that imposes a binding obligation on the contracting parties (Bhatia V., 1993:97). Such directives derive their illocutionary force from the legal authority of the legislative body that issues them, thereby making them enforceable through the legal system.

What distinguishes legal directives from everyday commands is the institutional framework that legitimizes and enforces these utterances. When a lawmaker states, "A person *must* report any change of address within ten days," this utterance functions as a command backed by the authority of the state. According to Tiersma (Tiersma P., 1999:87), the performative power of legal directives is tied to their enforceability and the consequences of non-compliance, which can range from fines to imprisonment.

2. Declarations and the Creation of Legal Realities

Declarations are another crucial type of illocutionary act in legal discourse, as they directly bring about changes in legal status or conditions. Declarations are prominent in judicial contexts, where judges and legal officials make pronouncements that establish new legal realities. For example, when a judge declares a defendant "guilty as charged," this declaration effectively changes the defendant's legal status and subjects them to the consequences specified by law (Kurzon D., 1986:98).

The effectiveness of such declarations depends on the institutional authority of the judge and the procedural legitimacy of the courtroom setting. This aligns with Searle's (Searle J., 1979:97) categorization of declarations as speech acts that change the external world by their utterance. Consider the declaration, "The court hereby dissolves the marriage between the parties," which alters the legal status of the individuals involved. Such declarations are performative because they rely on the authority conferred upon the judge by the legal system.

3. Assertives and the Establishment of Legal Truths

Assertives are speech acts that commit the speaker to the truth of a proposition. In legal discourse, assertives are frequently used to establish facts, present evidence, and construct legal arguments. During courtroom proceedings, lawyers and witnesses often make assertive statements to convince the judge or jury of their version of events. For instance, a defense attorney might assert, "The evidence clearly shows that my client was not present at the scene of the crime," thereby committing to the factuality of the statement (Heffer C., 2005:76).

In legislative contexts, assertive speech acts are also prevalent in the preambles of laws, where lawmakers justify the need for specific legislation. For example, a preamble might state, "Whereas it has been determined that air pollution poses a significant threat to public health, the following regulations are enacted." This assertive statement lays the groundwork for the subsequent directives, establishing a factual basis for the law.

4. Commissives and Binding Obligations in Contracts

Commissive speech acts play a fundamental role in contractual and agreement-based legal discourse. A commissive act commits the speaker to a specific future action, creating a binding obligation. Contracts, for instance, are built on mutual commissives, where each party agrees to fulfill certain responsibilities in exchange for certain benefits. For example, a commercial contract might include the clause, "The seller agrees to deliver the goods within 30 days of receipt of payment," which establishes a clear obligation for the seller (Gibbons, 2003:27).

The legal force of commissives depends on the clear expression of intentions and the mutual consent of the parties involved. According to Searle (Searle J., 1969:132), commissives in contracts function as promises that, when broken, may result in legal penalties or enforcement measures. The language of contracts, therefore, is carefully constructed to minimize ambiguities and explicitly state the terms of the agreement, reflecting the high stakes and legal consequences of non-compliance.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The findings of this study reveal that legal discourse is a dynamic field where language is not merely descriptive but also fundamentally performative. By employing the lens of speech act theory, it becomes evident that legal texts and spoken legal language rely on a sophisticated use of illocutionary acts to achieve legal and institutional objectives. The primary illocutionary acts identified in this study-directives, declarations, assertives, commissives, and expressives – each serve distinct roles within the legal framework.

One of the key insights from this analysis is the significance of illocutionary force in shaping legal meanings. The effectiveness and legitimacy of legal speech acts

depend heavily on the authority of the speaker, adherence to institutional norms, and the formalized structure of legal discourse. In legislative contexts, directives gain their illocutionary force from the legal power vested in lawmakers and the enforceability of the laws they enact. Similarly, in judicial contexts, declarations by judges derive their performative force from the procedural rules and judicial authority that underpin them.

REFERENCES:

1. Abdurahmonova, N. (2023) Zamonaviy til nazariyasida “Diskurs” atamasi va unga ilmiy yondashuvlar // Finland International Scientific Journal of Education. (In Uzbek)

2. Abduolimova, M., G‘aniyeva, N. (2024) Tilshunoslikda nutq akti nazariyasi va nutqiy aktlarning qo‘llanilishi // ORIENS. (In Uzbek)

3. Akhmedova, S. (2016) Cross-Cultural Pragmatics of Legal Language in Uzbekistan and Russia // Tashkent State Institute of Oriental Studies.

4. Ashurova, D. (2019) On the Issue of Legal Regulation of Foreign Economic Agreements in the Agroindustrial Complex // Bulletin of Science and Practice.

Suriyadan esa Muhammad Murod Buxoriy izdoshlari naqshbandiya-mujaddidiya g‘oyalarini Falastinga olib kirishadi. U yerda bir necha zoviya, jumladan Quddusda 1973-yilgacha faoliyat ko‘rsatgan zoviyat al-uzbakiya (o‘zbeklar zoviyasi)ga asos solinadi. XIII/XIX asr boshlarida Iroq, Suriya va Kurdistonda xojagon-naqshbandiyaning keng tarqalishi Sulaymoniya kurdlaridan bo‘lgan Mavlono Xolid al-Bag‘dodiy (1193/1779–1242/1827) faoliyati bilan bog‘liqdir. U 1809-yili Hindistonga borib, Dehlida Shayx Abdulloh G‘ulom Alishoh Sohib Dehlaviyga (1158/1745–1240/1824) murid tushadi, 1811-yili vataniga qaytib, o‘zining xolidiya deb ataluvchi mustaqil tarmog‘iga asos soladi. Naqshbandiya-xolidiya XIII/XIX asrda Turkiya, Kurdiston va arab mamlakatlariga keng tarqaladi. Xuddi shu davrda ushbu tarmoq Hijoz orqali Indoneziya, Malayziya, Seylon, Filippin va Mozambikka, shimoliy Turkiya orqali esa Kavkazga kirib boradi (Акимушкин О., 1991:187-188).

Bundan tashqari ushbu tariqatning tarmoqlaridan biri Afrika qit’asidagi Kongo mamlakati musulmonlari orasida ham mavjud (Нафисий С., 1964:225).

Bugungi kunda xojagon-naqshbandiya tariqatining naqshbandiya-mujaddidiya tarmog‘i vakillari Hindiston va Pokiston mamlakatlarida ko‘plab topiladi (Ориё Ғ., 1986:68).

XII asrda Abdulxoliq G‘ijduvoniy tomonidan Buxoroda asos solingan xojagon-naqshbandiya tariqatining oradan ikki asrdan ko‘proq vaqt o‘tib – Xoja Bahouddin Naqshband vafotidan keyin butun Markaziy Osiyoga yoyilishi hamda bu o‘lkada sezilarli iqtisodiy va siyosiy qudratga erishishi, XV asrdan boshlab esa xorijiy o‘lkalarga ham tarqala boshlashi mazkur tariqat ta’limotining ma’lum darajada o‘zi yoyilgan o‘lkalar xalqlarining orzu-armonlari va ma’naviy ehtiyojlariga javob berganligini ko‘rsatadi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tarqalgan ushbu tariqatning bizning davrimizgacha saqlanib qolganligi va o‘z hayotida davom

etayotganligi esa uning ta’limotida ma’lum davr bilan chegaralanib qolmaydigan abadiy va o‘lmas g‘oyalar targ‘ib etilishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон (Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд) / Таҳрир ҳайъати: А. Рустам ва бошқалар; Форсийдан таржима, сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмудхон Махдум Ҳасанхон Махдум ўғли. – Тошкент: «Ёзувчи», 1993. – 208 б.

2. Аз гуфтори Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний (асар бобларидан парчалар) / Форс тилидан Маҳмуд Ҳасаний ва Г. Музаффар қизи таржимаси // Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний [Сўзбоши, таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи: Маҳмуд Ҳасаний]. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2003. – 128 б. – Б. 112-121.

3. Навоий, Алишер. Насойим ул-муҳаббат. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн еттинчи том / Нашрга тайёрловчилар: С. Ғаниева, М. Мирзааҳмедова. Арабча ва форсча матнларни таржима қилиб, нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: С. Рафиддинов. – Тошкент: «Фан», 2001. – 520 б.

4. Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Одоби тариқат / Форс тилидан Маҳмуд Ҳасаний ва Г. Музаффар қизи таржимаси [Сўзбоши, таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи: Маҳмуд Ҳасаний]. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2003. – 128 б. – Б. 97-101.

5. Зоиров Э. Х. Махдуми Аъзамнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари // Жамият ва бошқарув. 2003. №1. – Б. 34-35.

6. Зоиров Э. Х. Махдуми Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашлари: Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертациянинг автореферати. – Тошкент, 2007.

7. Ориф Усмон. Бухорои шарифнинг етти пири. – Тошкент: ТошДШИ нашриёти, 2003. – 172 б.

8. Тўраев Ҳ. Нақшбандия ва Жўйбор шайхлари // Жаҳон мулкининг нигоҳбони. – Бухоро: «Бухоро», 1993.

9. Акимушкин О. Накшбандия // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. – 315 с. – С. 187-188.

10. Анке фон Кюгельген. Расцвет Накшбандия-Муджаддидия в Средней Трансоксании с XVIII — до начала XIX вв.: опыт детективного расследования [Перевод с немецкого языка: Скородума] // Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фрица Майера (1912—1998) / Сост. и отв. редактор А. А. Хисматуллин. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2001. – 394 с. – С. 275-330.

11. Ариф Усман. Крупнейшие суфийские братства Центральной Азии. – Самарканд: «Саратон-Хамар», 1999. – 115 с.

12. Тураев Х. Роль Джуйбарских ходжей в общественно-политической и духовно-культурной жизни Бухарского ханства XVI-XVII веков: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент – 2007.

13. Хасан Камиль Йылмаз. Тасаввуф и тарикаты. Перевод с турецкого А. Урманова. – Москва: ООО «Издательская группа «САД», 2007. – 300 с.

14. Хисматулин А. Суфийская ритуальная практика: (На примере братства Накшбандия). – СПб.: Центр «Петербургское Востоковедение», 1996. – 208 с.

15. Шиммель, Аннемари. Мир исламского мистицизма / Пер. с англ. Н. И. Пригариной, А. С. Раппопорт. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: ООО «Садра», 2012. – 536 с.

16. Necdet Tosun, Bahâeddin Nakşbend: Hayatı, Görüşleri, Tarikatı. – İstanbul: İnsan Yayınları, 2007, 3. baskı.

17. Мавлоно Фахриддин Али бин Ҳусайн Воиз Кошифий. Рашаҳоту айн ал-ҳаёт [Муқаддима, таҳрир, изоҳлар ва иловалар муаллифи доктор Али Асғар Маъиниён]. 2 жилдлик.1-жилд. – Теҳрон: «Нуроний» хайрия жамғармаси нашриёти, 2536/1977. – 361 б. (Fors tilida)

18. Жомий, Нуриддин Абдурраҳмон ибн Аҳмад. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ул-қудс [Таҳрир ва сўзбоши муаллифи Маҳмуд Обидий]. Тўртинчи нашр. – Теҳрон: «Эттелоот», 1382/2003. – 1215 б. (Fors tilida)

19. Ориё, Ғуломали. Ҳиндистон ва Покистонда чиштия тариқати. – Теҳрон: «Зуввор», 1365/1986. (Fors tilida)

20. Умидворниё, Муҳаммаджавод. Нақшбандийлик ва унинг Марказий Осиё ва Хитойдаги таъсири // «Марказий Осиё ва Кавказ тадқиқотлари» журнали. – Теҳрон. 1373/1994 й. кузи, №6. – Б. 27-52. (Fors tilida)

21. Нафисий, Саид. Эронда тасаввуф илдизлари. – Теҳрон: Фуруғий, 1343/1964. – 275 б. (Fors tilida)

REFERENCES:

1. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon (Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband) / Tahrir hay’ati: A. Rustam va boshqalar; Forsiydan tarjima, so‘zboshi va lug‘at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o‘g‘li. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1993. – 208 b. (In Uzbek)

2. Az guftori Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy (asar boblaridan parchalar) / Fors tilidan Mahmud Hasaniy va G. Muzaffar qizi tarjimasi // Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy [So‘zboshi, tarjima, lug‘at va izohlar muallifi: Mahmud Hasaniy]. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2003. – 128 b. – B. 112-121. (In Uzbek)

3. Navoiy, Alisher. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n yettinchi tom / Nashrga tayyorlovchilar: S. G‘aniyeva, M.

Mirzaahmedova. Arabcha va forscha matnlarni tarjima qilib, nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir: S. Rafiddinov. – Toshkent: "Fan", 2001. – 520 b. (In Uzbek)

4. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy. Odobi tariqat / Fors tilidan Mahmud Hasaniy va G. Muzaffar qizi tarjimasi [So'zboshi, tarjima, lug'at va izohlar muallifi: Mahmud Hasaniy]. – Toshkent: "O'zbekiston", 2003. – 128 b. – B. 97-101. (In Uzbek)

5. Zoirov E. X. Maxdumi A'zamning ijtimoiy-siyosiy qarashlari // Jamiyat va boshqaruv. 2003. №1. – B. 34-35. (In Uzbek)

6. Zoirov E. X. Maxdumi A'zamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyaning avtoreferati. – Toshkent, 2007. (In Uzbek)

7. Orif Usmon. Buxoroi sharifning yetti piri. – Toshkent: ToshDSHI nashriyoti, 2003. – 172 b. (In Uzbek)

8. To'rayev H. Naqshbandiya va Jo'ybor shayxlari // Jahon mulkining nigohboni. – Buxoro: "Buxoro", 1993. (In Uzbek)

9. Akimushkin O. Nakshbandiya // Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Nauka, 1991. – 315 s. – S. 187-188. (In Russian)

10. Anke fon Kyugelgen. Rassvet Nakshbandiya-Mudjaddidiya v Sredney Transoksanii s XVIII — do nachala XIX vv.: opit detektivnogo rassledovaniya [Perevod s nemeskogo yazika: Skoroduma] // Sufizm v Sentralnoy Azii (zarubejniye issledovaniya): Sb. st. pamyati Fritsa Mayera (1912—1998) / Sost. i otv. redaktor A. A. Xismatullin. – SPb.: Filologicheskiy fakultet SPbGU, 2001. – 394 s. – S. 275-330. (In Russian)

11. Arif Usman. Krupneyshiye sufiyskiye bratstva Sentralnoy Azii. – Samarkand: "Saraton-Xamar", 1999. – 115 s. (In Russian)

12. Turayev X. Rol Djuybarskix xodjey v obshyestvenno-politicheskoy i duxovno-kulturnoy jizni Buxarskogo xanstva XVI-XVII vekov: Aftoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni doktora istoricheskix nauk. – Tashkent – 2007. (In Russian)

13. Xasan Kamil Yilmaz. Tasavvuf i tarikati. Perevod s tureskogo A. Urmanova. – Moskva: OOO «Izdatelskaya gruppa "SAD", 2007. – 300 s. (In Russian)

14. Xismatulin A. Sufiyskaya ritualnaya praktika: (Na primere bratstva Nakshbandiya). – SPb.: Sentr «Peterburgskoye Vostokovedeniye», 1996. – 208 s. (In Russian)

15. Shimmel, Annemari. Mir islamskogo mistitsizma / Per. s angl. N. I. Prigarinoy, A. S. Rappoport. 2-ye izd., ispr. i dop. – Moskva: OOO "Sadra", 2012. – 536 s. (In Russian)

16. Necdet Tosun, Bahâeddin Nakşbend: Hayatı, Görüşleri, Tarikatı. – İstanbul: İnsan Yayınları, 2007, 3. baskı. (In Turkish)

17. Mavlono Faxriddin Ali bin Husayn Voiz Koshifiy. Rashahotu ayn al-hayot [Muqaddima, tahrir, izohlar va ilovalar muallifi doktor Ali Asg‘ar Ma’iniyon]. 2 jildlik.1-jild. – Tehron: “Nuroniy” xayriya jamg‘armasi nashriyoti, 2536/1977. – 361 b. (In Iranian)

18. Jomiy, Nuriddin Abdurrahmon ibn Ahmad. Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds [Tahrir va so‘zboshi muallifi Mahmud Obidiy]. To‘rtinchi nashr. – Tehron: “Etteloot”, 1382/2003. – 1215 b. (In Iranian)

19. Oriyo, G‘ulomali. Hindiston va Pokistonda chishtiya tariqati. – Tehron: “Zuvvor”, 1365/1986. (In Iranian)

20. Umidvorniyo, Muhammadjavod. Naqshbandiylik va uning Markaziy Osiyo va Xitoydagi ta’siri // «Markaziy Osiyo va Kavkaz tadqiqotlari» jurnali. – Tehron. 1373/1994 y. kuzi, №6. – B. 27-52. (In Iranian)

21. Nafisiy, Said. Eronda tasavvuf ildizlari. – Tehron: Furug‘iy, 1343/1964. – 275 b. (In Iranian)

THE INCREASE OF THE STRUGGLE AGAINST THE SOVIET AUTHORITY IN CENTRAL ASIA (1931)

Boboyev Feruz Sayfullayevich
Deputy director of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan, head of the "Military History Study" center, doctor of history sciences
Tel.: +998 97 262-70-72
e-mail: fbs2012@bk.ru

Annotation. The armed movement against Soviet power in Central Asia continued between 1918 and 1935. During these years, the struggle sometimes increased and sometimes decreased. However, the score of the struggle rose to a higher level in 1931. Colonial policy, which was implemented in the field of agriculture by the Soviet authorities, was its main reason. The struggle intensified again in 1931 since the population attempted to restore their rights, because their opportunities of making revenue had been limited. In addition, Ibrohimbek's return from Afghanistan, his re-leadership of the struggle, the complexity of the political, social and economic processes of that period, and the increase in public dissatisfaction with the Bolshevik policy are analyzed. These issues are explained on the basis of the reports of the leaders of the Soviet government, documents of the OGPU and other primary sources.

Keywords: *armed movement, soviet, struggle, uprising, political situation, immigrant, social life, famine.*

O'RTA OSIYODA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI KURASHNING KUCHAYISHI (1931-YIL)

Boboyev Feruz Sayfullayevich
O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori o'rinbosari, "Harbiy tarixni o'rganish" markazi boshlig'i, tarix fanlari doktori
Tel.: +998 97 262-70-72
e-mail: fbs2012@bk.ru

Annotatsiya. O'rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat 1918-1935-yillarda davom etgan. Shu yillar mobaynida kurash ba'zan o'sib, ba'zan pasayib turgan. Biroq 1931-yilda kurash ko'lami yuqori darajada ko'tarilgan. Bunga sovet hokimiyatining qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirgan mustamlakachilik siyosati katta ta'sir ko'rsatdi. Aholining iqtisodiy jihatdan daromad topishga yo'naltirilgan barcha imkoniyatlari cheklanishi natijasida o'zining huquqlarini tiklash maqsadida

1931-yilda kurash yana qaytadan kuchaygan. Shuningdek, Ibrohimbekning Afg‘onistondan qaytib kelishi, kurashga yana rahbarlik qilishi, shu davrdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning murakkabligi, bolsheviklar siyosatiga nisbatan aholi noroziligining kuchayganligi tahlil qilingan. Ushbu masalalar sovet hokimiyati rahbarlarining ma’ruzalari, OGPU hujjatlari va boshqa birlamchi manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *qurolli harakat, sovet, kurash, qo‘zg‘olon, siyosiy holat, muhojir, ijtimoiy hayot, ocharchilik.*

УСИЛЕНИЕ БОРЬБЫ ПРОТИВ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (1931 г.)

Бобоев Феруз Сайфуллаевич

Заместитель директора Института истории АН Узбекистана, руководитель центра «Военно-исторических исследований», доктор исторических наук

Тел.: +998 97 262-70-72

e-mail: fbs2012@bk.ru

Аннотация. Вооруженное движение против советской власти в Средней Азии продолжалось в 1918-1935 гг. В эти годы борьба то нарастала, то уменьшалась. Однако масштаб борьбы поднялся на более высокий уровень в 1931 году. Причиной этого стала колониальная политика, проводимая советскими властями в области сельского хозяйства. В 1931 году борьба снова обострилась за восстановление своих прав в результате ограничения всех возможностей населения, направленных на получение доходов. Анализируются также возвращение Ибрагимбека из Афганистана, повторное руководство борьбой, сложность политических, социальных и экономических процессов того времени, растущее недовольство народа политикой большевиков. Эти проблемы объясняются на основе докладов руководителей Советского правительства, документов ОГПУ и других первоисточников.

Ключевые слова: *вооруженное движение, совет, борьба, восстание, политическая ситуация, иммигрант, общественная жизнь, голод.*

KIRISH

XX asrning dastlabki choragida dunyo siyosiy hayotida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar zamirida ulkan imperiyalarning parchalanishi va ular qo‘l ostida bo‘lgan xalqlarning ozodlikka chiqish uchun kurashlari boshlanib ketdi. Rossiya imperiyasiga, keyinchalik bolsheviklar hokimiyatiga qarshi Turkistonda qayta boshlanib ketgan milliy-ozodlik harakatlari ham dunyo siyosiy hayotida alohida o‘rin egallaydi. Sovet hokimiyatiga qarshi Turkiston mintaqasini keng ko‘lamda qamrab

olgan ushbu harakat o‘zining taraqqiyparvarlardan iborat g‘oyaviy rahbarlariga, dasturiga, boshqaruv tizimiga, yetakchi harbiy yo‘lboshchilariga, o‘z qo‘shiniga ega edi. Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlarida aholining barcha toifalari ishtirok etgan. Bu nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlar ham faol qatnashgan umummilliy harakat edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turkiston mintaqasida, keyinchalik O‘rta Osiyo respublikalarida sovet hokimiyatiga qarshi kurash tarixi bo‘yicha sovet davrida M. Irkayev, Y.A. Polyakov, A.I. Chugunov, A.I. Zevelev, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Q. Rajabov, D. Ziyoyeva, S. Shodmonova, N. Norjigitova, U. Rashidov, N. Nazarov, R. Hakimov, N. Hidoyatova, F. Boboyev, D. Mo‘minov, B. Tojiboyev, N. Hamayev, MDHda Y.V. Gankovskiy, D. Shevchenko, V.S. Boyko, N.S. Tarxova, S.A. Nefedov, T. Allaniyazov, K. Abdullayev, J. Annaorazov, Z. Altimishova va xorijda V. Ritter, H. Paksoy, B. Loring, M. Buttino, B. Penati kabi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ushbu maqola quyidagi jihatlari bilan ulardan farqlanadi. Birinchidan, maqola aynan 1931-yilda kechgan kurashlar tarixiga bag‘ishlangan. Ikkinchidan, O‘rta Osiyoda olib borilgan kurashlarning eng yuqori nuqtasi aynan shu yilda bo‘lganligi uchun shu mavzu tanlangan. Uchinchidan, boshqa tadqiqotlarda bu davr batafsil yoritilmagan. Faqatgina 1931-yildagi ayrim janglar va Ibrohimbekning qo‘lga olinishi tilga olinadi. Biroq shu yilda sovet hokimiyatiga qarshi kurash nima uchun o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqqanligi, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillari keng tahlil etilmagan. To‘rtinchidan, mavzuni yoritishda ko‘plab yangi arxiv hujjatlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoni yoritishda narrativ, tarixiy genetik, qiyosiy, tarixiy tipologik, tarixiy tizimli, tarixiy diaxron va sinxron, mantiqiy tahlil, muammoviy xronologik kabi ilmiy hamjamiyatda ma’lum, tan olingan usullardan foydalanildi. Xususan, narrativ usul orqali birlamchi manbalar asosida tarixiy jarayonlar ketma-ketlikda ma’lum bir mantiq doirasiga solindi. Manbalar asosida O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi kurash jarayoni bilan bog‘liq voqealar ketma-ketligi, ma’lum sabablar, natija va oqibatlar aniqlandi. Tarixiy-genetik usul orqali sovet hokimiyatiga qarshi kurashni keltirib chiqargan omillar va undagi o‘zgarishlarning sabablari tahlil etildi. Tarixiy-tipologik (tasniflash, guruhlarga va turlarga ajratish) usuli orqali manbalar, ilmiy tadqiqotlar guruhlarga ajratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatining yuritgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi turkiy xalqlar orasida milliy ozodlik harakati boshlanib, bu kurash 1918-1935-yillarda asosan qurolli harakat shaklida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, kurashning

ommaviy qo‘zg‘olon, miting, namoyishlar, varaqalar tarqatish, targ‘ibot va tashviqot qilish, quyi boshqaruv organlarini egallash, tinch qarshilik ko‘rsatish, bo‘ysunmaslik va g‘oyaviy shakllari mavjud edi.

O‘rta Osiyodagi qurolli harakat tarixi kurash dinamikasining o‘sishi jihatidan 1931-yil alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham aynan shu yildagi siyosiy va ijtimoiy masalalarni tahlil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

OGPUning O‘rta Osiyodagi muxtor vakili tomonidan 1931-yil mart oyida O‘rta Osiyo harbiy okrugi qo‘mondoni Gryaznovga yuborgan favqulodda tezkor ma’lumotida, mintaqada 1931-yilda siyosiy jarayonlar keskin tus olishi mumkinligini quyidagilar bilan asoslagan: birinchidan, chegara rayonlarda vaziyatning keskinlashishiga Afg‘onistonning shimolidagi voqealarning ta’siri; ikkinchidan, muhojirlar bilan respublikalardagi antisovet kayfiyatidagi guruhlar o‘rtasida aloqalarning saqlanib qolganligi; xususan, Tojikiston SSR, Surxondaryo va Karki okrugida Ibrohimbekning aloqalari juda kuchli edi; uchinchidan, 1930-yil bahorida kollektivlashtirish siyosati, shu yilning kuzida g‘alla va paxta yetishtirish kompaniyasi va 1931-yilning boshida bu jarayonlarning haddan tashqari oshirib yuborilishi edi. Mazkur omillar tufayli O‘rta Osiyo respublikalaridagi umumiy siyosiy holat yetarlicha barqaror emas, deb hisoblandi. Shunday murakkab vaziyatda 1931-yilning bahorida Ibrohimbekning qo‘rboshilari yoki o‘zi kirib kelsa ham katta ehtimol bilan keng ko‘lamli qo‘zg‘olon boshlanib ketishi mumkin, deb taxmin qilindi[11].

Haqiqatan ham O‘rta Osiyodagi keskin vaziyatni OGPU to‘g‘ri tahlil qilgan va bu jihatdan O‘rta Osiyo harbiy okrugi a’zolari ham yaxshi xabardor edi. Biroq partiya va sovet organlari bu kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etmadi. Buning oqibatida 1931-yil bahoridan boshlab O‘rta Osiyo sovet hokimiyatiga qarshi keng qamrovli kurash maydoniga aylandi. 1931-yil 1-aprelda Ibrohimbek o‘zining bir nechta qo‘rboshilari, jami 400 nafar yigitlari bilan Chubek chegara posti orqali sovet chegarasiga o‘tdi (Boboyev F., 2024:126). Ibrohimbek Tojikiston SSRga kirib kelganda respublikadagi vaziyat ancha og‘ir ahvolda edi. Ibrohimbekning qo‘rboshilari tez orada butun Tojikiston SSR va O‘zbekiston SSRning Surxondaryo oblastiga ham tarqalib ketdi. Qo‘rboshilarning guruhlari aholi hisobiga ko‘payib bordi. Ayni paytda ayrim rayonlarda ochlik va non yetishmasligi, kolxozlardan norozilik va ishchilarga to‘lanadigan ish haqining kamligi, zavodlarda ham ishchilar ish sharoitidan qoniqmaslik holatlari kuzatilgan. Bularning barchasi Ibrohimbek rahbarligida boshlangan kurashning kuchayishiga, bolsheviklar siyosatidan norozi bo‘lgan aholi vakillari tomonidan bu kurashning qo‘llab-quvvatlanishiga sabab bo‘ldi.

Shu davrda Tojikiston SSRdagi murakkab vaziyat quyidagicha edi:

[11] РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 405, л. 49.

Birinchidan, paxta monopoliyasi nihoyatda kuchayib, ekish kompaniyasiga jalb etilgan ishchi-dehqonlar og‘ir sharoitlarda ishlashga majbur qilingan. Hattoki bu ishlarga majbur qilingan o‘qituvchilarga nisbatan ham haddan tashqari qattiq jazo qo‘llangan. Mazkur davr majburiy buyruqbozlikning eng yuqori chiqqan davrlaridan biri edi.

Ikkinchidan, paxtachilikka ixtisoslashgan rayonlarda g‘allaga bo‘lgan talab juda oshib ketdi[12]. Natijada paxtachilikka ixtisoslashgan rayonlarda non va g‘alla tanqisligi aholi orasida ochlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. 6–7-maydagi ma’lumotga qaraganda, Shahrinav va Romit rayonlarida jon saqlash maqsadida aholi o‘t-o‘lanlarni yeb kun kechirgan. Bunday vaziyatda bolsheviklarga qarshi kurash avj olishi tabiiy hol bo‘lib, Ibrohimbek muhojirlikdan qaytmaganda ham xalq qo‘zg‘alishi kunday ravshan edi.

Uchinchidan, majburiy ko‘chirish siyosati aholining ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. Garchi bu ish sovet hokimiyatining manfaati uchun bo‘lsa-da, to‘g‘ri tashkil qilinmay ko‘chirilgan aholiga borgan joyida yashashi uchun yetarli shart-sharoit qilib berilmagan. Farg‘ona vodiysidan ham Tojikiston SSRga ko‘plab aholi ko‘chirib keltirildi. Biroq rayonlardagi og‘ir iqtisodiy vaziyat tufayli may oyida ko‘chirish organlari aholiga 1 oy vaqt ichida ham hech qanday yordam ko‘rsatmadi. Oqibatda aholi yana o‘z joylariga qaytib ketishga harakat qildi. Bunday vaziyatda eng achinarli holat shuki, aholi shu paytda 1 pud g‘allani 40 rubldan sotib olishga majbur bo‘ldi.

To‘rtinchidan, norozilik harakatlari faqat dehqonlar orasida bo‘lmay, ishchilar orasida ham mavjud edi. Ishchilarning oylik maoshlari kamligi, o‘z vaqtida berilmasligi, shuningdek, norma bo‘yicha beriladigan mahsulotlarning sifatsizligi noroziliklarga sabab bo‘ldi. Bu holat faqatgina go‘sht misolida keltirilsa, may oyida birgina Kangurt rayonida ishchilar soatlab navbatda turib atigi 100 gramm go‘sht olishga erishgan. Eng yomoni shuki, xalq u go‘shtni hamma vaqt ham ro‘zg‘orida foydalana olmay, sifatsizligi uchun tashlab yuborgan[13]. Bu o‘z navbatida ishlab chiqarishning ma’lum darajada to‘xtashiga va joylarda sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talab oshib ketishiga sabab bo‘ldi.

Beshinchidan, soliq siyosatidan norozilik, tadbirkorlar, savdogarlar uchun erkin ishlash va savdo qilish imkoniyatlarining cheklanishi, bozor tizimining izdan chiqishi aholining turli toifalari orasida salbiy kayfiyatni yuzaga keltirdi. Buning oqibatida aholining qo‘lida pul bo‘lganda mahsulot yo‘q yoki mahsulot bo‘lganda esa sotish uchun sharoit yo‘q vaziyat yuzaga keldi. May oyidagi ma’lumotga ko‘ra, aholi hattoki birgina quruq choyni 2-3 oylab sotuvdan topolmadi. Faqatgina harbiy garnizonlar bo‘lgan joylarda mahsulotni topish mumkin edi. Shuningdek, non ham eng asosiy

[12] ГАРФ, ф. Р-3316, оп. 64, д. 1123, л. 9.
[13] РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 405, л. 46-47.

nuqtalarda bor edi, xolos. Ammo qishloqlarda non masalasi katta muammoga aylandi[14].

Shunday qilib, 1931-yil aprelda Ibrohimbekning qo‘l ostidagi barcha qo‘rboshilarning yigitlari bilan hisoblanganda, u 1000 dan ortiq harbiy guruhi bilan Tojikiston SSR hududiga o‘tgan[15]. Ibrohimbek Jilontog‘da kengash chaqirganda shunday degan edi: “Endi hech qanday urush harakatlarini olib borish yo‘q va bundan foyda ham yo‘q. Shuning uchun sovet hokimiyatiga taslim bo‘lib, tinch hayot kechirasizlar”[16]. Ya’ni Ibrohimbek sovet hukumatiga qarshi kurashish niyatida emas edi. U o‘zi bilan muhojirlikdan qaytib kelgan oilalar va qo‘l ostidagi qo‘rboshilar hamda yigitlariga tinch hayot bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratib berish masalasida sovet hukumati bilan kelishib olmoqchi edi. Ibrohimbek Jilontog‘ orqali Choltog‘ tomon harakatlana boshladi. Ammo 1931-yil 3-aprelda Jilontog‘da Qurbon Shahid yo‘lida qizil armiya otliqlari bilan pastdan, samolyotlari bilan yuqoridan hujum uyushtirdi. Ikki o‘rtada boshlanib ketgan jang to kechga qadar davom etib, natijada Ibrohimbek 10 nafar yigiti, 10–15 ta otini yo‘qotdi. Qizil armiyada jabr ko‘rganlar bo‘lmagan[17]. Jilontog‘da tasodifan qilingan hujumlar Ibrohimbekning taslim bo‘lish maqsadidan voz kechib sovet hokimiyatiga qarshi qayta kurashga kirishga majbur qildi.

Tojikiston SSR XKS raisi Hojiboyevning 1931-yil 23-aprelda A.S. Medvedevga yuborgan maktubida sovet hokimiyatiga qarshi kurashning mohiyatini quyidagicha keltiradi: “Bu yil bosmachilar taktikasida ikkita o‘ziga xos hodisani qayd etish xarakterlidir: 1. Bosmachi hali ham aholini talon-taroj qilmayapti, aksincha, aksariyat joylarda ular qishloq xo‘jaligi kooperativ do‘konlarida mavjud bo‘lgan non va ishlab chiqarish mahsulotlarini aholiga tarqatib yuborish holatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni ta’kidlaydi: “Mana sovet hokimiyati sizdan tortib olmoqda, biz sizga qaytarib beramiz”. 2. Har bir to‘dada yaxshi qurollangan yevropaliklarning, ayniqsa osetinlarning borligi edi[18].

Shuningdek, Tojikiston SSRdagi sovet harbiy kuchlarining 1931-yil 15-maydagi yig‘ilishining “Bosmachilikka qarshi kurash bo‘yicha” 1-sonli qarorida Kosabuloq rayonida aholi qo‘rboshilarning guruhlari bilan birgalikda Aziaxleb omboridagi nonlarni talon-taroj qilib, uni aholiga tarqatayotganda ular ham “Mana sovet hokimiyati sizdan qabul qiladi, biz esa sizga beramiz”, degan fikrini keltiradi[19]. Hujjatlar sovet davrida “bosmachilik” deb atalib kelingan harakat aslida xalq manfaatlariga qaratilganligi, shunchaki talonchilik emas, balki aholining og‘ir

[14] РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 721, л. 14.
[15] O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 2-daftar, 34 – 35-varaqlar.
[16] O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 3-daftar, 78-varaq.
[17] O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 2-daftar, 86-varaq.
[18] ГАРФ, ф. Р-3316, оп. 64, д. 1123, л. 7
[19] РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 721, л. 15.

sharoitini biroz bo‘lsa-da, yaxshilashga yo‘naltirilganligi bilan o‘z xususiyatiga ega. Masalaga o‘z davridan kelib chiqib huquqiy baho berilganda bu harakat salbiy ahamiyat kasb etadi. Chunki bu harakat bolsheviklar hokimiyatiga qarshi muxolifat sifatida paydo bo‘lgan kuch edi. Biroq vaziyatga tarixiy jihatdan baho berganda esa bu o‘zining haq-huquqlari, erkinligi va mustaqilligi uchun olib borilgan harakat edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyoda bolsheviklar yuritgan siyosat mintaqani xomashyo bazasiga aylantirishdan iborat edi. Sovet hokimiyatining O‘rta Osiyoda qishloq xo‘jaligi sohasida yuritgan siyosati natijasida aholining mulkdor qatlami tugatildi va xususiy mulk cheklandi. Agrar o‘zgarishlar an’anaviy hayot tarzi va qishloqlardagi boshqaruv tartiblarini keskin o‘zgartirib yubordi. Ilgari aholi orasida katta ta’sirga ega bo‘lgan boy qatlamlarning jamiyatdagi roli cheklandi. Majburiy suratda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati oqibatida paxta monopoliyasi kuchaytirildi. Natijada g‘alla maydonlari keskin kamaydi, chorvachilik sohasi inqirozli holatga tushib, aholining ijtimoiy turmushi og‘ir holatga tushishiga va oziq-ovqat muammosi kuchayishiga sabab bo‘ldi. Bu omillarning barchasi O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi kurashning kuchayishiga ta’sir qildi.

Birinchidan, Ibrohimbekning harbiy strategiyasi va taktikasini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, Ibrohimbekning milliy ozodlik harakati tarixida kechgan faoliyatiga bag‘ishlangan badiiy asarlar va she’rlar yaratish zarur. Uchinchidan, milliy ozodlik harakati rahbarlarining faoliyati va ularning tarixiy xizmatlarini aks ettiradigan hujjatli va badiiy filmlar ishlash maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, yoshlarga milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalarni singdirish maqsadida milliy ozodlik harakati tarixi bo‘yicha qisqa metrajli videoroliklar tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoyish bugungi kunning asosiy vazifasiga aylanishi shart. Beshinchidan, madaniy va ma’rifiy muassasalarda milliy ozodlik harakatining taniqli rahbarlari suratlarini, bannerlarda ular haqida qisqacha ma’lumotlarni berish orqali keng jamoatchilikka tanitish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Российский государственный военный архив (РГВА), ф. 25895, оп. 1, д. 405, л. 49.
2. Бобоев Ф. (2024) Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракат тарихи. – Тошкент: Фан. – Б. 126.
3. Государственный архив Российской Федерации (ГАРФ), ф. Р-3316, оп. 64, д. 1123, л. 9.
4. ГАРФ, ф. Р-3316, оп. 64, д. 1123, л. 9.
5. РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 405, л. 46.

6. РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 405, л. 47, 65.
7. РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 405, л. 47; Там же, д. 721, л. 18.
8. РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 721, л. 14.
9. O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 2-daftar, 34 – 35-varaqlar.
10. O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 3-daftar, 78-varaq.
11. O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 2-daftar, 86-varaq.
12. ГАРФ, ф. Р-3316, оп. 64, д. 1123, л. 7.
13. РГВА, ф. 25895, оп. 1, д. 721, л. 15.

REFERENCES:

1. Rossiyskiy gosudarstvenniy voyenniy arxiv (RGVA), f. 25895, op. 1, d. 405, l. 49. (In Russian)
2. Boboyev F. (2024) O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixi. – Toshkent: Fan. – B. 126. (In Uzbek)
3. Gosudarstvenniy arxiv Rossiyskoy Federatsii (GARF), f. R-3316, op. 64, d. 1123, l. 9. (In Russian)
4. GARF, f. R-3316, op. 64, d. 1123, l. 9. (In Russian)
5. RGVA, f. 25895, op. 1, d. 405, l. 46. (In Russian)
6. RGVA, f. 25895, op. 1, d. 405, l. 47, 65. (In Russian)
7. RGVA, f. 25895, op. 1, d. 405, l. 47; Tam je, d. 721, l. 18. (In Russian)
8. RGVA, f. 25895, op. 1, d. 721, l. 14. (In Russian)
9. O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 2-daftar, 34 – 35-varaqlar. (In Uzbek)
10. O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 3-daftar, 78-varaq. (In Uzbek)
11. O‘zbekiston FA Tarix instituti joriy arxivi, 2-daftar, 86-varaq. (In Uzbek)
12. GARF, f. R-3316, op. 64, d. 1123, l. 7. (In Russian)
13. RGVA, f. 25895, op. 1, d. 721, l. 15. (In Russian)

HISTORICAL AND NATIONAL APPROACH TO THE ORGANIZATION OF THE SUBJECT “EDUCATION” IN PRIMARY SCHOOL

Gaipnazarov Rahmatilla Rahimboyevich
International Islamic Academy of Uzbekistan
Head of the Department of Youth Work, Spirituality and Enlightenment,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Tel.: +998 99 815-49-62
e-mail: RahmatullaGaipnazarov@gmail.com

Annotation. In this article, historical-national approaches and experiences of ancestors related to the improvement of the mechanisms of formation of the science of "Education" in the minds of primary school students are analyzed from a scientific and theoretical point of view. In this regard, the opinions and manuals written by our ancestors such as Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali Ibn Sina, Ahmad Yugnaki, Kaikovus, Amir Temur, Ulughbek, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, Abdullah Avloni, and others in terms of aspects that how they paid attention to the upbringing of young people are studied and the reasons for their achievements are discussed. The moral qualities glorified in the scientific heritage of our thinkers, including learning, loyalty to friends, tolerance, kindness, humanity, goodness, humility, courage, purity, loyalty, friendship, bravery, hospitality and others are discussed and the ways of the development of these qualities are analyzed.

Key words: *experience of ancestors, teacher, student, education, upbringing, material and spiritual factors.*

MAKTABLARDA “TARBIYA” FANINI TASHKILLASHTIRISHGA OID TARIXIY-MILLIY YONDASHUV VA AJDODLAR TAJRIBASI

Gaipnazarov Rahmatilla Rahimboyevich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tel.: +998 99 815-49-62
e-mail: RahmatullaGaipnazarov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida “Tarbiya” fanini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid tarixiy-milliy yondashuvlar va ajdodlar tajribalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bu borada Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Amir Temur, Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi ajdodlarimiz tomonidan tarbiyaga oid aytilgan fikrlar va yozilgan

qo‘llanmalar bugungi zamon nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Yoshlar tarbiyasida ular e’tibor bergan jihatlar o‘rganiladi va erishgan yutuqlari sabablari xususida fikr yuritiladi. Mutafakkirlarimiz ilmiy merosida ulug‘langan axloqiy xislatlarni, jumladan, bilimlilik, do‘stga sadoqat, bag‘rikenglik, xushxulqlik, insoniylik, ezgulik, yaxshilik, kamtarlik, jasorat, shirinsuxanlik, poklik, vafodorlik, do‘stlik, mardlik mehmondo‘stlik va boshqa sifatlarni rivojlantirish borasida tutgan yo‘llari bo‘yicha muhokama va tahlillar amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: *ajdodlar tajribasi, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, moddiy va ma’naviy omillar.*

ИСТОРИКО-НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ» В ШКОЛЕ

Гаипназаров Рахматилла Рахимбоевич
Международная исламская академия Узбекистана
заведующий отделом по работе с молодежью, духовности и просвещения,
Доктор философии (PhD) педагогических наук, доцент
Тел.: +998 99 815-49-62
e-mail: RahmatullaGaipnazarov@gmail.com

Аннотация. В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются историко-национальные подходы и опыт предков, связанные с совершенствованием механизмов формирования науки «Образование» в сознании учащихся начальной школы. В этой связи изучаются мнения и наставления наших предков, таких как Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Ахмад Югнаки, Кайковус, Амир Темур, Улугбек, Абдурахман Джами, Алишер Навои, Абдулла Авлони и других с точки зрения аспектов того, как они уделяли внимание воспитанию молодежи, обсуждаются причины их достижений. Обсуждаются моральные качества, воспетые в научном наследии наших мыслителей, в том числе ученость, верность друзьям, терпимость, доброта, гуманность, благость, смирение, мужество, чистота, верность, дружба, храбрость, гостеприимство и другие, и анализируются пути развития этих качеств.

Ключевые слова: *опыт предков, учитель, ученик, образование, воспитание, материальные и духовные факторы.*

KIRISH

Ta’lim sifatini yaxshilash va tarbiyaviy jarayon samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va ma’naviyatli o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyatga ega. Aytish o‘rinliki, “Yangilanayotgan O‘zbekistonda” kamol topayotgan

hozirgi o‘quvchi-yoshlar har qanday salbiy ta’sirchan g‘oyalardan, ong, tafakkur qaramligidan ozod, intellektual kuchga ega, tirishqoq, bilimli, jasur va odobli bo‘lmog‘i kerak (Davronov D., 2016). Buning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga o‘rgatish, boshlang‘ich sinfdan o‘quvchilar ongida “Tarbiya” fanining mazmun-mohiyatini teran anglab yetishga va asosiy fanlar qatorida o‘zlashtirishlariga erishish pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Fikrimizcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida “Tarbiya” fanini shakllantirish masalalari hukumatimizning o‘quvchilarni ma’naviy sog‘lomlashtirish (turli xil oqimlarga qo‘shilib ketmaslik), ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish borasida olib borayotgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarida o‘z aksini topgan: umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda buyuk ajdodlarimiz asarlaridan foydalanish, hamda 1-9-sinflar uchun yaratilgan “Tarbiya” fani darsligini davriylik asosida qayta nashr etishda buyuk bobolarimiz asarlaridan keng foydalangan holda to‘ldirib borish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharq tarbiyashunosligini takomillashtirish masalasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida “Tarbiya” fanini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish negizida tarixiy-milliy yondashuvlarga asoslangan ajdodlar tajribalari (Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Amir Temur, Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, kabi mutafakkirlarning asarlari) poydevor vazifasini o‘taydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi (Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х., 2002)

Pedagogik merosimizda ajdodlarimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasi masalalariga, o‘quvchilarda “xulq-atvor me’yorlari rivojlantirilishi” masalalariga jiddiy e’tibor berilgan. Aytish o‘rinliki, ajdodlarimiz merosining zamonaviy ta’lim-tarbiyadagi o‘rni, tarbiya sohasida o‘ziga xos dorilfunun yaratganligi, avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganligi, axloq-odobga oid qarashlari, tarbiya nazariyasi bo‘yicha ta’limoti butun jahonga o‘rnak bo‘larli ma’no va mazmun kasb etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tarixiy-milliy yondashuv asosida “Tarbiya” fanining maktablarda tashkil etilishi o‘rganildi. Metodologik asos sifatida sifatli tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Tarixiy hujjatlar, o‘quv dasturlari va pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, o‘qituvchilar va aksar tarixiy shaxslarning fikrlari to‘plangan

intervyular yordamida ma’lumotlar yig‘ildi. Yondashuvlar va metodlarning individual holatlari misolida milliy tarbiya tizimining rivojlanishi o‘rganildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba va kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida “Tarbiya” fanini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda diniy qadriyatlardan foydalanish muhim vosita hisoblanadi.

Chunki qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasida, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksida, tarbiya insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttirishga xizmat qiladigan, faoliyat va muloqotni yuqori axloqiy va estetik jihatdan yuksaltiradigan, insonning axloqiy kamolga yetishida ilm-fan taraqqiyotiga asoslangan, shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy qiymatga egaligi hamda hamkorlik faoliyatining shaxsiy mazmuni bilan ajralib turadigan rivojlanishning yuqori darajadagi normasi, deya ta’kidlanadi.

Shuning uchun o‘quvchilarni halollik, poklik, vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatish ruhida tarbiyalashda, ularga o‘zliklarini anglatish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda milliy va diniy qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi.

Shundan kelib chiqib biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida “Tarbiya” fanini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda ajdodlar tajribalarini qo‘llashni quyidagi bosqichlarda o‘rganib chiqishni lozim topdik.



1-rasm. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida ajdodlar tajribalarini qo‘llash bosqichlari

Darhaqiqat xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an’ana va qadriyatlari asosida “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida ajdodlar tajribalarini qo‘llash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi (Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х., 2002).

Pedagogika tarixidan bilamizki, xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari eng qadimgi epik yodgorliklar - “Avesto”, “Shohnoma” kabi asarlar, mif va afsonalar orqali bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o‘z-o‘zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar, ibtidoiy urug‘chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan. Biz tarixiy yondashuv tamoyiliga asoslanib, “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida ajdodlar tajribalarini qo‘llashning tarixiy-taraqqiyot bosqichlarini asoslashga harakat qildik.

Nasriddin Tusiy qarashlarida o‘qituvchi o‘quvchilarning mehrini qozonishi uchun ularning qalbidan joy olish mas’uliyatini his qilishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu xususiyat, ayniqsa, boshlang‘ich sinf ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Farobiy fikriga ko‘ra, o‘qituvchilik kasbi o‘quvchilarning axloq normalari, tartib-intizom masalalari, adolatparvarlik g‘oyalarini o‘zida singdirganligi bilan muhim tarbiyaviy vazifasini bajarishga qaratilgan bo‘lishi lozim. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridan namuna qo‘llash ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda “ezgulik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, bilimdonlik” kabi fazilatlar ulug‘lansa “yovuzlik, nodonlik, bilimsizlik kabi jaholat illatlaridan asrash” masalalari chuqur tahlil qilinadi. Farobiyning fikricha, “insonlar tarbiya natijasida fozil (yetuk) yoki johil kimsalarga aylanadilar” (Абу Наср Форобий, 1993). Mulohaza qilib ko‘rilganda, mutafakkir fozil odamlar yashayotgan jamiyatni biz yashayotgan hozirgi “fuqarolik jamiyati” tushunchasining muqobili bo‘lgan “Fozil jamiyat” deb ataydi.

Abu Rayhon Beruniy tarbiya jarayonini koinot va butun borliq bilan bog‘liq holda tavsiflaydi. U axloqiy kategoriyalarni insonning fe’l-atvori bilan bog‘laydi, boshqaruv va siyosat ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlikni ulug‘laydi (Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х., 2002). Abu Rayhon Beruniyning inson to‘g‘risidagi g‘oyalarini o‘rganish, baxt-saodat yo‘lida olib borgan ishlarini, hikmatlarini o‘quvchilarga yod oldirish shaxsning shakllanishi va individuallikning rivojlanishini ta’minlaydigan bolalar muhitida ijtimoiy munosabatlarni, faoliyat va muloqotning yuqori axloqiy va estetik jihatlarini tarbiyalaydigan bolalar jamoasini shakllantirishga zamin hozirlaydi.

Abu Ali ibn Sino “Tibbiy o‘gitlar” tarkibiga kiruvchi “Shifo” asarida 9-10 yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi, ularning “jismoniy, axloqiy, estetik, aqliy tarbiyalanishi” bunda “jismoniy sog‘lomlik, aqliy o‘sish va axloqiy rivojlanish” kichik yoshdagi o‘quvchilar tarbiya komponentlarini o‘zlashtirishlari negizi hisoblanadi. Ibn Sino o‘quvchilar jamoasini tarbiyalash masalalarida maktabning va pedagogning mahoratini alohida e’tirof etadi. Har bir odam aqliy, axloqiy, g‘oyaviy jihatdan kuchli va yetuk bo‘lishi lozim. Inson shunday xislatlarga ega bo‘lsagina, jamiyatga foyda

keltirishi mumkin. Ibn Sino komil inson tarbiyasi masalalariga alohida urg‘u berib, yaxshi farzandni jamiyatning bir bo‘lagi deb hisoblab, yaxshi tarbiyani jamiyat farovonligi deb aytadi.

Alisher Navoiyning besh tomlik “Xamsa” asaridagi bir qator obrazlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda jismoniy yetuklik, hayot ehtiyojlariga moslik, bilimdonlik va axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Birgina “Farhod va Shirin” asaridagi Farhod obrazi uning ustoz qo‘lida besh yoshigacha jismoniy o‘sishi (ot minishi, kamon otishi), bilim va axloq sirlarini o‘rganishi, do‘stga sadoqati, mehnatsevarligi, bilimdonligi, axloqiy fazilatlarni o‘ziga singdirganligini alohida ko‘rsatib o‘tish lozim (Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х., 2002).

XI asrda yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) dostonida insonning butun hayot va faoliyatining birlamchi asosi - insoniy kamolot cho‘qqisini ta’lim-tarbiya, ilm-fan va ma’rifat bilan sog‘lomlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Fikr tarbiyasi jamoa ruhiyatini sog‘lomlashtirishning muhim mezonlaridan biri sanalib, Yusuf Xos Hojib fikricha, jamoa fikri aqliy, hissiy va irodaviy jihatlarni uzviy birlikda ifodalaydi va turli tarzda namoyon bo‘ladi (Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х., 2002). Yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, Ahmad Yugnakiy asari tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy sifat va fazilatlarini tarbiyalashda ma’naviy manbadir.

Buyuk sarkarda Amir Temurning “Biror ishni qilmoqchi bo‘lsam, azm-u jamshid bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim” kabi o‘gitlari o‘quvchilarda fikr erkinligini kafolatlab berish, o‘ziga ishonch, o‘zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi (Davronov D., 2016).

Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bekning “Suluk ul-muluk” (Podshohlarga qo‘llanma) kitobi umumbashariy qadriyatlarga qo‘shgan beqiyos hissasi bo‘lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Mirzo Ulug‘bek davrida, Yan Amos Komenskiydan ancha ilgari, o‘qitishning sinf tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo‘yish, ta’limning bosqichma-bosqich (boshlang‘ich, o‘rta, oliy) amalga oshirish usullari yo‘lga qo‘yildi.

“Oila” asari bilan mashhur bo‘lgan Abdurauf Fitrat inson kamolotida oila, jamoa muhim o‘rin egallashi va aqlning komil bo‘lishi, axloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlilik, adolatlilik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘ladi, inson aqliy quvvatining natijasisiz, aqlning rahbarligisiz saodatga erisha olmasliklarini ta’kidladi.

Abdulqodir Shakuriy o‘quvchilarda kasb-hunarlarni egallashga, mehnatga qiziqishni oshirishga e’tibor qaratdi. Shu maqsadda maktab o‘quv rejasiga mehnat darsini ham kiritdi, o‘quvchilarni dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilikning ilg‘or

usullari bilan tanishtirdi. Maxmudxo‘ja Behbudiy maktab, maorifni inson ongini shakllantirish va rivojlantirish, odamlararo do‘stlikni mustahkamlash vositasi hisobladi, ochilgan yangi usul maktablarida o‘quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirishga, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishga e’tibor berdi.

Munavvar qori Abdurashidxonov bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etdi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallashga, mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorladi, ota-onalarni farzandlarida ma’naviyat, nafosat, go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirishga da’vat qildi.

Abdulla Avloniy “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq», “Maktab gulistoni” asarlari, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to‘plamlarida so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozisidur. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar, deydi. Yuqoridagi, ota-bobolarimiz ta’limotidan ma’lumki, qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi deb bilgan. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur” degan purma’no fikrlari hozirgi davrga qadar dolzarbligini saqlab kelmoqda (Авлоний А., 2006). Avloniyning uqtirishicha, odamlar umr bo‘yi bir-birlari bilan aloqada, o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham Avloniy rostgo‘ylik va to‘g‘ri so‘zlikni eng go‘zal insoniy fazilat deb biladi.

Sadriddin Ayniy xalqning aql-zakovatini, kuch-qudratini o‘zaro do‘stlikda, mehr-oqibatda ko‘rdi, bolalarda xalqqa xos bu fazilatlarni tarkib toptirishga da’vat etdi. Ayniy axloqiy tarbiyalangan bola hech vaqt yolg‘on gapirmasligini, hamkorlik faoliyatida paydo bo‘ladigan insonparvarlik munosabatlarida hamma vaqt chin so‘zli, sof vijdonli bo‘lishini aytadi va saxiylik, xayrixohlik, kamtarlikni axloqiy fazilat hisoblaydi va jamoa tarbiyasida bolalarda bu sifatlarni rivojlantirishni uqtiradi (Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х., 2002). Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ayovsiz kurash insonning aqliy va axloqiy jihatdan shakllanib borishiga ta’sir etgan, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega bo‘lgan inson kamoloti rivojiga xizmat etgan.

Shundan kelib chiqib biz tadqiqotlarimiz jarayonida boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida O‘rta Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosida ulug‘langan tarbiya komponentlarida o‘z aksini topgan quyidagi axloqiy xislatlarni rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz: bilimlilik, do‘stga sadoqat, tolerantlik, xushxulqlik, insoniylik, ezgulik, yaxshilik, kamtarlik, jasorat, shirinsuxanlik, poklik, vafodorlik, do‘stlik, mardlik mehmondo‘stlik va boshqalar.

Demak, eng qadimgi ma’rifiy yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalikdan iborat bo‘lgan. Tabiiyki, ushbu xislatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida ajdodlar tajribalari negizida o‘quvchilarga odob-axloq normalarini singdirish imkoniyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

- islom va uning asosiy ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni Karim va hadislar yordamida o‘quvchilarda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish;
- komil inson tarbiyasida yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- diniy va dunyoviy bilimlarni egallash;
- oliyjanob bo‘lish, pokiza yurish, oila va vatan oldidagi burch va vazifalarning ustunligiga erishish, ezgulikka xizmat qilish.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz ajdodlarimizning o‘lmas tarixiy merosi, mehnati zamirida vujudga kelgan urf-odatlar, an’analar jamiyat rivojiga, insonlar ma’naviy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi borasidagi fikrlari “Tarbiya” fanini o‘qitishda uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga amal qilgan holda har bir tarixiy davrda bosqichma-bosqich takomillashib borish zaruriyatini ko‘rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida “Tarbiya” fanini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasiga tarixiylik va milliy yondashuvlar nuqtai nazaridan qaraganda o‘zbek xalqining buyuk mutafakkirlari, ajdodlar tajribalari muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tarbiya fanining asoslari uzoq o‘tmishdayoq mutafakkirlarimiz ilmiy merosi, o‘gitlari orqali o‘quvchilarni odobli, mehnatsevar, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi. Aynan 1-4 sinf “Tarbiya” darsligida berilgan “Inson hayotida qoidalarning o‘rni”, “Yaxshi va yomon odamlar”, “Sog‘ tanda sog‘lom aql”, “Tartib va intizom”, “Hurmat qozonish”, “Insonparvarlik, do‘stlik oliy fazilat” kabi mavzular mohiyatini yoritishda mutafakkirlar merosi dasturulamal vazifasini bajaradi. Sharq allomalarining asarlarida o‘quvchi-yoshlarning o‘qishi, odob-axloqi, kasbga yo‘naltirish, do‘stga sadoqat va tarbiya masalalarida o‘qituvchi muallimning roli, vazifalariga alohida urg‘u berib o‘tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПҚ-4884-сон “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2020 йил 6 ноябр.
2. Абу Наср Форобий. (1993) Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – 224 б.
3. Амир Темур ўгитлари. – Тошкент: “Наврўз”, 1992.

4. Авлоний, Абдулла. (2006) Танланган асарлар: 2-жилд. – Тошкент: Маънавият. – 304 б.

5. Абу Али ибн Сино. (1980) Таржимаи ҳол. – Тошкент: “Фан”.

6. Зуннунов А., Тўхлиев Б., Маъсудов Х. (2002) Педагогика тарихи. Дарслик. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти.

7. Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг педагогик асослари: Пед. фан. д-ри. дис. – Тошкент, 1998. – 316 б.

8. Мусурмонова О. Бадиий адабиёт – маънавий тарбия воситаси // Узлуксиз таълим, 2003. № 3. – Б. 71-75

9. Мухитдинова Ф.А. Шарқ уйғониш даври мутафаккирларининг сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари. (А.Н. Форобий, А.Р. Беруний, Абу Али ибн Сино сиёсий-ҳуқуқий қарашлари асосида) Юрид. фан. д-ри.... дисс. – Тошкент: 2010.

10. Davronova D. (2016) Preparing Young People to Social Relations on the Basis of Formation ideological and Political Culture in the Family // Eastern European Scientific Journal, V. 3.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020-yil 6-noyabr. (In Uzbek)

2. Abu Nasr Forobiy. (1993) Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – 224 b. (In Uzbek)

3. Amir Temur o‘gitlari. – Toshkent: “Navro‘z”, 1992. (In Uzbek)

4. Avloniy, Abdulla. (2006) Tanlangan asarlar: 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat. – 304 b. (In Uzbek)

5. Abu Ali ibn Sino. (1980) Tarjimai hol. – Toshkent: “Fan”. (In Uzbek)

6. Zunnunov A., To‘xliyev B., Ma’sudov X. (2002) Pedagogika tarixi. Darslik. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti. (In Uzbek)

7. Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida milliy tarbiyaning pedagogik asoslari: Ped. fan. d-ri. dis. – Toshkent, 1998. – 316 b. (In Uzbek)

8. Musurmonova O. Badiiy adabiyot – ma’naviy tarbiya vositasi // Uzluksiz ta’lim, 2003. № 3. – B. 71-75. (In Uzbek)

9. Muxitdinova F. Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta’limotlari. (A.N. Forobiy, A.R. Beruniy, Abu Ali ibn Sino siyosiy-huquqiy qarashlari asosida) Yurid. fan. dok.... diss. – Toshkent: 2010. (In Uzbek)

10. Davronova D. (2016) Preparing Young People to Social Relations on the Basis of Formation ideological and Political Culture in the Family // Eastern European Scientific Journal, V. 3.

THE PERIOD OF THE SULTAN HUSAIN BAYKARA IN THE RESEARCHES OF THE TSARIST RUSSIAN AND SOVIET PERIOD

Sherzod Jo‘rayev Norovich
Oriental University,
Senior teacher of the Department History
Tel.: +998 90 986-75-39
e-mail: norovbilol71@gmail.com

Annotation. This study analyzes the historiography of the period of Sultan Husain Mirza, one of the most prominent representatives of the Temurid dynasty, during the Russian Empire and Soviet Union periods. The two periods are compared, highlighting both achievements and shortcomings in historiography. Through a comparative analysis with studies on other Temurids, such as Amir Temur and Ulugh Beg, the reasons for the relatively lesser focus on Sultan Husain Mirza are explored. Different approaches were applied at various times in the history of studies on the life and era of Sultan Husain Mirza, shaped by varying factors of each period. In studies on Sultan Husain Mirza, the emphasis is placed primarily on cultural and scientific achievements rather than political governance, as science and culture reached their peak during his reign. Scholars focusing on this area have generally concentrated on these aspects.

Keywords: *Temurids, Ulugh Beg, Amir Temur, Alisher Navoi, Herat, Samarkand.*

ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET HOKIMIYATI DAVRIDAGI TADQIQOTLARDA SULTON HUSAYN BOYQARO DAVRI

Sherzod Jo‘rayev Norovich
Oriental universiteti,
Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 90 986-75-39
e-mail: norovbilol71@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Temuriylar sulolasining eng mashhur vakillaridan biri Sulton Husayn Mirzo davrining Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi davridagi tarixshunosligi tahlil qilinadi. Har ikki davr o‘zaro taqqoslanib, tarixshunoslikning yutuq va kamchiliklari o‘rganilgan. Amir Temur, Ulug‘bek kabi boshqa temuriylar haqidagi tadqiqotlar bilan solishtirma tahlil o‘tkazilib, Sulton Husayn Mirzoga nisbatan e’tiborning kam bo‘lishiga sabablar keltiriladi. Sulton Husayn Mirzo va uning davri haqidagi tadqiqotlar tarixida turli davrlarda ba’zi omillar ta’sirida turfa xil yondashuvlar bo‘lgan. Sulton Husayn Mirzoning hayoti haqidagi

tadqiqotlarda asosiy urg‘u siyosiy boshqaruvga emas, madaniy va ilmiy yutuqlarga qaratiladi. Sababi, uning hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat o‘zining cho‘qqisiga chiqadi. Bu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlar ham asosan, shu yo‘nalishga e’tibor qaratishgan.

Kalit so‘zlar. *Temuriylar, Ulug‘bek, Amir Temur, Alisher Navoiy, Hirot, Samarqand.*

ПЕРИОД СУЛТАНА ХУСАЙНА БАЙКАРА В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЦАРСКОЙ РОССИИ И СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА

Шерзод Джораев Норович
Университет Ориентал,
Старший преподаватель кафедры истории
Тел.: +998 90 986-75-39
e-mail: norovbilol71@gmail.com

Аннотация. В данном исследовании анализируется историография периода правления одного из самых известных представителей династии Темуридов – Султана Хусейна Мирзы, в Российской империи и Советском Союзе. Проведено сравнение обоих периодов с выявлением достижений и недостатков историографии. Путем сравнительного анализа исследований о других представителях династии Темуридов, таких как Амир Темур и Улугбек, объясняются причины недостаточного внимания к Султану Хусейну Мирзе. В истории исследований о жизни и времени правления Султана Хусейна Мирзы использовались разные подходы, которые зависели от влияния различных факторов в разные исторические периоды. В исследованиях, посвященных жизни Султана Хусейна Мирзы, основной акцент сделан не на политическом управлении, а на культурных и научных достижениях, поскольку именно в период его правления наука и культура достигли своего пика. Поэтому ученые, проводившие исследования в этой области, в основном уделяли внимание именно этим аспектам.

Ключевые слова: *Темуриды, Улугбек, Амир Темур, Алишер Навои, Герат, Самарканд.*

KIRISH

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi va bu mustamlaka davrida Amir Temur va uning avlodlari haqidagi tadqiqotlar, jumladan, Sulton Husayn Mirzo shaxsiga nisbatan cheklovlar, Rossiya ilmiy-tadqiqot institutlari va tarixchilarining tarixiy shaxslarga bo‘lgan qiziqishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrning asosiy xususiyati – Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiyning tarixiy taqdiri bir-biriga chambarchas bog‘liqligi hamda ularning o‘zaro munosabatlari orqali

tarixni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini beradi. Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati va ma’naviy qadriyatlari, ayniqsa, o‘zbek milliy ma’naviyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutgan. Sharqshunoslar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham Sulton Husayn Mirzoning hayoti va faoliyati haqida muhim manbalar mavjudligi, ayniqsa, uning davrida ilm-fan va madaniyatning qanday rivojlangani aniq tasvirlangan. Bu davr tarixini o‘rganish nafaqat adabiyot va madaniyat uchun, balki butun bir davlatning siyosiy va ijtimoiy rivojlanishini tushunishda ham muhim rol o‘ynaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sulton Husayn Mirzoning tarixiy shaxs sifatidagi o‘rni va uning hukmronlik davrining tarixiy ahamiyati shubhasizdir. Biroq, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va keyingi mustamlaka davrida uning shaxsi va faoliyatiga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlarning nihoyatda kam va cheklanganligi kuzatiladi. Ushbu holatning asosiy sababi Sulton Husayn Mirzo hukmronlik qilgan Hirot va Xuroson viloyatlarining katta qismi Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirmaganidadir. Bu esa Rossiya imperiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari va tarixchilari uchun ushbu hududlarda arxeologik qazilmalar olib borish va manbalarni o‘rganish imkoniyatini cheklagan. Bundan tashqari, Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati mahalliy hukmdorlarning tarixiy rolini kamaytirish va ularning davrlarini “qoloqlik” davri sifatida talqin qilishga qaratilgan edi. Bu esa Sulton Husayn Mirzo kabi shaxslarga bag‘ishlangan tadqiqotlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan.

Biroq Amir Temur, Ulug‘bek Mirzo kabi hukmdorlar tarixiga oid bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Umumiy “Temuriylar davri” tarixi o‘rganilishi jarayonida Sulton Husayn Mirzoga oid ma’lumotlar ham tahlil qilingan. Bu haqida Feruz Shomukarramova (Шамукарамова Ф., 2007) o‘z maqolasida batafsil ma’lumot berib o‘tgan. Temuriylar davlati va uning hukmdorlari haqida ilk fikrlarni Moskva universiteti professori T.N. Granovskiy (Грановский Т., 1866) bildirib o‘tgan. Undan tashqari, S.M. Solovyov (Соловьёв С., 1909) ham temuriylar davlati tarixini qisman tadqiq qiladi. 1890-yilda Toshkentda fransuz sharqshunosi L. Langlening “Temur hayoti” (Ланглэ Л., 1890) nomli tadqiqoti rus tilida nashrdan chiqadi. 1894-yilda sharqshunos N. Likoshin (Лыкошин Н., 1894) tomonidan Amir Temurning avtobiografiyasi tarjima qilinib, taqdim etiladi. Amir Temurning harbiy mahorati haqida Rossiya imperiyasi general-leytenanti M.I. Ivanin (Иванин М., 1875) ham asar yozadi. Unda asosan siyosiy va harbiy tarixga oid ma’lumotlar keltirilgan edi. Yuqorida keltirilgan Rossiya imperiyasidagi tadqiqotlar Temuriylar davriga oid ilk izlanishlar bo‘lib, unda asosan saltanat asoschisi Amir Temur haqida ko‘proq ma’lumotlar taqdim etilgan. Temuriylarning boshqa vakillari, shu jumladan Sulton

Husayn Mirzo haqida bevosita asarlar yozilmagan bo‘lsa-da, umumiy mavzuga oid tadqiqotlarda uning davri haqida ham qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni olib borishda asosan, XIX va XX asrda ijod qilgan olimlarning asarlari va maqolalaridan foydalanilgan. Imperiya va Sovet davridagi tadqiqotlar o‘zaro taqqoslanib, o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Jumladan, V. Bartold, S. Solovyov, A. Fitrat, Suyima G‘aniyeva kabi mashhur olimlarning ishlari tadqiqotga jalb qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davri tarixi o‘zining boyligi va ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Ushbu davrning o‘ziga xos jihati shundaki, u Alisher Navoiyning hayot va ijod davri bilan chambarchas bog‘liq. Bu ikki buyuk shaxsning tarixiy taqdiri bir-biriga shunchalik uzviy bog‘langanki, ularning har biri haqidagi tadqiqotlar muqarrar ravishda ikkinchisining ham tarixini o‘rganishni taqozo etadi. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganuvchi har qanday tadqiqotchi bevosita Sulton Husayn Mirzo davri tarixiga murojaat qilishi shart. Zero, Navoiyning ijodiy kamoloti va faoliyati aynan shu davrda yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan. Uning hukmdor bilan bo‘lgan yaqin munosabatlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, adabiy salohiyatining kashf etilishi – bularning barchasi – Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrining tarixiy voqeliklari bir vaqtda kechgan. Shuningdek, Sulton Husayn Mirzo davrini o‘rganuvchi tarixchilar ham bu davrning madaniy-ma’rifiy yuksalishida Alisher Navoiyning tutgan o‘rnini e’tirof etishlari lozim. Navoiyning adabiy merosi nafaqat o‘z davrining, balki butun bir millatning ma’naviy qiyofasini belgilab bergan. Uning asarlarida o‘z aksini topgan g‘oyalar, qadriyatlar va ideallar keyingi asrlar mobaynida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiy shaxsiyati va tarixiy merosi bir-biri bilan shunchalik uzviy bog‘langanki, ularni alohida-alohida o‘rganish to‘liq manzarani bermaydi. Har ikki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini o‘zaro munosabatlar va ta’sirlar nuqtai nazaridan tahlil qilishgina ushbu davr tarixini har tomonlama va chuqur anglash imkonini beradi.

O‘zbek adabiyoti va tarixining keyingi davrlardagi tadqiqida Abdurauf Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” (Fitrat A., 1927) to‘plami muhim o‘rin tutadi. Fitrat ushbu asarda Sulton Husayn Mirzoning ijodiy faoliyatiga doir qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Bu esa o‘sha davr adabiy muhitini va hukmdorning shaxsiy iste’dodini o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Fitratning ilmiy yondashuvi Sulton Husayn Mirzoning adabiy merosini keng qamrovli tahlil qilishga qaratilgan. Uning to‘plamida hukmdorning she’rlaridan namunalar keltirilishi bilan birga, ularning uslubiy xususiyatlari, mazmun-mohiyati va tarixiy-madaniy ahamiyati ham atroflicha yoritib beriladi. Fitratning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, Sulton Husayn Mirzo nafaqat

mohir davlat arbobi, balki iste'dodli shoir ham bo‘lgan. Uning she'rlarida yuksak badiiy did, chuqur falsafiy qarashlar va o‘tkir kuzatuvchanlik mujassamlashgan. Hukmdorning ijodi o‘z davrining adabiy an'analarini o‘zida mujassam etgan holda, o‘ziga xos uslub va mazmunga ega bo‘lgan. Abdurauf Fitratning "O‘zbek adabiyoti namunalari" asari Sulton Husayn Mirzoning adabiy merosini o‘rganishda muhim bosqich bo‘ldi. Fitratning tadqiqoti hukmdorning ijodiy qirrasini keng jamoatchilikka tanitish va uning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilab berishga xizmat qildi. Bu esa o‘z navbatida, o‘sha davr adabiy muhitini va hukmdor shaxsiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi.

O‘zbek adabiyotshunosligi va Navoiyshunoslik sohasida Suyima G‘aniyevaning olib borgan ilmiy izlanishlari beqiyos hissa qo‘shgan. Uning 1968-yilda nashr etilgan "Husayn Boyqaro devoni" nomli asari (G‘aniyeva S., Abdullayeva Sh., 1968) Sulton Husayn Mirzoning ijodiy faoliyatiga qaratilgan bo‘lsa-da, undagi tarixiy ma'lumotlar ham katta ahamiyatga ega. G‘aniyevaning ushbu asari Husayn Boyqaro ijodini chuqur tahlil qilish bilan birga, uning davri haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. Bu esa Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrini har tomonlama o‘rganish, uning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini yoritishda qo‘l keladi. "Husayn Boyqaro devoni"da keltirilgan tarixiy ma'lumotlar orqali o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti, saroy hayoti, adabiy jarayonlar va boshqa ko‘plab qirralarni o‘rganish mumkin. Bu ma'lumotlarning ilmiy qiymati shundaki, ular birlamchi manbalarga asoslangan va tadqiqotchilarga o‘sha davrni yanada aniqroq va haqqoniyroq tasavvur qilish imkonini beradi. Suyima G‘aniyevaning "Husayn Boyqaro devoni" asari nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarixshunoslik sohasi uchun ham muhim manba hisoblanadi.

V.V. Bartold o‘zining ko‘plab tadqiqotlarida Sulton Husayn haqida tarixiy ma'lumotlarni keltirib o‘tadi. Jumladan, "O‘rta Osiyo tarixiga oid to‘rt tadqiqot" nomli kitobining uchinchi qismi Alisher Navoiyga bag‘ishlanib, unda bevosita Sulton Husayn davri tarixi ham bayon etilgan (Barthold V., 1962). Unda XV asr oxirlarida Hirotda hukmronlik qilgan Temuriylar sulolasi vakili Sulton Husayn va uning bosh vaziri Mir Alisher o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning dastlabki davri (1469-1487) tahlil qilinadi. Ushbu davrda ular o‘rtasidagi munosabatlar nisbatan barqaror bo‘lib, hokimiyatni mustahkamlash va mamlakatni boshqarishda hamkorlik qilishgan, ammo keyinchalik bu munosabatlar murakkablashib, o‘zaro ishonchsizlik va raqobatga olib kelgan. Muallif Sulton Husaynning dastlab shialik ta'limotiga moyilligini, ammo keyinchalik sunniylikka qaytganini ta'kidlaydi. Bu esa, o‘sha davrda hukmdorlar uchun diniy hokimiyat vakillarining qo‘llab-quvvatlashi naqadar muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Sulton Husayn va Mir Alisherning Hirotning nufuzli shayxi va Naqshbandiya tariqatining yetakchisi Jomiy bilan bo‘lgan yaqin aloqalari bu strategiyani tasdiqlaydi. Jomiy nafaqat taniqli shoir va mutafakkir, balki mohir diplomat ham edi. Uning Sulton Husayn va Mir Alisher bilan bo‘lgan yaxshi

munosabatlari hukumat va diniy arboblar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynagan. Jomiyning bag‘rikengligi va diniy nizolarda betaraflikni saqlashi Hirotda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi. Tadqiqotda, shuningdek, saroy ichidagi hokimiyat uchun kurash va siyosiy fitnalar ham yoritilgan. Majddinning moliyaviy qobiliyati tufayli Sulton Husaynning unga bo‘lgan ishonchi ortishi va bu Mir Alisherning noroziligiga sabab bo‘lgani qayd etiladi. Majddinning keyinchalik lavozimidan chetlatilishi va quvg‘un qilinishi esa saroydagi siyosiy kurashlarning keskinlashganidan dalolat beradi. Muallif Mir Alisherni nafaqat mohir sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham tasvirlaydi. Uning tashabbusi bilan qurilgan ko‘plab madrasa, xonaqoh, shifoxona va boshqa inshootlar Hirotning obod bo‘lishiga va shaharning ilm-fan markazi sifatida shuhrat qozonishiga hissa qo‘shgan.

Asarda Husayn Boyqaro davrida Hirot shahrining nafaqat Temuriylar davlatining poytaxti, balki butun musulmon sharqining ilm-fan va madaniyat markaziga aylangani alohida ta’kidlanadi. Bu davrda Hirotga dunyoning turli burchaklaridan olimlar, shoirlar, san’atkorlar va sayyohlar tashrif buyurishgan. Bu esa shaharda turli madaniyatlar va g‘oyalarning uyg‘unlashuviga, yangi ilmiy va badiiy maktablarning shakllanishiga olib kelgan (Barthold V., 1962). Keltirilgan tarixiy voqealar va shaxslar tahlili orqali Husayn Boyqaro va Mir Alisher o‘rtasidagi munosabatlarning murakkabligi va o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Bu davrda yuz bergan siyosiy fitnalar, hokimiyat uchun kurash va diniy masalalar bilan bog‘liq muammolar, shuningdek, ilm-fan va madaniyatning yuksalishi kabi jarayonlar Temuriylar davlatining keyingi taqdiriga katta ta’sir ko‘rsatgan. Asarda keltirilgan tarixiy faktlar va tahlillar Husayn Boyqaro davri tarixini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu davrda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni chuqur tahlil qilish orqali biz o‘sha davr jamiyatining murakkab tuzilishi, hukmdorlarning siyosati va ularning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, ilm-fan va madaniyatning rivojlanish omillarini tushunib olamiz.

MUHOKAMA

Ta’kidlash joiz, dastlabki bibliografik ko‘rsatkich mustaqillikka qadar bo‘lgan davrda tarixshunos olim B. Lunin tomonidan tuzilib, adabiyotlar sohalar bo‘yicha o‘n ikki qismga ajratib tasniflangan edi (Лунин Б., 1969:100–145). Shu bilan birga, ushbu bibliografik ko‘rsatkichda mustabid sovet davridagi mafkuraviy tazyiq ta’sirida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid adabiyotlar “Umumiy tarix” qismiga kiritilgan. Ammo bu holat tadqiqotning ilmiy ahamiyatini pasaytirmaydi, aksincha, olimning falsafiy mushohadasining nechog‘lik teran ekanligidan dalolat beradi. Ushbu bibliografik ko‘rsatkich tasnifi mustaqillik yillarida B. Lunin tomonidan ancha rivojlantirilib, bir necha fundamental nashrlarda nafaqat keltirildi, balki olim tomonidan Amir Temur davri asosiy manbalari hamda ilmiy adabiyotlarining tarixshunoslik nuqtai nazaridan

tahlili ham amalga oshirildi[20]. Shuningdek, xorij tarixshunoslari, rus sharqshunos olimlari hamda sovet davrida tadqiqot olib borgan tarixchilarning ilmiy ishlari tadrijiy ravishda o‘rganilib, ilk bor mavzuga oid tarixiy adabiyotlar tarixshunoslikning yangicha talqinida o‘z bahosini oldi. Ushbu tayyorlangan bibliografiya to‘plami hozirga qadar tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda[21].

XULOSA

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi va sovet davrida Sulton Husayn Mirzo shaxsi va uning davrini o‘rganishga yetarlicha va xolisona yondashilmagan. Ushbu davrlarda tadqiqotlar siyosiy va mafkuraviy ta’sirlar ostida bo‘lganligi, shunga qaramay, ayrim olimlarning sa’y-harakatlari bilan bu sohada muayyan yutuqlarga erishilganligi hamda mavjud bo‘lgan kamchiliklar eslab o‘tilishi mumkin:

Tadqiqotlarning cheklanganligi: Rossiya imperiyasi davrida Sulton Husayn Mirzo hukmronlik qilgan hududlarning asosiy qismi imperiya tarkibiga kirmagani sababli, uning shaxsi va faoliyati haqida kam tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari, mustamlakachilik siyosati mahalliy hukmdorlarning tarixiy rolini qoralashga qaratilgan edi.

Boshqa temuriylarga e’tibor: Sulton Husayn Mirzoga nisbatan kam e’tibor qaratilgan bir paytda, Amir Temur va Ulug‘bek Mirzo kabi hukmdorlarga oid tadqiqotlar ko‘proq olib borilgan. Biroq, bu tadqiqotlarda ham Sulton Husayn Mirzo haqida yetarli ma’lumot berilmagan.

Sovet mafkurasi ta’siri: Sovet davrida ham mafkuraviy bosim tufayli Sulton Husayn Mirzo va uning davri tarixi obyektiv o‘rganilmagan.

Alisher Navoiyning roli: Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish Sulton Husayn Mirzo davrini tushunishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdurauf Fitrat va Suyima G‘aniyeva kabi olimlarning ishlari bu borada alohida qayd etiladi.

V.V. Bartoldning hissasi: V.V. Bartoldning tadqiqotlari Sulton Husayn Mirzo va uning davri haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Uning asarlarida siyosiy vaziyat, hokimiyat uchun kurash, diniy masalalar va madaniy yuksalish kabi jihatlar tahlil qilinadi.

Dastlabki tadqiqotlar asosan siyosiy va harbiy tarixga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va adabiy jarayonlar ham o‘rganila boshlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Грановский Т.Н. (1866) Сочинения. Часть I. – 337 с.

2. Соловьёв С.М. (1909) История России. Книга 1. Т. I-V. Издания-2, СПб. – 879 с.

[20] Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. – B. 28–42

[21] Шарипов Азизжон. Ўзбекистон ва хорижда Амир Темур тарихининг ўрганилишига доир тадқиқотлар. Манба: https://oyina.uz/kiril/article/151

3. Ланглэ Л. (1890) Жизнь Тимура. Сочинение перевел с французского Н. Суворов. – Ташкент.

4. Лыкошин Н. (1894) Предисловие // Автобиография Тамерлана. Перевод с тюркского Н. Лыкошина.

5. Иванин М.И. (1875) О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и среднеазиатских народов при Чингизхане и Тамерлане. СПб.: Типография товарищества «Общественная польза», по Мойке, № 5. – 255 с.

6. Abdurauf Fitrat. (1927) O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. – Toshkent.

7. Husayn Boyqaro. Devon. Risola. Nashrga tayyorlovchilar: S. G‘aniyeva va Sh. Abdullayeva. – Toshkent, 1968.

8. Barthold V.V. (1962) Four studies on the history of Central Asia. – Leiden.

9. Шамукарамова Ф. Жизнь и творчество Мирзо Улугбека в историографии XX века дис. канд. ист. ... наук. – Ташкент, 2007.

10. Лунин Б. (1969) История, культура и искусство времени тимуридов в советской литературе (библиографический указатель) // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент. № 8-9. – С. 100–145.

REFERENCES:

1. Granovskiy T.N. (1866) Sochineniya. Chast I. – 337 c. (In Russian)

2. Solovyov S.M. (1909) Istoriya Rossii. Kniga 1. T. I-V. Izdaniya-2, SPb. – 879 s. (In Russian)

3. Langle L. (1890) Jizn Timura. Sochineniye perevel s fransuzskogo N. Suvorov. – Tashkent. (In Russian)

4. Likoshin N. (1894) Predisloviye // Avtobiografiya Tamerlana. Perevod s tyurkskogo N. Likoshina. (In Russian)

5. Ivanin M.I. (1875) O voyennom iskusstve i zavoyevaniyax mongolo-tatar i sredneaziatskix narodov pri Chingizxane i Tamerlane. SPb.: Tipografiya tovarishestva «Obshestvennaya polza», po Moyke, № 5. – 255 s. (In Russian)

6. Abdurauf Fitrat. (1927) O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. – Toshkent. (In Uzbek)

7. Husayn Boyqaro. Devon. Risola. Nashrga tayyorlovchilar: S. G‘aniyeva va Sh. Abdullayeva. – Toshkent, 1968. (In Uzbek)

8. Barthold V.V. (1962) Four studies on the history of Central Asia. – Leiden.

9. Shamukaramova F. Jizn i tvorchestvo Mirzo Ulugbeka v istoriografii XX veka dis. kand. ist. ... nauk. – Tashkent, 2007. (In Russian)

10. Lunin B. (1969) Istoriya, kultura i iskusstvo vremeni timuridov v sovetskoy literature (bibliograficheskiy ukazatel) // Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. – Tashkent. № 8-9. – S. 100–145. (In Russian)

THE ROLE OF ETHNIC UNITS IN THE POLITICAL PROCESSES OF THE PERIOD OF SHAIBANIDS

Idiyev Akbar Avaz ogli
Junior Researcher, Institute of Oriental Studies
named after Abu Rayhan Beruni,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tel.: +998 90 037-45-00
e-mail: akbaridiyev515@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-8153-1228

Annotation. The article provides information about the status of ethnic groups in our country during the reign of Shaibani Khans, especially during the reign of Abdullah Khan II. Based on the analysis of several sources on the history of the Shaybani period, it is considered which tribes achieved a superior status. It is studied based on the recorded events that during the time of Abulkhair Khan, the Qushchi and Naymans had a high influence in the government, and during the Shaibani period, the Naymans and Dormans increased in number and came to the first place in terms of political influence. Each of these ethnic units, whose names were listed, occupied certain positions in the state administration according to their efficiency, activity and combat readiness. However, it should also be mentioned that some of these tribes rebelled against the central government and acted independently. Also, while describing the processes of the second half of the 15th century, the sentences recorded by the historians of that time in the sources are cited in the necessary places.

Keywords: *Shaibani period, ethnic groups, clan, tribe, position, status, historical events, internal political situation.*

SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIKLARNING O‘RNI

Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
kichik ilmiy xodimi
Tel.: +998 90 037-45-00
e-mail: akbaridiyev515@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-8153-1228

Annotatsiya. Maqolada Shayboniy xonlar davrida, xususan Abdullaxon II hukmronligi yillarida yurtimizdagi etnik guruhlarning mavqei qay darajada bo‘lgani haqida ma’lumotlar beriladi. Shayboniylar tarixi bo‘yicha bir qancha manbalar tahlil

qilingan holda qaysi qabilalar ustunroq maqomga erishgani ko‘rib chiqiladi. Abulxayrxon davrida qushchi va naymanlarning hokimiyatda nufuzi baland bo‘lgani, Shayboniylar davrida esa nayman va do‘rmonlar son jihatdan ko‘paygani, siyosiy ta’siri bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqqani, qayd etilgan voqealar bayonidan kelib chiqib o‘rganiladi. Nomlari sanab o‘tilgan bu etnik birliklarning har biri o‘zining samaradorligi, faoliyati va jangovar tayyorgarligiga ko‘ra davlat boshqaruvida ham ma’lum o‘rinlarni egallagan. Biroq, shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu qabilalarning ba’zilari ma’lum davrlarda markaziy hukumatga qarshi chiqib, mustaqil harakat ham qilganlar. Shuningdek, XV asr ikkinchi yarmidagi jarayonlar bayon qilinar ekan, o‘sha davr tarixchilarining manbalarda yozib qoldirgan jumlalari ham lozim bo‘lgan o‘rinlarda keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Shayboniylar davri, etnik guruhlar, urug‘, qabila, mansab, maqom, tarixiy voqealar, ichki siyosiy vaziyat.*

РОЛЬ ЭТНИЧЕСКИХ ОБЪЕДИНЕНИЙ В ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ ПЕРИОДА ШЕЙБАНИТОВ

Идиев Акбар Авазович
Академия наук Республики Узбекистан
Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни
младший научный сотрудник
Тел.: +998 90 037-45-00
e-mail: akbaridiiev515@gmail.com
ORCID ID: 0009-0009-8153-1228

Аннотация. В статье дается информация о положении этнических групп в нашей стране в период правления Шайбани-ханов, особенно в период правления Абдуллы-хана II. На основе анализа ряда источников по истории периода Шейбанитов рассматривается, какие племена достигли высшего статуса. Изучается на основе зафиксированных событий, что во времена Абулхаир-хана кушчи и найманы имели высокое влияние в правительстве, а в период Шейбанитов найманы и дорманы увеличились в численности и вышли на первое место по политическому влиянию. Каждая из этих этнических единиц, названия которых были перечислены, занимала определенные позиции в государственном управлении в соответствии со своей эффективностью, активностью и боеспособностью. Однако следует также упомянуть, что некоторые из этих племен восставали против центральной власти и действовали самостоятельно. Также при описании процессов второй половины XV века в необходимых местах цитируются изречения, зафиксированные историками того времени в источниках.

Ключевые слова: *Эпоха Шейбанитов, этнические группы, род, племя, положение, статус, исторические события, внутриполитическая ситуация.*

KIRISH

XV asr oxiriga kelib Temuriylar saltanati qulashi arafasida Dashti Qipchoqdan turli etnik birliklar Muhammad Shayboniyxon boshchiligida o‘zbeklar nomi ostida birlashib, Movarounnahr va Turkiston hududlariga kirib kelgan va ularning o‘troq turmush tarziga o‘tish jarayoni mintaqada yangi siyosiy jarayonlarni vujudga keltirdi.

Shayboniylar sulolasi siyosiy tarixining dastlabki bosqichidagi harbiy yurishlar natijasida tashkil topgan Buxoro xonligiga ko‘p miqdorda turli etnik guruhlar kirib keladi. Ular adabiyotlarda asosan o‘zbek qabilalari deb umumiy nomda tilga olingan bo‘lsa-da, tarkibida turli-tuman etnoslarni birlashtiradi. Keyingi bosqichlarda xonlik chegaralarining o‘zgarib turishi aholi etnik tarkibi hamda miqdoriga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shu bilan birga siyosiy jarayonlarning beqarorlashishi etnik guruhlarning tez-tez davlat ichki hududida u yerdan bu yerga ko‘chib yurishiga olib kelgan. Bu bosqichda turli urug‘ va qabilalar davlat boshqaruvida va siyosiy hayotda muhim rol o‘ynay boshlaganlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqola davomida Shayboniylar davrining siyosiy jarayonlarida etnik birliklarning o‘rni tahlil qilingan. Abdulqodir Majit (2015) o‘zining doktorlik ishida Shayboniylar imperiyasining ichki va tashqi siyosatini yoritib, etnik birliklararo munosabatlarni qamrab oladi. Xondamir (1983) asarida esa, tarixiy shaxslar va ularning ijtimoiy roli haqida keng ma’lumot beriladi, bu Shayboniylar davrida etnik birliklarning o‘zaro ta’sirini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Rumlu Hasan (2004) tomonidan yozilgan "Şah İsmail Tarihi" esa, Shayboniylar davridagi siyosiy masalalarni va etnik guruhlar o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatadi. Maqolada, shuningdek, yana o‘ndan ortiq mualliflarning asarlari o‘rganib chiqilgan va ulardan urug‘-qabilalarning mavqeiga oid fikrlar ajratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Shayboniylar davrida etnik birliklarning siyosiy jarayonlardagi o‘rnini o‘rganish uchun tarix fani sohasida qiyosiy va mantiqiy usullarga tayanildi. Maqolada tarixiy asarlar va qo‘lyozmalar tahlil qilinadi. Asosiy manbalar sifatida Abdulqodir Majit, Xondamir, Rumlu Hasan va Abdurahmon Tali asarlari tanlangan bo‘lib, ularning tarkibidagi tarixiy ma’lumotlar tizimli ravishda o‘rganildi. Har bir asardan keltirilgan faktlar va dalillar asosida etnik birliklararo munosabatlar va siyosiy jarayonlar tahlil etilib, ularning sharoitlari va ahamiyati baholandi. Zamon va kontekstni hisobga olib, izlanishlar natijalari umumlashtirilib, Shayboniylar davrida etnik birliklarning roli haqida xulosa chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shayboniyxon o‘zbeklar davlatini barpo etish uchun harakat qilgan 1480-yildan boshlab 5 ta qabilani siyosiy jihatdan ilg‘or bo‘lganligini va harbiy harakatlarda oldingi saflarda turganligini ko‘rish mumkin: bular do‘rmon, arg‘un, nayman, qo‘shchi va uyg‘urlardir (Ахмедов Б., 1965:106). Abulxayrxon qo‘shinida uyrat, mojar va qipchoq urug‘laridan ko‘ngillilar ham bo‘lgan (Ахмедов Б., 1965:16). Keyinchalik siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi bunday qabilalar soni 14 taga yetgan. Turkiyalik tadqiqotchi Abdulkadir Macit Kamoliddin Binoiy ma’lumotiga asoslanib, Muhammad Shayboniyxonni qo‘llab-quvvatlagan 56 amir va ular mansub bo‘lgan 16 ta qabila nomlarini sanab o‘tgan (Abdulkadir Macit, 2015:185).

Shayboniylar hokimiyatga kelgan kundan boshlab alchin, arg‘un, xitoy, qarluq, qipchoq, qirg‘iz, qushchi, qo‘ng‘irot, nayman, atoyi, uyg‘ur va boshqalar ular bilan siyosiy hayotda birgalikda harakat qilib, 1599-yilgacha muhim davlat ishlarida ularning yonida turgan.

Samarqandni uzil-kesil qo‘lga olish uchun tayyorlangan Shayboniyxon 1500-yilda shaharni jangsiz qo‘lga kiritadi (Довуди Д., 2006 :34). Bu paytda Shayboniyxon harbiy jihatdan ko‘proq naymanlarga suyanar edi. Shu sababdan naymanlardan bo‘lgan 600 ga yaqin sara qo‘shinni harbiy sarkarda Jonvafo bilan birga strategik jihatdan muhim bo‘lgan shahar boshqaruviga qoldiradi (Ахмедов Б., 1965: 39-52). Muhammad Solih uni “o‘ng tomon ulug‘laridan bo‘lgan” deya ta’riflaydi (Муҳаммад Солиҳ, 1989:36). Muhammad Shayboniyxon va Ismoil Safaviy o‘rtasidagi jangda ham u muhim o‘rin tutadi. Bu haqda Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on asarida “Muhammadxon Shayboniy qo‘shini qanotlarini Jon Vafobiy va Qanbarbiy bilan mustahkamladi” (Муҳаммадёр, 2009:100) degan ma’lumotni keltiradi. 1510-yildagi bu jangda Jonvafobiy ham vafot etadi. Keyingi siyosiy jarayonlarda ham naymanlar shahar boshqaruvi va uning himoyasida faol ishtirok etadi. Nayman qabilasi, uning uchta aymog‘i qo‘shtamg‘ali, uvaq tamg‘ali va sadrlar keyingi asrlar davomida Samarqand atrofida yashab kelganlar.

Burhon sulton tomonidan 1554-yilda bir guruh sadoqatli amirlar shubha ostiga olinib, qatl qilishga hukm qilinadi. Ular orasida amir Tamomibiy nayman ham bo‘lib, u o‘zining xalqqa qilgan xizmatlari bilan mashhur edi (Муҳаммадёр, 2009:151).

Naymanlarning siyosiy faoliyati haqida ko‘pgina ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, ular XVI asr ikkinchi yarmidan boshlab shayboniylar o‘rtasidagi taxt uchun kurashlarda Ko‘chkinchixon oilasidan Juvanmard Ali, Jonibek oilasidan Abdullaxon, Suyunchxo‘ja avlodidan Navro‘z Ahmadxonning yonida turgan. Naymanlar bu uch shayboniy hukmdorlar davrida muhim rol o‘ynasalar ham, siyosiy jarayonlarga muhim ta’sir ko‘rsata olmagan. Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon II ning 1572-yilda Balxga qarshi yurish qilishi sabablaridan biri sifatida naymanlarning bu yerda qiynoqqa solinganligini ham keltirib o‘tadi (Ҳофиз Таниш Бухорий, 1999:197). Abdullaxon

amirlari orasida Nazarbiy nayman boshchiligidagi guruh Balx yurishi paytida Ustod Ruhiy yo‘lboshchiligidagi to‘pchilarni qo‘riqlab borishga mas’ul bo‘lgan.

Abdullaxon II Buxoro taxtini egallagan vaqtida oliy dargohda Buxoro qo‘shinini ushlab turmaslik masalasi kun tartibiga chiqib, Xusrav sulton boshchiligida Jon Alibiy ibn Jo‘g‘ultoybiy nayman va Nazarbiy ibn Amin Boqi naymanlarni olib Shahrisabzga ketadi. Devonlik ishlarini hal qilishni ham ayni shu shaxslar qo‘liga topshiradi (Муҳаммадёр, 2009:254). Jon Alibiyga nisbatan “davlat ustun”i ta’rifi berilgani ham uning mavqeyi yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Abdullaxon hokimiyatni qo‘lga kiritgandan keyin ukasi Ibodulloh sultonni amir kabir Jon Alibiy nayman va boshqa bir guruh yuqori lavozimli shaxslar bilan birga otasi Iskandarxon oldiga uning tug‘ilgan yeri va asli qarorgohi Karmanaga yuboradi. Manbalarda Iskandar sulton oldiga yuborilgan boshqa shaxslarning ismlari ko‘rsatilmaydi. Faqat naymanlardan Jon Alibiy davlat ustuni sifatida qayd etiladi (Муҳаммадёр, 2009:261). Naymanlarning davlat miqyosida nufuzini mana shu ma’lumot ko‘rsatib beradi. Abdullaxon Marvga yurishga otlangan vaqtda Jon Alibiy nayman va Nazarbiy naymanlar Chorjo‘yda qo‘shindan ajralib chiqib, Marvdagi ahvolni bilish uchun yuboriladi.

1550-yillarda Balx hokimi bo‘lib turgan Pirmuhammadxon Abdulazizxonning vafoti bilan ta’ziya bildirish uchun Buxoroga kelgan vaqtida shaharni egallash harakatiga tushadi. Bu ishga bosh bo‘lishni Abduvali Porsoga topshiradi va unga hamroh qilib Mirzo Alibiy naymanni yuboradi (Муҳаммадёр, 2009:260).

Yuqoridagi shaxslardan tashqari bu paytda Andxud viloyatini boshqarib turgan Shohmuhammadning otalig‘i Jondavlat nayman ham “aqli o‘tkir va hashamat obro‘si baland” amir sifatida mashhur bo‘lgan. Bu xislatlari tufayli u Andxudda boshqaruv ishlarini o‘z qo‘liga olgan va Abdullaxon II bu shaharga hujum qilgan vaqtida Jondavlatbiy qal’a himoyasiga qattiq kirishgan (Муҳаммадёр, 2009: 283-284).

Abdullaxon II davrida Balx hokimi bo‘lgan Dinmuhammadxon markaziy hokimiyatga qarshi bir necha marta harakat qiladi. Shu paytda uning amirlaridan biri bo‘lgan Mirzo Alibiy nayman xonga ariza bilan murojaat qiladi. Unda Dinmuhammad davrida Balxda yashovchi, yuqori davlat lavozimida ishlovchi bir nechta naymanlarning ahvoli bayon qilinadi: “Kimyoasar ko‘nglingizga oydin va ayonki, otodin-oto, bobodin-bobo barcha aka-uka va qarindoshlar o‘zimizni bu sulola qo‘liga topshirib, farmon ado etish kamarini jon belimizga bog‘lab kelmoqda edik. Dushmanlarni yo‘q qilish, hujum va zarbalarni daf etishda jon-dilimiz bilan yordam berib, hech qanday ko‘makni darig‘ tutmaganmiz. Ammo, endilikda, hech bir sababsiz va dalil-isbotsiz Dinmuhammad sulton biz aka-ukalarni talon-toroj qildirdi. Ustiga-ustak, Balxdan ham haydab chiqardi. Bugun biz talanganlar Andxudga akamiz Jondavlat biy oldiga keldik. Agar Siz hazratlari bizga marhamat ko‘rsatib, xizmatkorlaringiz qatoridan joy bermoqchi bo‘lsangiz va qullikka loyiq deb bilsangiz, u holda bir “inoyatnoma” yozib berib, bizni sarafroz qiling” (Муҳаммадёр, 2009:295).

Bu maktubdan ko‘rinib turibdiki, naymanlar uzoq yillar davomida shayboniylarga sadoqat bilan xizmat qilishgan. Ushbu maktubga javoban Abdullaxon II “Ganja Ali shig‘ovulni Balxga elchilik rasmi bilan jo‘natdi va amirlarning molini qaytarib berish borasidagi gaplarni yetkazish vazifasini ham topshirdi. Jultoybiy Andxud viloyatiga borib, inoyat bobidagi so‘zlarni bir-bir aytib bergach, Mirzo Alibiy nayman nihoyatda quvonib, shodligidan darhol Andxud viloyatini Jultoybiyga topshirdi va barcha aka-ukalari hamda boshqa qarindosh-tuqqanlari bilan birga oyoq emas, balki, bosh birlan yurib, oliy dargoh sari yuzlandi” (Муҳаммадёр, 2009: 295-296).

Naymanlardan yana bir yuqori mavqega ega shaxs Nazarbiy bo‘lgan. Abdullaxon tomonidan Balx va Shibirg‘onga yurishlar vaqtida u Ustod Ruhiy boshchiligidagi ko‘p sonli to‘pchilar bilan birga harakat qiladi. Xon tomonidan boshqa amirlarga yordam uchun yuboriladi. Harbiy harakatlar tugab, Balx egallangach, “a’lo hazrat yillar davomida ul yuksak sha’nli podshohlar farmoni ostida bo‘lib kelgan Balx hukumatini ulug‘ no‘yon Nazarbiy naymonga baxshida” qilinganini Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on alohida ta’kidlab o‘tadi (Муҳаммадёр, 2009:301). Balxning boshqa tuman va shaharlari e’tiborli lashkarboshilar va amirlarga topshiriladi. Shu misolning o‘zi ham naymanlarning davlat boshqaruvidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Abdullaxon Hisori Shodmonga yurish qilib kelayotgan vaqtida vahimaga tushgan viloyat hokimi Hoshim Sulton Boqibiy naymanni itoat etish uchun oliy dargohga yuboradi. Lekin, xon viloyat hokimining itoatini qabul qilmay, Boqibiy naymanni yoniga olib, u yerga bostirib kiradi.

Abdullaxonning Toshkent, Shohruxiyaga qilgan yurishlari chog‘ida naymanlardan Abduhalimbiy, Abdi Mirzo, Sherimboy, Qanbarbiy, Ahmadalibiylarning qal’a mudofaasini tashkil qilish va harbiy harakatlarni olib borishda ishtirok etgan. Bu shaharlar egallangach, mazkur nayman amirlari Abdullaxon xizmatiga o‘tishgan.

Xonlikdagi siyosiy jarayonlarga eng katta ta’sir o‘tkazgan hamda yuqori mavqega erishgan etnik birlik bu do‘rmon urug‘i hisoblanadi. Ular eng yuqori mansablardan hisoblangan otaliq, dodxoh va parvonachi lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, do‘rmonlardan Bekmuhammad dodxoh, Bekmuhammad biy, Muhammadyorlar parvonachi, Muhammad Rahimboy Samarqand hokimi, Olloyorbek devonbegi, Jonibekbiy qo‘shin boshlig‘i bo‘lishgan (Мухаммед Юсуф Мунши, 1956:44).

Shayboniyxon vafotidan keyin Bobur Mirzo va Ubaydullaxon o‘rtasidagi hal qiluvchi jangda shayboniylar tomonidan O‘risbiy do‘rmon qahramonlik ko‘rsatadi (Муҳаммадёр, 2009:137). Davlat ishlarida faol qatnashgan, shariat tomonidan taqiqlangan ishlardan Burhon sultonni tartibga chaqirgan Xalqomonbiy do‘rmon davlatga xiyonatda shubha ostiga olinadi va 1554-yilda o‘ldiriladi (Ҳофиз Таниш Бухорий, 1999:151).

Abdullaxon II hukmronligi davrida do‘rmon amirlari “amiri kabir” unvoniga ega bo‘lib, barcha yurishlarda muhim vazifalarni bajargan. Jumladan, Abdullaxon Marvga

yurishi oldidan Chorjo‘yda to‘xtagan vaqtida ulug‘ amirlardan Sulton Yorbiy do‘rmon, Turumbiy do‘rmonlar xondan avval Marvga yo‘l oladi. Bular orasida Yorbiy do‘rmonning mavqe baland edi. Bu safarda boshqa etnik birlikdan amirlar ham qatnashgan va ular Abdullaxonning yaqin kishilari bo‘lgan. Jon Alibiy naymon, Nazarbiy naymon, Tanishbiy jaloyir, Jon Keldibiy utorchilar shular jumlasidandir. Lekin, bular orasida ikki yirik urug‘ vakillari bo‘lgan Sulton Yorbiy do‘rmon va Nazarbiy nayman o‘rtasida nizo chiqib, jamoa ikki qismga bo‘linib ketadi (Муҳаммадёр, 2009: 265-266).

Muhammadyor ibn Qatag‘on asarida do‘rmonlardan Muhammad Boqibiy “Movarounnahr amiru-l-umarosi va boshqa amirlarga qaraganda aql-u farosatda ustun” ekanligi, u Sayid Muhammad sultonni xonlik taxtiga munosib ko‘rib, o‘z fikrini boshqa yirik amirlar huzurida aytib, agar dushmanlar yengilsa Sayid Muhammad sultonni xon qilib ko‘tarishga qaror qilinganligi qayd qilinadi (Муҳаммадёр, 2009:185). Bundan ko‘rinib turibdiki, do‘rmonlardan chiqqan amirlar hatto xonni tanlash darajasiga ham erisha olgan.

Keyinchalik Abdullaxon II davrida ham Muhammad Boqibiy do‘rmonning obro‘yi baland bo‘ladi. Unga “amirlar peshqadami” degan nom berilgan. Ibodulla sulton Bobo Sultonga qarshi kurashayotgan vaqtida Muhammad Boqibiy do‘rmonga o‘zining barcha eshik og‘olarini yoniga olib, sultonlar orqasidan yetib borishi va ularni ortga qaytarishi buyuriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Abdullaxon davrida eshik og‘alariga ham do‘rmon urug‘i vakillari boshchilik qilgan. Muhammad Boqibiy do‘rmonni shayboniylar davlatida eng ishonchli kishilar bo‘lganiga yana bir misol qilib Abdullaxon uni bir necha mansabdorlar bilan birgalikda Badaxshon viloyati mahalliy boylarining mol-mulkini aniqlash va shayx Xalilulloh oilasini ko‘chirib keltirish uchun Varsak, Xo‘st va Farxor viloyatlariga yuborganligidan ham bilish mumkin (Муҳаммадёр, 2009:374). Bu tarkibda naymanlardan Ahmadalibiy ham bo‘lgan. Lekin, Abdullaxonning o‘limi haqidagi ma’lumotlarda uni 1598-yil 8-fevralda o‘g‘li Abdulmo‘min sulton aynan shu Muhammad Boqibiy do‘rmon tomonidan zaharlanganligi qayd etiladi (Abdulkadir Macit, 2015:403).

Eshik og‘alari orasida Abdulboqibiy do‘rmon ham bo‘lib, davlat ishlarida alohida o‘ringa ega bo‘lgan (Муҳаммадёр, 2009:352). Uni Muhammadyor ibn Qatag‘on “nomi mashhur amirlardan” deb atagan. Bu davrda bunday nomi mashhur amirlar orasida boshqa etnoslar – yuzlardan Jonmuhammadbiy, qang‘lilardan Rahmonquli chuhra og‘osi, bahrinlardan Do‘stum chuhra og‘osi ham kirgan. Abdulboqibiy do‘rmon Abdullaxonning ishonchli amiri sifatida Badaxshon voliysi Shohrux mirzoga qarshi qo‘shin yuborganda Abulboqibiy do‘rmonni boshqa bir qancha amirlarga bosh qilib qochayotgan Shohrux mirzoni orqasidan yuboradi.

Abdullaxon O‘ratepa viloyatini o‘z davlati tarkibiga qo‘shib, ukasi Abdulquddus sultonni u tomonga yuborgan paytda Muhammad Boqibiy do‘rmonga “zafarnishon

qo‘shindan ilg‘or yo‘sini bilan yuborilish ehtimoli bor amirlar, davlat ustunlari va eshik og‘olari ro‘yxatini tuzib, qalamga olinganlar ismini nurli nazarga yetkaz”, degan farmon berdi (Муҳаммадёр, 2009:352).

Abdullaxon II davrida yuqori mansabdor hisoblangan otaliqlar orasida ham do‘rmonlarni ko‘rish mumkin. Ulardan Hojimbiy otaliq do‘rmon Abdullaxon Sarbon qal’asini qamal qilgan vaqtida qal’a hokimi bo‘lgan Tohir sultonni ta’qib qilish uchun uning ketidan yuboriladi (Ҳофиз Таниш Бухорий, 1999:324).

Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on asarida yana Navro‘zberdi, Abdurahim Mirzo, Sayfalbek, Tandurustbiy, Tavakkalbiy, Sulton Yorbiy, Turumbiy, Hasan qo‘rchi, Hojibiy kabi do‘rmon urug‘iga mansub davlat amaldorlari va sarkardalar haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Buxoro shahrida yashagan va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan do‘rmon amirlari shayboniylar hukmronligining oxirgi yilida Jonibek Sulton va uning o‘g‘illari Buxoro xonligida yuksak mavqega erishgan vaqtida, Jonibek Sultonning o‘g‘li Boqi Muhammadni taxtga o‘tqazilishida yordam beradi.

Abdullaxon II hukmronligi davrida do‘rmonlarning siyosiy mavqei baland bo‘lib, uning harbiy yurishlarida bu urug‘ vakillari faol qatnashgan. Masalan, Bobo Sulton Sulton Sa’id bilan birga Miyonqolga bostirib kelgan vaqtida Abdullaxon Tangriqul do‘rmonni Mahmud Sultonga yordamga yuboradi (Муҳаммадёр, 2009:280). Bobo Sulton Samarqandni egallash uchun yurishlari vaqtida Abdullaxon yonida turgan asosiy qism amirlar do‘rmonlardan edi. Masalan, Hojibiy, Abdulboqibiy, Muhammad Boqibiy, Hasan qo‘rchi do‘rmonlar shular jumlasidandir. Boshqa qabila amirlaridan 2 kishi bo‘lib, Jonhasan Bahodir va Muhammad quli Bahodirlar kenagaslardan edi (Муҳаммадёр, 2009:293).

Muhammad Yusuf Munshiy asarida alchin urug‘i haqida batafsil ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, ular ma’muriy boshqaruvda to‘qsoba lavozimida ham faoliyat ko‘rsatib, xonlik harbiy yurishlarida faol ishtirok etgan (Мухаммед Юсуф Мунши, 1956:267).

Arg‘un (arg‘in) qabilasi ham mamlakatda o‘ziga xos mavqeda bo‘lib, yuqori mansablarni egallagan va siyosiy jarayonlarga faol aralashgan. Temuriylar davlatida ham arg‘un urug‘idan bo‘lgan amirlar qo‘shin boshliqlari sifatida faol bo‘lgan. Shayboniyxon Qunduzga yurish qilib kelayotgan vaqtida Amir Xusravshohga yordam tarzi bilan kelayotgan amirlar Amir Zunnun arg‘un boshchiligida Qunduzga yaqinlashib qolgan. Chig‘atoy amirlari ichida shijoat va g‘ayratda taniqli Amir Zunnun arg‘un shunday boy va obod shaharni dushman qo‘liga berib qo‘yish va ushbu joydan bunday qaytish mardlarning ishi emasligini, Qunduzga borib shaharni mustahkamlab, uni dushmanga topshirmaslik harakatini qilish kerakligini ta’kidlaydi. Boshqa amirlar ham xohlasa-xohlamasa-da, yurish ishida ayro tushmasdan Amir Zunnun bilan birga borishga rozi bo‘lib, Qunduzga ketadi” (Муҳаммадёр, 2009:88). 1507-yilda esa

Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzo Muhammadxon Shayboniyning o‘zi qo‘shin bilan Amudaryo va Murg‘ob daryolaridan kechib o‘tib, Hirot tomon kelayotganidan xabar topib, Zunnun arg‘inni 12 ming kishilik qo‘shin bilan birga yuboradi. Lekin, bu kurashda Zunnun Arg‘in qo‘shini Shayboniyxondan yengiladi (Муҳаммадёр, 2009: 374-377). Bu ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, arg‘un urug‘iga mansub amirlar shayboniylargacha ham o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan shaxslardan bo‘lgan.

Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr hududlariga yurishi davrida Samarqandni qamal qilib turganda, shaharni Bobur Mirzodan avval Shayboniyxonga berish masalasida davlat amaldorlari orasida bahs boradi. Bu jarayonda arg‘un urug‘ining ishtiroki xususida Kamoliddin Binoiy asarida “shahar ulamolari, misli amir Ibrohim Joniy, amir Haybat qavchin, amir Sulton Husayn arg‘un va amir Abdulvahob shig‘ovul tamomi akobiri shahar bila ittifoq etib, tuhfa va peshkashlar olib shahardin chiqdilar”, deya ma’lumot beradi. Shu o‘rinda shahar ulamolari orasida yuqori mavqega ega bo‘lgan amir Husayn arg‘un ismi tilga olinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shayboniylarga qadar ham arg‘un qabilasi davlat ishlarida yuqori mavqeni egallagan. Shuningdek, “devonbegi” lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Ali Said devonbegi boshchiligidagi arg‘un qabilasi Balxda qipchoqlarga qarshi kurashda faol ishtirok etgan (Мухаммед Юсуф Мунши, 1956:172).

Abdullaxon II davrida arg‘inlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki ko‘payadi. Ko‘zga ko‘ringan arg‘un amirlaridan biri Amir Shohimbiy bo‘lib, Abdullaxon Sarbon qal’asini qamal qilib turgan paytida qo‘shinda g‘alla tanqisligi boshlanadi va amirni Sayramga bu muammoni hal qilib kelishi uchun yuboradi. Bu haqda Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on asarida berilgan “u Sayram tomonga oshiqdi va o‘z elchiligi vazifasini sultonlarga ma’lum qildi. Sultonzodalar, dastlab, o‘zlarining xaloskori hamda xoqon elchisi bo‘lgan bu amirga to‘la izzat-ikromlar ko‘rsatib, munosib bir mavzeda joylashtirdilar”, (Муҳаммадёр, 2009:325) degan ma’lumot bu shaxsning mavqeini ko‘rsatib beradi. Uning yuqori mavqei haqida asarda yana bir ma’lumot beriladi. Bo‘zaxo‘r sulton Bobo sultondan ayrilib Sayram tomonga keladi va bu yerda Abdulkarim sultonga xizmat qilib bir majlisda “eng yaxshisi dushmanimiz Abdullaxon davlatining ulug‘ ustunlaridan bo‘lmish amir Shohimbiyni o‘ldiraylik va ko‘pchilik odamlarimiz bilan Axsi tomonga boraylik”, degan fikrni berishi ham ushbu arg‘un amirining Abdullaxon davlati ustunlaridan biri ekanligini bildiradi (Муҳаммадёр, 2009:337).

Xonlikdagi siyosiy jarayonlarda kam bo‘lsa-da bahrinlarning ham ishtirokini ko‘rish mumkin. Jumladan, Abdullaxon Balxga amakisi Pirmuhammad huzuriga yo‘l olgan paytida uning mulozimlari safida Bekoyibiy bahrinni ham ko‘rish mumkin. Abdullaxon Mo‘min sultonga qarshi qo‘shin yuborganda Bekoyibiy bilan birga Do‘stum chuhra og‘asi bahrin ham ilg‘or yo‘sinda sultonlarga yordamga yuboriladi

(Муҳаммадёр, 2009:352). Bundan tashqari, ular Abulfayzxonga qarshi bosh ko‘targan Abdukarim qo‘shini tarkibida bo‘lishgan. Abdukarim buyrug‘iga ko‘ra Buxoroning G‘ijduvon va Vardanza tumanlarini talon-toroj qilganligini ta’kidlagan.

Saroylar esa Buxoro xonligida yuqori mansab hisoblangan devonbegi, qushchi, miroxo‘r lavozimlarini egallagan. Shu bilan birga ular Buxoro qo‘shiniga sarkardalik qilib, jang vaqtida qo‘shinning chap tarafida harakat qilgan. Qalmoqlar Toshkentning dehqonchilik hududlariga tez-tez hujum qilib turgan.

Xonlikda kechgan siyosiy jarayonlarda qatag‘onlar ham muhim rol o‘ynagan. Shoh Muhammad, Xo‘ja Ali miroxo‘r, Bektemirbiy, O‘ztemurbiy qatag‘onlar xonlikda yuqori davlat lavozimlarini egallab turgan

Xonlikda devonbegi, miroxo‘r lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan yirik urug‘lardan biri qo‘ng‘irotlar bo‘lgan. Xoja Ahmad qo‘ng‘irot Shayboniyxon davrida Astrobod voliysi sifatida faoliyat ko‘rsatgan (Rumlu Hasan, 2004:131). Keyinchalik u Ubaydullaxon va Bobur o‘rtasida Ko‘li Malik mavzesida bo‘lgan jangda jasorat ko‘rsatadi.

Shayboniyxon taxt uchun kurash olib borayotgan vaqtida Dashti qipchoqda mang‘it amirlarining mavqei yuqori bo‘lgan. Shu paytda mamlakat taxtiga shahzoda Shayboniyni o‘tqazmoqchi bo‘lgan Muso Mirzo huzuriga mang‘it amirlari borishadi va unga quyidagi gaplarni uqtirishadi: “Qadim zamonlardan to shu kunlargacha odat bo‘yicha mang‘it amirlari qaysi xonni taxtga o‘tqazsalar, o‘sha xonlar mamlakat ixtiyorini butunligicha mang‘it amirlari qo‘liga topshirganlar va ularning hech bir ishiga aralashmaganlar, ra’ylariga qarshi bormaganlar. Hozirgi masalada esa quyoshdek ravshankim, sulton Muhammadxon Shayboniy ul toifadagi podshohlardan emas”. Muso Mirzo ayni haqiqatni aytayotgan mang‘it amirlari gapidan qattiq ta’sirlanib, shu zayl, o‘z va’dasi bajarilishini orqaga surdi. Muhammadxon Shayboniy uning va’dasiga qarshi ish tutayotganidan xabar topgach, bu joydan qo‘zg‘alib, yaratguvchi molik himoyasi va saqlovida Sig‘noq viloyati tomon qarab ketdi (Муҳаммадёр, 2009:37). Keyinroq Shayboniyxon janglarni davom ettirayotgan vaqtda Hamzabek mang‘it to‘rt ming dovyurak jangchi bilan uni O‘zgan qal’asida qamal qiladi (Муҳаммадёр, 2009:49).

Atoyi qabilalarining ham shayboniylar davlatida alohida o‘rni bo‘lib, ular ham yuqori davlat lavozimlarida ishlagan. Ulardan ko‘pchiligi hududlarning hokimi va boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritgan. Jumladan, shayboniylar davrida Farob qal’asida shahar hokimi vazifasini Do‘stumxo‘ja sayid atoyi bajargan. Abdullaxon 1555-yilda Buxoroga qaytayotgan vaqtida Farobga tushadi. Do‘stumxo‘ja sayid esa unga Buxoro hokimi Burhon sulton nomidan sovg‘a va xonga loyiq tuhfalarni olib keladi. Abdullaxon davlati tarkibiga kirgan Chorjo‘y viloyatiga ham atoyilardan O‘roqxo‘ja sayid hokimlik qilgan.

Abdullaxon beshinchi marta Turkiston va Dashti qipchoqqa yurish qilgan paytda Bobo sulton tavba-tazarru bilan uning oldiga Amin shayx va Tinoayxoja sayid atoyini elchi qilib yuboradi. Lekin, xon Bobo sultonni kechirmasligini aytib, Amin shayxni ortiga qaytaradi. Tinoayxojani esa o‘z qarorgohida olib qoladi (Муҳаммадёр, 2009:313).

Atoyilar orasida shayboniylar davrida naqib unvoniga ega bo‘lganlar ham bo‘lgan. Ulardan biri Yusufxoja sayid atoyi bo‘lib, unga butun Buxoro viloyatining naqibi degan unvon beriladi (Муҳаммадёр, 2009:199).

Kenagaslardan chiqqan shaxslar ham shayboniylar davridagi siyosiy jarayonlarda oz bo‘lsa-da ishtirok etgan. Navro‘z Ahmadxon vafot etgandan keyin farzandlarining shayboniylarga qarshi kurashi davom etadi. 1557-yilda Abdullaxon Samarqandga yurish qilgan vaqtda chuhra og‘asi bo‘lgan Xonhasan kenagas xonga “Samarqand tomondan katta bir chang-to‘zon ko‘tarilib, bu tomonga kelmoqda, balki bu akasi Darveshxonga yordamga kelayotgan Boboxonning qo‘shinidir”, degan xabarni yetkazadi (Муҳаммадёр, 2009:249). Bundan bilish mumkinki, kenagaslar orasida chuhra og‘asi lavozimida xonga maxsus xabarlarni yetkazuvchi shaxslar ishlagan. Bundan tashqari, Samarqand uchun bo‘lgan ushbu janglarda Abdullaxon qo‘shinining maymana qismidan Jonhasan Bahodir kenagas, Muhammad quli Bahodir kenagaslar joy oladi. Abdullaxon Bobo Sulton orqasidan tushib, Turkistonga yo‘l olgan vaqtida Ibrohim kenagasni Boboxoja sayyid otoiy, Oq Sa’id qorovul, Keldish Bahodir mojor, Gulbobo Bahodir, Muhammad devona, Oybosh naymonlar bilan birga Bobo sulton va Bo‘zaxo‘r sultonni Manqit tomonga jo‘natgan Turkiston qabilalarini topish uchun farmon bilan beradi (Муҳаммадёр, 2009:321).

Temuriylar saroyida yuqori mavqega ega bo‘lgan barloslar Shayboniyxon Balxga yurish qilgan vaqtida o‘z hukmdorlariga xiyonat qilib, o‘zbek xonlariga qarindoshligi borligi orqasida, xon va sultonlarning yaxshi siylovlariga erishgan Ja’farxoja sayyidning da’vati bilan u tomonga o‘tib ketadi. Ular orasida Badiuzzamon Mirzoning xos amirlari hisoblangan Ibrohim Mirzo barlos, Jahongir barlos, Shohmuhammad barloslar Ja’farxojaga bay’at qo‘lini berib, qulay fursat yetganda, Shayboniyxonga xayrixohlik bildirib, uning xizmatida bo‘lishga qasamyod qiladilar (Ҳофиз Таниш Бухорий, 1999:198).

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jaloyirlar muhim vazifalarda ko‘rina boshlagan. Ayniqsa, Abdullaxon II davridan boshlab ularning ko‘pchiligi yuqori davlat lavozimi – otaliqlikka tayinlanadi. Bu haqda Arab Muhammad Qatag‘on quyidagicha ma’lumot beradi: “Ubaydulla sulton hurkkan ohu kabi va domdan sakrab qochmoqchi singari har tarafga yugurib, har bir teshikka o‘rmalab yurgan payti bir guruh qozoqlarga duch keldi. Qozoqlar uni ushlab, kishanlagancha sohibqiron xoqon oldiga odam yuborib, voqeani xon arziga yetkazdilar. Iskandar nishon sohibqiron bu ish bo‘yicha Sarxun Otoliq jaloyirni qozoq sultonlari oldiga jo‘natdi va ularning o‘z va’dasiga

binoan Ubaydulla sultonni shu kishiga topshirishlarini talab qildi" (Муҳаммадёр, 2009:316). Bundan koʻrinib turibdiki, jaloyirlar tashqi siyosiy masalalarni hal qilishda qatnashgan.

Shu bilan birga, Shayboniylarning qudratli hukmdori Abdullaxonning tarbiyasi ham dastlab shu qabiladan chiqqan kishi zimmasiga yuklanadi. Bu haqda Arab Muhammad Qatagʻon "Sulaymonmakon Iskandar sulton farosat nuri bilan oqibati chiroyli bu goʻdak kelajakda buyuklik osmonidagi yetti iqlim quyoshi boʻlib, butun olamni yoritishi hamda davlati oyi balqiganda zulmat shomi va bani odam toyifasini Navroʻz bayrami kunlaridan ham porloq subhidam tongga yetkazishini anglab, shu sababdan, uning tarbiyasi uchun, dastlab, Sayyidbiy jaloyirni bolaga otoliq qilib tayinlab, zimmasiga aziz farzandi ahvolidan boxabar boʻlib borish vazifasini yukladi" degan qimmatli ma'lumotni qayd etadi.

1550-yillarda Balxdan kelgan Pirmuhammad Buxoroni oʻz mulki qilish uchun kurash boshlaydi. Shu vaqtda yosh Abdulla sulton Karmana qal'asini himoya qilishga kirishadi. Bu ishda unga jaloyirlardan Tinsayyid otoliq jaloyir, uning oʻgʻli Sarxunbiy va Mirzovalixon jaloyir katta yordam beradi. Bu mudofaada yana Ja'farxon qipchoq ham jonbozlik koʻrsatadi (Ҳофиз Таниш Бухорий, 1999:167). Abdulla sultonning bu voqeadan keyingi harbiy yurishlarida ham Tinsayyid otoliq jaloyir doimo uning yonida boʻladi. Jumladan, 1552-yil Qarshiga qarashli Maymurgʻ qoʻrigʻida chodir tikishganda xon bu mavzeda ayrim amirlardan keyin qolib, oʻzi Jayhun daryosidan kechishni koʻngliga tugadi. Shu kechuvdan keyin Tinsayyidbiy jaloyir, Doʻstmuhammadbiy, Oqmuhammad qoʻrchini ukasi Abdulquddus sultonga qoʻshib, Miyonqol tomonga yubordi (Муҳаммадёр, 2009:242).

Nasafda Abdulla sultonga qarshi Navroʻz Ahmadxonning hujumi vaqtida ham jaloyirlar jasorat koʻrsatgan. Jumladan, Tanishbiy jaloyir oʻgʻli Poyanda Mirzo oldingi hamla usulida hujumni amalga oshiradi. Dushman qoʻshini juda koʻp boʻlganidan va ularga soat sayin odam kelib qoʻshilib turganidan, ular Amudaryodan kechib oʻtib, Balx tomonga chekinadi (Муҳаммадёр, 2009:175).

1579-yilda Badaxshon egallangach, bu viloyat Mahmud sultonga beriladi va Xushibiy jaloyir unga otaliq qilib tayinlanadi. Bu esa sultonning martabasini boshqa yaqinlaridan koʻra oshirib yuboradi (Муҳаммадёр, 2009:201). Pirmuhammadxon Tavakkal sulton qozoqni magʻlubiyatga uchratgach, Buxoroda xonlik taxtiga oʻtirdi. Jahongir sultonni Toshkent viloyati hokimligiga tayinlab, Muhammad Sa'id jaloyirga esa uning otaligʻi vazifasini yukladi va Jahongir sultonga qoʻshib, uni Toshkentga yuboradi (Муҳаммадёр, 2009:186).

Yuqoridagi etnik birliklar bilan birga qushchilar ham yuqori mavqega ega boʻlgan urugʻlardan hisoblangan. Ubaydullaxon vafot etgach, uning Qozoq xotundan tugʻilgan oʻgʻli Abdulaziz sulton 1540-yilda Buxoroda taxtga chiqib, oʻz nomiga xutba oʻqittirgan vaqtida Tanishbiy qushchini oʻzining otaligʻi etib tayinlaydi. Ayni shu

Ubaydullaxon vafotidan keyingi taxt talashuv o‘yinlarida xonlikdagi e’tiborli shaxslardan biri hisoblangan Mirzo Akobiy ibn Saydimbiy qushchi ham katta rol o‘ynaydi (Камолов Х., 2007:122). U Burhon sultonni bahona bilan uyiga chaqirib, ziyofat beradi va taxtga da’vogarlik qilayotgan bu shahzodani o‘ldirtirib, Ubaydullaxon naslining oxirgi kishisini yo‘q qiladi (Муҳаммадёр, 2009: 150-152).

Bu davrda Axsikent viloyatining taniqli va e’tiborli amirlaridan biri amir kabir Ali Saidbiy hisoblangan. Baroqxonning avlodlari Samarqanddan quvilgach, Toshkentda to‘planib, bu atrofdagi viloyatlarda hokimlikni qo‘lga oladi. Shu davrda Toshkent hokimi bo‘lgan Darveshxonning otalig‘i qilib o‘z davrining e’tiborli shaxslaridan biri amir kabir Ali Saidbiy qushchi tayinlanadi. U viloyatning boshqaruvchisi sifatida vazifasiga kirishgan kundan boshlab ko‘knori va afyunni taqiqlagan. Manbalarda Ali Saidbiy qushchi boshqaruvi ostida “Toshkent mamlakati ul saodat buluti adolati sharofatidan ma’mur va obod bo‘ldi. Chunki ul amir adolat va arz-u dod so‘rash qoidasini to‘la ado etdi”, deya ma’lumot keltiriladi (Муҳаммадёр, 2009: 170-171). Shu o‘rinda Ali Saidbiy qushchi Makkaga ziyoratga ketgandan keyin Baroqxon avlodlari o‘rtasida o‘zaro kurash boshlanib, Toshkent, Turkiston va Axsikent ularning qo‘lidan chiqib ketganligi aytiladi. Bu esa amirning siyosiy jihatdan yuqori o‘rinda turganligini ko‘rsatadi.

Abdullaxon II davrida, ayniqsa, qushchilarning mavqei ko‘tarilib boradi. Bu davrda e’tiborli qushchilardan sanalgan Saydambiyning o‘g‘li Mirzo Akabiy qushchi Abdullaxonning Buxoroni egallashida katta yordam beradi (Мухаммед Юсуф Мунши, 1956:122). U o‘sha vaqtda shaharni boshqarib turgan Burhon sultonni uyiga taklif etib qatl etadi (Муҳаммадёр, 2009: 374-377). Shundan keyin Abdullaxon Buxoroni egallashni taniqli amirlariga topshiradi.

Bu davrda qushchilardan bo‘lgan Muhammadqulibiy otaliq va uning sherigi Arab biy qushchilar Balx hokimi Podshoh Muhammadning vakili sifatida viloyatni boshqarar edi. Abdullaxon Balxni egallash uchun yetib kelganda ular darvozalarni berkitib, shaharni himoya qilish ishlariga bosh bo‘lgan. Keyinroq Podshoh Muhammad sulton, taslim bo‘lgan bu qushchi otaliqlar ham Abdullaxon xizmatiga o‘tib shayboniylarga sodiq bo‘lib qolishgan (Муҳаммадёр, 2009:285). Yana bir qushchi Do‘stimbiy ibn Tangriquli Shahrisabzga yuborilgan Isfandiyor sultonga otaliq qilib yuborilgan. Shu o‘rinda unga “Isfandiyorga otoliq bo‘lgani alomati sifatida ot tortiq qilsin, so‘ng darhol O‘ratepaga borib, Marg‘inon va Andijon evaziga berilgan Shahrisabz hukumati yorlig‘ini Mo‘min sultonga yuborsin va unga bu ishga moyillik bildirish borasida muloyim gapli noma bitib, har qanday hadik va qo‘rquvni Mo‘min sulton ko‘nglidan chiqarishga erishsin” degan oliy farmon chiqarilib, mas’uliyatli elchilik vazifalari ham yuklanadi (Муҳаммадёр, 2009:350).

1572-yilda Termiz viloyatini qo‘lga olgan Abdullaxon uni Mahmud Sultonga in’om qiladi va a’zam no‘yonlardan Menglibiy qushchini uning otalig‘i etib tayinlaydi

(Муҳаммадёр, 2009:290). Qushchilardan Abdolbiy otaliq Hisori Shodmondan Hoshim nomidan Abdullaxon II oldiga elchi bo‘lib keladi va Badaxshon qo‘shini qilgan ishidan afsusda ekanligini bildiradi. Qushchilarga bunday muhim ishlarning topshirilganligi ham ularning siyosiy mavqei yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bunga yana bir misol Abdullaxon yurishlardan keyin mamlakat poytaxtiga kelib tushgach, Samarqanddan Javonmardali sulton huzuridan Kelishbiy qushchi oliy dargohga kelib, podshohga itoatgo‘yliklarini bildirgan (Муҳаммадёр, 2009:302).

Yuqoridagi misollar qushchilarning shayboniylar davrida muhim siyosiy vazifalarni bajarganligi va yuqori davlat lavozimlarida hukmdorlarga sadoqat bilan xizmat qilganliklarini ko‘rsatadi.

Nomlari sanab o‘tilgan bu etnik birliklarning har biri o‘zining samaradorligi, faoliyati va jangovar tayyorgarligiga ko‘ra davlat boshqaruvida ham ma’lum o‘rinlarni egallagan. Biroq shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu qabilalarning ba’zilari ma’lum davrlarda markaziy hukumatga qarshi chiqib, mustaqil harakat ham qilganlar. Ko‘chmanchilik harbiy an’analarining davomi sifatida xonlikda maxsus harbiy qo‘shin shakllantirilgan bo‘lib, uning tarkibida 30 dan ortiq turli etnik birliklar bo‘lgan. Ular qo‘shinning asosiy o‘zagi hisoblangan. Shayboniyxonning Bobur bilan ilk to‘qnashuvlarida 14 ga yaqin ko‘zga ko‘ringan qabilalarning har biri 200 tadan 1000 tagacha maxsus tayyorlangan askarlarni berishi majburiy bo‘lgan. Masalan, qo‘shinning so‘l qanotidan joy olgan naymanlar bu urushga 700 tacha askar yuborgan (Муҳаммад Солиҳ, 1989: 136-137). Qo‘shinga bu tarzda askar berish etnik birliklarning ahamiyati va samaradorligiga qarab belgilangan. Buxoro xonligida qo‘shinning asosini tashkil etgan o‘zbek qabilalari turli etnik tuzilmalarga va siyosiy kelib chiqishga mansub unsurlardan yuzaga kelgan edi.

Yuqoridagi qabila birliklaridan tashqari XVI asr ikkinchi yarmida Xo‘jand hamda Zarafshon vodiysiga kelib joylashgan qozoq va qirg‘izlar ham siyosiy jarayonlarda sezilarli iz qoldirgan. Bunga misol sifatida Hofiz Tanish quyidagilarni yozib qoldiradi: “Rajab oyining o‘n yettinchisi, seshanba kuni (1582-yil 8-avgust) Tavakkal sulton Bobo sulton va Jonmuhammadbiylarning boshlarini Latif sulton va ba’zi asirlar bilan birgalikda, oliy dargohga keltirib, taxtning oyog‘iga tashladi va xizmatkorlik zaminini o‘pib, arz qildi. Xoqon Tavakkal sultonga shohona mehribonchilik va navozishlar qilib, o‘z birodarlarini unga hasad qiladigan darajaga yetkazdi. Uning qaddi-qomatini faxrlanishga loyiq sarupolar bilan bezab, ko‘p naqdinalar berdi. Buning ustiga Samarqandning eng yaxshi joylaridan bo‘lgan Ofarinkent (Qoradaryo va Oqdaryo oralig‘idagi viloyat)ni unga berdi” (Ҳофиз Таниш Бухорий, 1999: 87-89). Bu voqeadan bir muddat keyin, 1586-yilda Tavakkal sulton Buxoro xoni xizmatidan ketgan bo‘lsa-da, qozoqlarning aksariyati bu hududlarda muntazam yashab qolgan va Buxoro xonligidagi siyosiy jarayonlarda doimiy ishtirok etgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar davrida alchin, arg‘un, bahrin, yuz, barqut, jaloyir, qang‘li, do‘rmon, qarluq, kenagas, qiyot, qo‘ng‘irot, qo‘shchi, mang‘it, ming, nayman, no‘g‘uz, oyrat, usun, saroy, sulduz siyohut, shirin, tama, tanyoruq, tubay, o‘tarchi, bo‘yrak, yabu, chimboy, uyg‘ur etnoslari qo‘shinning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan. Shayboniyxon barcha egallangan hududlarni o‘zbek qabilalarining nufuzli xonadoniga mansub qo‘mondonlarga va qarindoshlariga bo‘lib beradi. O‘zbek xonlaridan Abulxayrxon davrida qushchi va naymanlarning hokimiyatda nufuzi baland bo‘lgan bo‘lsa, Shayboniylar davrida nayman va do‘rmonlar son jihatdan ko‘paygan va siyosiy ta’siri bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqqan. Buxoro xonligida ham o‘zbek davlati xonlari an’ana va tartiblari o‘rnatilgach, yuqori davlat lavozimlari asosan atoyi, nayman, do‘rmon va qushchi etnosi oqsoqollari qo‘lida bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulkadir Macit. (2015) Şeybânî hanliği (1500-1599). Doktora Tezi. – İstanbul.
2. Hândemîr. Târîhü habîbi’s-siyer fî ahbâri efrâdi beşer, IV, Kitâbfürûşî Hayyâm. – Tahran 1362/1983
3. Rumlu Hasan. (2004) Şah İsmail Tarihi: (Ahsenü't Tevarih) 1 bs. – Ankara: Ardıç Yayınları.
4. Абдуррахман-и Тали. (1959) История Абулфейз-хана / Пер. А.А. Семёнова. – Ташкент.
5. Ахмедов Б. (1965) Государство кочевых узбеков. – Москва.
6. Довуди Д. (2006) Из истории Шайбанидов. – Душанбе.
7. Завоевание Хорасана Шейбани-ханом. Участие туркмен в борьбе узбеков и иранцев за Хорасан / Материалы по истории туркмен и Туркмении / Под ред. В. В. Струве и др. – Т. II. – Москва, – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1938.
8. Камал ад-Дин Бинаи. (1969) Шайбани-наме. Материалы по истории казахских ханств.
9. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. (1957) Убайдулла-наме / Пер. с тадж. с примеч. А.А.Семёнова. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР.
10. Мухаммед Юсуф Мунши. (1956) Муким-ханская история / Пер. А.А. Семёнова. – Ташкент.
11. Муҳаммад Солиҳ. (1989) Шайбонийнома. – Тошкент.
12. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. (2009) Мусаххир ал-билод. – Тошкент.
13. Камолов Х. (2007) История вторжения кочевых племен Дашт-и Кипчака в среднюю Азию (XVI в.). – Душанбе.
14. Ҳофиз Таниш Бухорий. (1999) Абдулланома. 1-китоб. – Тошкент.
15. Ҳофиз Таниш Бухорий. (1999) Абдулланома. 2-китоб. – Тошкент.

REFERENCES:

1. Abdulkadir Macit. (2015) Şeybânî hanliği (1500-1599). Doktora Tezi. – İstanbul. (In Turkish)

2. Hândemîr. Târîhü habîbi’s-siyer fî ahbâri efrâdi beşer, IV, Kitâbfürûşî Hayyâm. – Tahran 1362/1983. (In Turkish)
3. Rumlu Hasan. (2004) Şah İsmail Tarihi: (Ahsenü't Tevarih) 1 bs. – Ankara: Ardıç Yayınları. (In Turkish)
4. Abdurraxman-i Tali. (1959) Istoriya Abulfeyz-xana / Per. A.A. Semyonova. – Tashkent. (In Russian)
5. Axmedov B. (1965) Gosudarstvo kochevix uzbekov. – Moskva. (In Russian)
6. Dovudi D. (2006) Iz istorii Shaybanidov. – Dushanbe. (In Russian)
7. Zavoyevaniye Xorasana Sheybani-xanom. Uchastiye turkmen v borbe uzbekov i iransev za Xorasan / Materiali po istorii turkmen i Turkmenii / Pod red. V. V. Struve i dr. – T. II. – Moskva, – Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1938. (In Russian)
8. Kamal ad-Din Binai. (1969) Shaybani-name. Materiali po istorii kazaxskix xanstv. (In Russian)
9. Mir Muxammed Amin-i Buxari. (1957) Ubaydulla-name / Per. s tadj. s primech. A.A.Semyonova. – Tashkent: Izdatelstvo Akademii nauk UzSSR. (In Russian)
10. Muxammed Yusuf Munshi. (1956) Mukim-xanskaya istoriya / Per. A.A. Semyonova. – Tashkent. (In Russian)
11. Muhammad Solih. (1989) Shayboniynoma. – Toshkent. (In Uzbek)
12. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on. (2009) Musaxxir al-bilod. – Toshkent.
13. Kamolov X. (2007) Istoriya vtorjeniya kochevix plemen Dasht-i Kipchaka v srednyuyu Aziyu (XVI v.). – Dushanbe. (In Russian)
14. Hofiz Tanish Buxoriy. (1999) Abdullanoma. 1-kitob. – Toshkent. (In Uzbek)
15. Hofiz Tanish Buxoriy. (1999) Abdullanoma. 2-kitob. – Toshkent. (In Uzbek)

CULTURAL CAPITALS OF THE TURKIC WORLD (ON THE EXAMPLE OF CITIES IN TURKIYE AND AZERBAIJAN)

Tojiyev Dostonjon Beknazar ogli
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni
doctoral student of the department of
"Modern Problems of Foreign Eastern Countries"
Tel.: +998 94 656-50-31
e-mail: dostonjontojiyev26@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1614-802X

Annotation. The following article provides information about the status of the "Cultural Capital of the Turkic World" and the cities of Turkiye and Azerbaijan that have won this title, which is a unique project of the Organization of Turkic States and the International Organization of Turkic Culture – TURKSOY. To date, 13 cities of the Turkic world have won this title, 5 of them are Turkish and Azerbaijani cities. The article talks about how these cities won this title, various events, forums, festivals and conferences held in their territories as the capital of culture for a year, and their importance. The role of these cities in the unity and mutual cooperation of the Turkic world, mainly the reasons for this status are given.

Keywords: *Turkiye, Azerbaijan, Shavkat Mirziyoyev, Organization of Turkic States, TURKSOY, "Cultural capital of the Turkic world", cultural capitals, Eskishehir, Kastamonu, Bursa, Sheki, Shusha.*

TURKIY DUNYONING MADANIYAT POYTAXTLARI (TURKIYA VA OZARBAYJON SHAHARLARI MISOLIDA)

Tojiyev Dostonjon Beknazar o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
"Xorijiy sharq mamlakatlarining zamonaviy muammolari"
bo'limi tayanch doktoranti,
Tel.: +998 94 656-50-31
e-mail: dostonjontojiyev26@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1614-802X

Annotatsiya. Quyidagi maqolada Turkiy davlatlar tashkiloti va Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning o'ziga xos loyihasi bo'lgan "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" maqomi hamda ushbu unvonni qo'lga kiritgan Turkiya bilan Ozarbayjonning shaharlari haqida ma'lumotlar beriladi. Bugunga qadar jami turkiy dunyoning 13 shahri ushbu unvonni qo'lga kiritgan bo'lib, ulardan 5 nafari Turkiya

hamda Ozarbayjon shaharlari hisoblanadi. Maqola davomida ushbu shaharlarning bu unvonni qo‘lga kiritishlari, bir yil davomida madaniyat poytaxti sifatida hududlarida o‘tkazilgan turli tadbir, forum, festival va konferensiyalar hamda ularning ahamiyati borasida so‘z boradi. Turkiy dunyoning birligi va o‘zaro hamkorligi ushbu shaharlarning tutayotgan o‘rni, asosan, ushbu maqomning berilish sabablariga oid tafsilotlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Turkiya, Ozarbayjon, Shavkat Mirziyoyev, Turkiy davlatlar tashkiloti, TURKSOY, “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti”, madaniy poytaxtlar, Eskisheher, Kastamonu, Bursa, Sheki, Shusha.*

КУЛЬТУРНЫЕ СТОЛИЦЫ ТЮРКСКОГО МИРА (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДОВ ТУРЦИИ И АЗЕРБАЙДЖАНА)

Таджиев Достонжон Бекназарович
Академия наук Республики Узбекистан
Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни
основной докторант кафедры
«Современные проблемы зарубежных восточных стран»
Тел.: +998 94 656-50-31
e-mail: dostonjontojiiev26@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1614-802X

Аннотация. В следующей статье представлена информация о статусе «Культурной столицы тюркского мира» и городах Турции и Азербайджана, завоевавших это звание, что является уникальным проектом Организации тюркских государств и Международная тюркская культурная организация – ТЮРКСОЙ. На сегодняшний день это звание завоевали 13 городов тюркского мира, из них 5 – турецкие и азербайджанские города. В статье рассказывается о том, как эти города завоевали это звание, о различных мероприятиях, форумах, фестивалях и конференциях, проводимых на их территориях как культурных столицах в течение года, и их значении. Приведена роль этих городов в единстве и взаимном сотрудничестве тюркского мира, главным образом причины такого статуса.

Ключевые слова: *Турция, Азербайджан, Шавкат Мирзиёев, Организация тюркских государств, ТЮРКСОЙ, «Культурная столица тюркского мира», культурные столицы, Эскишехир, Кастамону, Бурса, Шеки, Шуша.*

KIRISH

XXI asr Turkiy dunyoni, o‘tmishda bo‘lganidek, yana bir bora jiddiy integratsiyalashish bosqichiga olib chiqdi. Bugungi kunning dunyo hamjamiyati tan olgan mustaqil turkiy mamlakatlari ham o‘tgan davr mobaynida bosib o‘tilgan tarixiy

yo‘li va orttirgan tajribasini xolisona baholash, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarini tahlil qilish hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini, aniq marralarini belgilash, ilmiy-madaniy va siyosiy-iqtisodiy sohalardagi har tomonlama vazifalarni bajarish ustida ish olib borishmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi keskin bir davr barchamizda yangicha ishlash va fikrlashni, yuqori darajada safarbarlikni talab etmoqda[22]”, deya ta’kidlashida ham ulkan ma’no bor. Shu sababdan ham Turkiy dunyoning madaniy hamkorligi asliyatan olganda mintaqa kelajagi uchun to‘liq xizmat qiluvchi qadamdir.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY tomonidan har yili tuzilmaga a’zo (kuzatuvchi maqomida bo‘lsa ham) davlatlarning mashhur hamda tarixiy shaharlarini “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilish loyihasi mavjud.

Bu loyiha asosida har yili a’zo mamlakatlarning biror bir madaniy jihatdan taraqqiy topgan, qadimiy va tarixan boy bo‘lgan shahri poytaxt sifatida tanlanadi. Shu asosda turkiy dunyo shaharlarining o‘zaro integratsiyasini yuksaltirish va turizm borasidagi hamkorligini oshirishga e’tibor qaratiladi. Ushbu tashabbus doirasida madaniy poytaxt deya e’lon qilingan shaharda bir yil davomida turli darajadagi madaniy tadbirlar, ko‘rgazmalar, forum va festivallar hamda yuqori darajali uchrashuvlar o‘tkaziladi. TURKSOY xalqaro tashkiloti har bir “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb tanlangan shaharda tashkilotga a’zo davlatlarning san’ati va madaniyatini ochib beruvchi fotoko‘rgazma tashkil etish an’anasini ham yo‘lga qo‘ygan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolada tadqiqot ishini batafsilroq yoritish maqsadida doktor Firat Yaldizning umumiy tahriri ostida 2020-yili Anqarada chop etilgan “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxtlari” nomli kitobidan foydalanildi. Ushbu kitob to‘plam shaklida bo‘lib, unda kitob nashr etilgan yilgacha madaniy poytaxt maqomini olgan 8 shahar haqida bir nechta mutaxassislar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar o‘rin egallagan. Jumladan, kitobning 127–174-betlaridagi Mehmet Topalning “2013-yilda Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti: Eskishehir”, 249–290-betlaridagi Elsan Izzetgilning “2016-yilda Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti: Sheki”, 345–392-betlaridagi Firat Yaldizning “2018-yilda Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti: Kastamonu” maqolalaridan foydalanildi. Bursa va Shusha shaharlari 2022 va 2023-yillarda ketma-ket madaniyat poytaxti bo‘lishdi. Ushbu shaharlarga oid ma’lumotlar TURKSOY saytidan va turli ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan maqolalar asosida tayyorlandi.

[22] 2017 йил – Шиддатли ислоҳотлар йили (Йил сарҳисоби). – Тошкент: Адолат, 2018. – Б. 92.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tadqiqotni amalga oshirishda asosan bir nechta bosma nashrlarga hamda TURKSOY tashkilotining rasmiy saytidagi ma’lumotlarga asoslanib ilmiy izlanish amalga oshirildi. Maqolalar va internet manbalari orasidan mavzuga doir kerakli ishlar tanlandi va o‘rganish olib borildi. Jamlangan ma’lumotlar qiyosiy-mantiqiy, davriylik va analiz-sintez usullarida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ko‘proq bosma ommaviy axborot nashrlariga tayanilgani uchun jurnalistikaga xos faktcheking usulidan ham foydalanib maqola tayyorlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” – bu Turkiy davlatlar tashkiloti (sobiq Turkiy Tilli Davlatlar Hamkorlik Kengashi) tashabbusi bilan tashkil etilgan madaniy dasturdir. Dasturning asl maqsadi turkiy xalqlarning boy madaniy merosini rivojlantirish va keng targ‘ib qilishdan iborat hisoblanadi. Bu tashabbus orqali Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy dunyodagi madaniy aloqalarni mustahkamlash va ularni dunyo miqyosida targ‘ib qilishni maqsad qilgan. Madaniy poytaxtlar loyihasi tanlangan shaharlarning kuchiga-kuch, sifatiga-sifat qo‘shadigan, ularning har taraflama rivoj topishida muhim va ajoyib loyiha ekanligiga bugun shubha yo‘q.

Bugungi kunga qadar turkiy dunyoning 13 ta shahri madaniy poytaxt sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, Qozog‘istondan 3 ta (Ostona, Turkiston va Oqtov), Turkiyadan 3 ta (Eskisheher, Kastamonu va Bursa), Tataristondan 1 ta (Qozon), Turkmanistondan 2 ta (Marv va Annau), Ozarbayjondan 2 ta (Sheki va Shusha), Qirg‘izistondan 1 ta (O‘sh) va O‘zbekistondan 1 ta (Xiva)[23] shaharlari madaniy poytaxt bo‘lish baxtiga erishganlar.

2013-yilda Turkiy dunyoning ikkinchi madaniy poytaxti sifatida Turkiyaning Eskishehir shahri tanlandi[24] va bir kalendar yili uchun “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilindi. Eskishehir bu unvonni olgan keyingi yillardagi shaharlardan o‘zining boy madaniyati, tarixi va turli madaniy tadbirlari bilan e’tiborni tortgan edi. Eskishehir “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” unvonini olganidan so‘ng odatdagidek kalendar yili davomida turli madaniy tadbirlar, festival va ko‘rgazmalarga mezbonlik qildi. Bu tadbirlar turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosini nishonlash, madaniy hamkorlikni rivojlantirish va xalqlar o‘rtasida do‘stlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgandir.

Eskishehir Turkiyaning markaziy qismida joylashgan shahar bo‘lib, qadimiy tarixga ega. U hozirgi kunda ham madaniy va ilmiy markazlardan biri sifatida taniqli sanaladi. Eskishehir o‘zining universitetlari, zamonaviy muzeylari va turli madaniy tadbirlari bilan mashhur. Eskishehirning “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb

[23] Kültür başkentleri. https://www.turksoy.org/kultur-baskentleri
[24] 2013 Türk Dünyası Kültür Başkenti Kapanışı – Eskişehir. 24.03.2014. https://www.turksoy.org/haberler/2014-03-24-2013_turk_dunyasi_kultur_baskenti_kapanisi

e’lon qilinishi shahar uchun katta voqea bo‘lib, u shaharni nafaqat Turkiyada, balki butun turkiy dunyoda yanada tanitilishiga sabab bo‘ldi.

2016-yilda Ozarbayjonning Sheki shahri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” sifatida tanlandi va bu unvonga erishgan beshinchi shaharga aylandi[25]. TURKSOY madaniyat vazirlarining 33-yig‘ilishida Sheki shahriga ushbu maqomni berish taklifi qabul qilindi. Bu maqom shaharning boy tarixi, muhim markaz bo‘lganligi va madaniy merosini tan olish hamda Ozarbayjonning turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashi maqsadida berilgan. Sheki shahri bu nom orqali o‘zining tarixiy, madaniy va san’atga oid merosini kengroq namoyish etish, tarixiy va me’moriy yodgorliklarini keng jamoatchilikka tanitish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu unvon Sheki shahrining xalqaro madaniy markaz sifatidagi o‘rnini mustahkamlashga, shuningdek, turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirishga xizmat qildi.

Sheki shahri Ozarbayjonning shimoli-g‘arbiy qismida, Kichik Kavkaz tog‘larining etagida joylashgan. Shahar tabiiy go‘zalligi, yashil tog‘lari va tarixiy obidalari bilan mashhur. Sheki Ozarbayjonning qadimiy shaharlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, bu yerda ming yillik tarix va madaniyat o‘z aksini topgan.

Sheki shahri Ozarbayjonning eng qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri hisoblanadi. Shaharning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Sheki uzoq vaqt davomida Kavkaz mintaqasining savdo va madaniy markazi bo‘lgan. Bu yerda ipakchilik rivojlangan bo‘lib, Sheki shahrini ko‘pincha “Ipak yo‘li marvaridi” deb atashgan. Shahar, shuningdek, o‘zining boy madaniyati, me’morchiligi va an’anaviy qo‘l san’ati bilan ham mashhur.

Kalendar yili davomida Sheki shahrida turli xalqaro madaniy tadbirlar, festivallar, konsertlar, va ko‘rgazmalar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar turkiy dunyo xalqlarining madaniy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, turli davlatlardan san’atkorlar, yozuvchilar va olimlar ishtirok etdi. Ushbu tadbirlar turkiy xalqlar o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirdi. Sheki bu unvonni olgach, xalqaro madaniy sahnada keng e’tirof etildi. Shahar turli davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi va turkiy dunyo xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Turkiyaning Kastamonu shahri 2018-yilda “Turk dunyosining madaniyat poytaxti” deya e’lon qilinib, bu unvoni bor yettinchi shahar bo‘ldi[26]. Kastamonu Turkiyaning Qora dengiz sohillariga yaqin yerda joylashgan qadimiy shahar bo‘lib, boy tarixiy merosi, tabiiy go‘zalliklari, qadimiy arxitekturasi va madaniyati bilan mashhur hamda miloddan avvalgi davrlardan bugunga qadar turli madaniy

[25] Türk Dünyası Kültür Başkentleri. İzzetgil E. “2016 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şeki”. Ankara: Nobel Yayınları, 2020. S. 249

[26] Türk Dünyası Kültür Başkentleri. Yaldız F. “2018 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Kastamonu”. Ankara: Nobel Yayınları, 2020. S. 345-392.

sivilizatsiyalarning markazi bo‘lib kelgan. Turkiston shahrida uyushtirilgan TURKSOY Doimiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida TURKSOY tarkibidagi a’zo davlatlarning Madaniyat vazirlari tomonidan Kastamonu nomzodi bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi[27]. 2018-yil davomida qator tadbirlar o‘tkazilishi belgilandi va yil boshidayoq shaharni madaniy poytaxt sifatidagi targ‘ibot rejalari tuzilmaga a’zo mamlakat vakillari ishtirokida tanishtirildi. Kastamonuda 2030 ta tarixiy obida mavjud, ham dengizda ta’til qilish, ham qishki sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyati bo‘lgan dunyoning kam sonli go‘shalaridan biri, 800 dan ziyod mahalliy taom turlari, hududining deyarli yarmi o‘rmonlar bilan qoplangani ham shaharning bu maqom orqali boy madaniy merosini xalqaro maydonda keng targ‘ib qilishiga ulkan sharoit yaratdi.

2018-yilda Kastamonuda “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” sifatida turli xalqaro madaniy tadbirlar o‘tkazish rejalashtirildi. Aynan 2018-yilning 21-martida Kastamonu shahrida madaniy poytaxt maqomidagi ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi[28]. Keyingi tadbirlar ham shunga ulanib ketdi. Bu tadbirlarda turli davlatlardan kelgan san’atkorlar, adabiyotshunoslar va olimlar ishtirok etdi. San’at ko‘rgazmalari, musiqiy konsertlar, adabiy anjumanlar va folklor festivallari kabi tadbirlar shaharning madaniy hayotini boyitdi. Ochilish tadbirlariga 13 ta davlat va 18 ta turli mintaqalardan delegatsiyalar rasmiy tashrifni amalga oshirdilar. Shahar madaniyati, an’analari va tarixiy yodgorliklari haqida ko‘plab ilmiy maqolalar, kitoblar va hujjatli filmlar yaratildi. “Turk dunyosining madaniyat poytaxti” maqomi Kastamonu shahriga turizmni rivojlantirishda katta turtki berdi. 2018-yilda shaharda sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan va bu shaharning iqtisodiy rivojlanishiga o‘ziga yarasha hissa qo‘sha olgan edi.

2022-yilda Turkiyaning Bursa shahri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilindi va bu maqomga erishgan o‘ninchi shahar bo‘ldi[29]. 2021-yilning sentyabrida Xiva shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniyat forumi doirasida turli darajadagi uchrashuvlar, madaniy tadbirlar va ko‘rgazmalar qatorida TURKSOY xalqaro tashkiloti doimiy kengashining 38-majlisi ham bo‘ldi hamda Turkiy dunyo mamlakatlarining 2022-yildagi madaniyat poytaxti Turkiyaning Bursa shahri sifatida kelishildi. Bu maqom orqali Bursa shahrining boy madaniy va tarixiy merosini yanada namoyon qilish, turkiy xalqlar o‘rtasida tobora mustahkamlanib borayotgan do‘stlik-qardoshlik aloqalarining

[27] Turkiyaning yana bir shahri “Turk dunyosining madaniy poytaxti” deb e’lon qilindi. 09.08.2024. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2017/12/06/turkiyaning-yana-bir-shahri-turk-dunyosining-madaniy-poytaxti-deb-e-lon-qilindi-861919

[28] Opening ceremony of “Kastamonu – 2018 Cultural Capital of Turkic World”. 21.03.2018. https://turkpa.org/news/632-opening-ceremony-of-kastamonu---2018-cultural-capital-of-turkic-world

[29] Bursa-2022 Türk Dünyası Kültür Başkenti. 14.02.2022. https://www.turksoy.org/haberler/2022-02-13-bursa-2022-turk-dunyasi-kultur-baskenti

ahamiyatini oshirish maqsad qilingan. Ochilish tadbirida 20 davlatdan 700 nafar san'atkor, 20 yakkaxon va 50 san'at guruhi ishtirok etdi[30].

Bursa shahri Turkiyaning eng qadimiy va boy tarixiy shaharlaridan bo'lib, u qadim Ipak yo'li bo'ylab joylashgan. Shahar XIV asrda Usmoniylar davlatining birinchi poytaxti bo'lgan. Shu sababli Usmoniylar madaniyati va merosining muhim markazi sifatida tanilgan. Shaharda ko'plab tarixiy yodgorliklar, masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar va hammomlar mavjud bo'lib, Bursa shahri 2014-yilda UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Bursa shahri 2022-yil davomida turli madaniy tadbirlarga mezbonlik qildi. Ushbu tadbirlar orasida san'at festivallari, an'anaviy musiqa va raqs kechalari, adabiy anjumanlar, ko'rgazmalar va turli xil xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar ham o'tkazildi. Yil boshida Belgrad shahrida "Bursa kunlari" tadbiri tashkil qilindi[31]. "Korkut ota" turkiy dunyo filmlari festivali ham tashkil etilib, mukofotlar o'z egalarini topdi. Sentyabrda "XXIII TURKSOY opera kunlari" tadbiri keng miqyosda bo'lib o'tdi. Eng asosiy tadbir – "Jahon ko'chmanchi o'yinlari"ning 2022-yilgi mavsumi Bursada yuqori saviyada tashkil etilgani bo'ldi. Bungacha "Jahon ko'chmanchi o'yinlari" 3 marotaba Qirg'izistonda o'tkazilgan va to'rtinchi safar Turkiyada tashkil etildi. "TURKSOY" xalqaro tashkiloti an'anaga aylantirgan, "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" sifatida tanlangan shaharda, tashkilotga a'zo davlatlarning san'ati va madaniyatini ochib beruvchi fotoko'rgazmasi Bursada ham tashkil etildi[32]. Bursada 17–19-may kunlari Turk dunyosi strategik tadqiqotlari bo'yicha Xalqaro kongressi o'tkazildi va kongress doirasida "O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida" loyihasining taqdimoti ham o'tkazildi[33]. Bu va boshqa tadbirlar turkiy madaniyatning turli yo'nalishlarini ommalashtirish va kelajak avlodlar uchun saqlashga xizmat qildi.

"Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" unvoni avvalgi madaniy poytaxtlar kabi Bursa shahrining ham turizm salohiyati oshishiga turtki berdi, yil davomida millionlab sayyohlar shaharning turli tarixiy obidalarini ziyorat etdilar. Bursa, shuningdek, an'anaviy hunarmandchilik va savdo markazi sifatida o'zining qadimiy o'rnini mustahkamladi, deyish ham o'rinli bo'ladi.

Bursa shahri 2022-yil davomida turkiy dunyo o'rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirishga katta hissa qo'shdi. Bu unvon Bursa va boshqa turkiy shaharlar o'rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Bursa shahrining madaniy poytaxtga aylanishi turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni

---

[30] Bursa shahrida "Turk Dunyosi Madaniyat poytaxti 2022" rasmiy ochilish marosimi tashkil etildi. 03.04.2022. https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/bursa-shahrida-turk-dunyosi-madaniyat-poytaxti-2022-rasmiy-ochilish-marosimi/6245560d01a30a1ea060c4fe

[31] Belgrad'ta Bursa Günleri. 13.01.2022. https://bursa2022.org/TR/haber/2022/1/102/belgradta-bursa-gunleri-

[32] Bursa – Turk dunyosining madaniyat poytaxti. 30.03.2022. https://zamon.uz/detail/bursa---turk-dunyosining-madaniyat-poytaxti-dunyo

[33] Bursa shahrida O'zbekiston madaniy merosi loyihalari taqdimoti o'tkazildi. 20.05.2022. https://legacy.uz/uz/bursa-shahrida-ozbekiston-madaniy-merosi-loyihalari-taqdimoti-otkazildi/

mustahkamlashda va shaharning jahon miqyosidagi mavqeyini avvalgidan-da oshirishda muhim rol o‘ynadi. 2022-yilning oxirida Bursada o‘tkazilgan yirik konsertdan so‘ng rasman madaniy poytaxt unvoni Ozarbayjonning Shusha shahriga o‘tdi. Bundan bir necha kun oldin Bursada yangi madaniy poytaxtga bag‘ishlangan “Shusha kunlari”[34] tadbiri ham tashkil qilingandi.

2023-yilda Ozarbayjonning yana bir shahri – Shusha “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilindi[35] va bu unvonni qo‘lga kiritgan o‘n birinchi shaharga aylandi. Shusha shahrini tabriklash maqsadida O‘zbekiston pochtasi tomonidan maxsus pochta markalari ham muomalaga chiqarildi. Shusha shahri o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy ahamiyati va turkiy dunyo uchun muhim markazlardan biri bo‘lganligi sababli ushbu maqomga loyiq ko‘rildi. 2020-yilda Shusha shahri sal kam 30 yil deganda yana Ozarbayjon tarkibiga qaytarildi. 2022-yil Ozarbayjonda “Shusha shahri yili” deya e’lon qilingan edi[36]. Shu munosabat bilan madaniy hayotni jonlantirish maqsadida musiqa bayramlari, she’riyat kunlari, ko‘plab mahalliy va xalqaro madaniy tadbirlar ham o‘tkazildi. 2023-yilda yana bir quvonchli voqea yuz berdi. Doha shahrida bo‘lib o‘tgan Islom olami madaniyat vazirlarining 12-konferensiyasida Ozarbayjonning Qorabog‘ viloyatidagi Shusha shahri 2024-yil uchun Islom olamining madaniy poytaxti deb e’lon qilindi. Shusha shahri Ozarbayjon tarixiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim markazlaridan biriga, jumladan, islom sivilizatsiyasi ramziga aylandi. 2024-yilning iyulida Turkiy davlatlar tashkilotining “Transport, o‘zaro bog‘liqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” nomli navbatdagi norasmiy sammiti[37] qayta tiklanayotgan Shusha shahrida o‘tkazildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu sammitdagi nutqida Haydar Aliyevdan quyidagi: “Shushasiz – Qorabog‘, Qorabog‘siz Ozarbayjon bo‘lmaydi”[38], deyilgan mashhur fikrni keltirib o‘tdi. Shu bilan birga, ushbu anjuman turkiy dunyoning madaniy poytaxtida o‘tayotgani ham ta’kidlandi. TURKSOY rahbari Sultan Rayev ta’kidlaganidek: “Shusha ozodligimiz, mustaqilligimiz va birodarligimiz maskanidir”[39]. So‘nggi yillar Shusha uchun anchayin muhim voqe’liklarga boy bo‘lgani bilan esda qoldi.

---

[34] Bursa’da Şuşa Günleri. 07.12.2022. https://bursa2022.org/TR/haber/2022/12/1184/bursada-susa-gunleri-

[35] 2023 Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şuşa. 02.04.2022. https://www.turksoy.org/haberler/2022-04-02-2023-turk-dunyasi-kultur-baskenti-susa

[36] 2022-yil Ozarbayjonda «Shusha shahri yili» deb e’lon qilindi. 05.01.2022. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2022-yil-ozarbayjonda-shusha-shahri-yili-deb-elon-qilindi

[37] Shushada Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining noformal sammiti bo‘lib o‘tmoqda. 06.07.2024. https://m.kun.uz/news/2024/07/06/shushada-turkiy-davlatlar-tashkiloti-davlat-rahbarlarining-noformal-sammiti-bolib-otmoqda

[38] Shavkat Mirziyoyev Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etdi. 06.07.2024. https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/06/shusha/

[39] Genel Sekreter Raev: “Şuşa Özgürlüğümüzün, Bağımsızlığımızın ve Kardeşliğimizin Mekânıdır.” 14.05.2023. https://www.turksoy.org/haberler/genel-sekreter-raev-susa-ozgurlugumuzun-bagimsizligimizin-ve-kardesligimizin-mekanidir

Shusha shahri Ozarbayjonning tog‘li Qorabog‘ mintaqasida joylashgan bo‘lib, u mamlakatning madaniy va intellektual markazlaridan biri sifatida tanilgan. Shusha uzoq yillar davomida Kavkazning madaniy, ilmiy va diniy markazlaridan biri bo‘lgan. Shahar o‘zining qadimiy qal’alari, masjidlari va madaniy obidalari bilan ham mashhur. Bu yerda muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar va madaniy markazlar joylashgan bo‘lib, ular turli davrlarda yaratilgan hamda saqlanib qolgan. Shusha shahri Ozarbayjonning eng taniqli shoirlari, musiqachilari va san’atkorlarining vatani hisoblanadi. Shusha shuningdek, Ozarbayjon musiqasining poytaxti sifatida ham tanilgan. Tahlilchilar Shushani Ozarbayjon she’riyati va musiqasining beshigi hamda ibodatxonasi, “Kavkaz konservatoriyasi” deb atashadi. Aynan shu shaharda Ozarbayjon musiqa san’atining durdonasi bo‘lmish “mug‘om” (maqom) tug‘ilgan. Shahar o‘zida 248 ta tarixiy yodgorlikni jamlagan holda XX asr so‘nggi choragida “Qo‘riqxona-shahar” nomiga ham sazovor bo‘lgan edi.

Shusha bilan turkiy dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy almashinuv jarayoni kuchaytirilmoqda. Ushbu maqom Shusha va boshqa turkiy shaharlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlik dasturlarini rivojlantirishga, bu bilan esa turkiy xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashga yo‘l hozirlamoqda. 30 yillik mustamlaka asoratlarini tugatish davomida shahardagi qator tarixiy-me’moriy inshootlarda restavratsiya va tiklash ishlari amalga oshirilmoqda. Shaharning tarixiy obyektlarini yanada jonlantirish barobarida turkiy mamlakatlar tomonidan ham yangi, zamonaviy va shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shuvchi binolar qad rostlamoqda. Shusha shahrining tarixiy yodgorliklarini saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun muhim qadamlar tashlandi.

2023-yil davomida Shusha shahri turli madaniy tadbirlarni qabul qildi. Ushbu tadbirlarga xalqaro san’at ko‘rgazmalari, musiqiy festivallar, teatr tomoshalari va adabiy anjumanlar kiradi. Aprel oyida Belgraddagi Madlena san’at markazida bo‘lib o‘tgan “Shusha targ‘ibot kunlari” tadbirlarida TURKSOY tomonidan tayyorlangan “Shusha – 2023-yil Turkiy dunyoning madaniy poytaxti” fotoko‘rgazmasi, Qorabog‘ mintaqasi ayollar milliy kiyimlari kolleksiyasi ko‘rgazmasi, Ozarbayjon va “Qorabog‘ gilamlari” ko‘rgazmalari o‘tkazildi. Oktyabrda Haydar Aliyev tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan anjumanlar doirasida “1-Turkiy dunyo madaniyat forumi” ham o‘tkazildi[40]. Ushbu forum bilan birga “17-TURKSOY fotosuratchilar uchrashuvi” ham ochildi. Unda tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlarning 12 ta fotosuratchisiga tegishli rasmlar ko‘rgazma qilindi. “2-Turkiy dunyo muzeylari uchrashuvi” ham Shusha shahrida bo‘lib o‘tdi. Noyabrda TURKSOY Bosh kotibiyatida Shusha madaniyat kunlari doirasida tashkil etilgan “Shusha rassomlari ko‘rgazmasi”ning ochilishi bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirlar Shushaning boy madaniy merosini keng ommaga

[40] Şuşa’da 1. Türk Dünyası Kültür Forumu düzenlendi. 13.10.2023. https://www.turksoy.org/haberler/susada-1-turk-dunyasi-kultur-forumu-duzenlendi

namoyish qilish va turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Shusha shahrida turizm sezilarli darajada oshib, shaharni ziyorat qiluvchi sayyohlar soni ko‘paymoqda. Shusha o‘zining tarixiy va madaniy boyliklari bilan xalqaro turizm markaziga aylanishi kutilmoqda. TURKSOY doimiy kengashining 40-majlisi Shusha shahrida bo‘lib o‘tdi hamda qator masalalar muhokama qilindi. Asosiy e’tibor, 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar natijasiga qaratildi.

Shusha shahri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” sifatida boy madaniy merosi va tarixiy ahamiyatini xalqaro miqyosda kengroq tanishtirishda davom etmoqda. Ushbu maqom Shusha shahrini turkiy dunyo uchun muhim madaniy markaz sifatida mustahkamlab, uning boy merosini yanada rivojlantirishga katta turtki bo‘ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonda o‘z xalqi va kelajagi uchun qayg‘uradigan har bir davlat yuksak mas’uliyat hamda javobgarlikni anglagan holatda o‘z taraqqiyot yo‘lini qat’iy belgilab olmoqda. Shu tufayli madaniy sohalardagi hamkorlik jahon hamjamiyatini tez va oson tarzda birlashishga undamoqda.

“Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” dasturiga doir qaror 2010-yilda bo‘lib o‘tgan TURKSOYning 10-yig‘ilishida qabul qilingan edi. Bu loyiha doimiy ravishda faoliyatini takomillashtirish ortidan yangilikka intiluvchi TURKSOYning turkiy dunyo madaniy hayotiga olib kirgan yangiliklaridan biri sanaladi. Bu dastur turkiy dunyo shaharlarining san’at va madaniy hayotiga o‘zgacha rang olib kirganiga hech bir shubha yo‘qdir. Asl maqsadi turkiy xalqlarning boy madaniy merosini rivojlantirish va keng targ‘ib qilishdan iborat hisoblangan bu tashabbus orqali turkiy davlatlar tashkiloti turkiy dunyodagi madaniy aloqalarni mustahkamlab, dunyo miqyosida targ‘ib qilishga erishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2017 йил – Шиддатли ислоҳотлар йили (Йил сарҳисоби). – Тошкент: Адо лат, 2018. – Б. 92.

2. Kültür başkentleri. https://www.turksoy.org/kultur-baskentleri

3. 2013 Türk Dünyası Kültür Başkenti Kapanışı – Eskişehir. 24.03.2014. https://www.turksoy.org/haberler/2014-03-24-2013_turk_dunyasi_kultur_baskenti_kapanisi

4. Türk Dünyası Kültür Başkentleri. Topal M. “2013 Yılı Türk Dünyası Kültür B aşkenti: Eskişehir”. – Ankara: Nobel Yayınları, 2020. – S. 127-174.

5. Türk Dünyası Kültür Başkentleri. İzzetgil E. “2016 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şeki”. – Ankara: Nobel Yayınları, 2020. – S. 249-290.

6. 2016 Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şeki. 26.11.2015. https://www.turksoy.org/haberler/2015-11-26-2016-turk-dunyasi-kultur-baskenti-seki

7. 2018 Türk Dünyası Kültür Başkenti Kastamonu. 06.12.2017. https://www.turksoy.org/haberler/2017-12-05-2018-turk-dunyasi-kultur-baskenti-kastamonu

8. Türk Dünyası Kültür Başkentleri. Yaldız F. "2018 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Kastamonu". – Ankara: Nobel Yayınları, 2020. – S. 345-392.

9. Turkiyaning yana bir shahri "Turk dunyosining madaniy poytaxti" deb e'lon qilindi. 09.08.2024. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2017/12/06/turkiyaning-yana-bir-shahri-turk-dunyosining-madaniy-poytaxti-deb-e-lon-qilindi-861919

10. Opening ceremony of "Kastamonu – 2018 Cultural Capital of Turkic World". 21.03.2018. https://turkpa.org/news/632-opening-ceremony-of-kastamonu---2018-cultural-capital-of-turkic-world

11. Bursa-2022 Türk Dünyası Kültür Başkenti. 14.02.2022. https://www.turksoy.org/haberler/2022-02-13-bursa-2022-turk-dunyasi-kultur-baskenti

12. Belgrad'ta Bursa Günleri. 13.01.2022. https://bursa2022.org/TR/haber/2022/1/102/belgradta-bursa-gunleri-

13. Bursa — Turk dunyosining madaniyat poytaxti. 30.03.2022. https://zamon.uz/detail/bursa---turk-dunyosining-madaniyat-poytaxti-dunyo

14. Bursa shahrida "Turk Dunyosi Madaniyat poytaxti 2022" rasmiy ochilish marosimi tashkil etildi. 03.04.2022. https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/bursa-shahrida-turk-dunyosi-madaniyat-poytaxti-2022-rasmiy-ochilish-marosimi/6245560d01a30a1ea060c4fe

15. Bursa shahrida O'zbekiston madaniy merosi loyihalari taqdimoti o'tkazildi. 20.05.2022. https://legacy.uz/uz/bursa-shahrida-ozbekiston-madaniy-merosi-loyihalari-taqdimoti-otkazildi/

16. Bursa'da Şuşa Günleri. 07.12.2022. https://bursa2022.org/TR/haber/2022/12/1184/bursada-susa-gunleri-

17. Bursa-2022 Türk Dünyası Kültür Başkenti. 14.02.2022. https://www.turksoy.org/haberler/2022-02-13-bursa-2022-turk-dunyasi-kultur-baskenti

18. 2023 Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şuşa. 02.04.2022. https://www.turksoy.org/haberler/2022-04-02-2023-turk-dunyasi-kultur-baskenti-susa

19. 2022 yil Ozarbayjonda «Shusha shahri yili» deb e'lon qilindi. 05.01.2022. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2022-yil-ozarbayjonda-shusha-shahri-yili-deb-elon-qilindi

20. Ozarboyjonning Shusha shahri Islom olami madaniy poytaxti deb e'lon qilindi. 26.09.2023. https://m.kun.uz/news/2023/09/26/ozarboyjonning-shusha-shahri-islom-olami-madaniy-poytaxti-deb-elon-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F09%2F26%2Fozarboyjonning-shusha-shahri-islom-olami-madaniy-poytaxti-deb-elon-qilindi

21. Shushada Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining noformal sammiti

bo‘lib o‘tmoqda. 06.07.2024. https://m.kun.uz/news/2024/07/06/shushada-turkiy-davlatlar-tashkiloti-davlat-rahbarlarining-noformal-sammiti-bolib-otmoqda

22. Shavkat Mirziyoyev Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etdi. 06.07.2024. https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/06/shusha/

23. Genel Sekreter Raev: “Şuşa Özgürlüğümüzün, Bağımsızlığımızın ve Kardeşliğimizin Mekânıdır.” 14.05.2023. https://www.turksoy.org/haberler/genel-sekreter-raev-susa-ozgurlugumuzun-bagimsizligimizin-ve-kardesligimizin-mekanidir

24. Şuşa’da 1. Türk Dünyası Kültür Forumu düzenlendi. 13.10.2023. https://www.turksoy.org/haberler/susada-1-turk-dunyasi-kultur-forumu-duzenlendi

REFERENCES:

1. 2017 йил – Шиддатли ислоҳотлар йили (Йил сарҳисоби). – Тошкент: Адолат, 2018. – Б. 92. (In Uzbek)

2. Kültür başkentleri. https://www.turksoy.org/kultur-baskentleri (In Turkish)

3. 2013 Türk Dünyası Kültür Başkenti Kapanışı – Eskişehir. 24.03.2014. https://www.turksoy.org/haberler/2014-03-24-2013_turk_dunyasi_kultur_baskenti_kapanisi

4. Türk Dünyası Kültür Başkentleri. Topal M. “2013 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Eskişehir”. – Ankara: Nobel Yayınları, 2020. – S. 127-174. (In Turkish)

5. Türk Dünyası Kültür Başkentleri. İzzetgil E. “2016 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şeki”. – Ankara: Nobel Yayınları, 2020. – S. 249-290. (In Turkish)

6. 2016 Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şeki. 26.11.2015. (In Turkish) https://www.turksoy.org/haberler/2015-11-26-2016-turk-dunyasi-kultur-baskenti-seki

7. 2018 Türk Dünyası Kültür Başkenti Kastamonu. 06.12.2017. https://www.turksoy.org/haberler/2017-12-05-2018-turk-dunyasi-kultur-baskenti-kastamonu (In Turkish)

8. Türk Dünyası Kültür Başkentleri. Yaldız F. “2018 Yılı Türk Dünyası Kültür Başkenti: Kastamonu”. – Ankara: Nobel Yayınları, 2020. – S. 345-392. (In Turkish)

9. Turkiyaning yana bir shahri “Turk dunyosining madaniy poytaxti” deb e’lon qilindi. 09.08.2024. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2017/12/06/turkiyaning-yana-bir-shahri-turk-dunyosining-madaniy-poytaxti-deb-e-lon-qilindi-861919 (In Uzbek)

10. Opening ceremony of “Kastamonu – 2018 Cultural Capital of Turkic World”. 21.03.2018. https://turkpa.org/news/632-opening-ceremony-of-kastamonu---2018-cultural-capital-of-turkic-world

11. Bursa-2022 Türk Dünyası Kültür Başkenti. 14.02.2022. https://www.turksoy.org/haberler/2022-02-13-bursa-2022-turk-dunyasi-kultur-baskenti (In Turkish)

12. Belgrad’ta Bursa Günleri. 13.01.2022. (In Turkish) https://bursa2022.org/TR/haber/2022/1/102/belgradta-bursa-gunleri-

13. Bursa – Turk dunyosining madaniyat poytaxti. 30.03.2022. (In Uzbek) https://zamon.uz/detail/bursa---turk-dunyosining-madaniyat-poytaxti-dunyo

14. Bursa shahrida "Turk Dunyosi Madaniyat poytaxti 2022" rasmiy ochilish ma rosimi tashkil etildi. 03.04.2022. (In Uzbek)
https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/bursa-shahrida-turk-dunyosi-madaniyat-poytaxti-2022-rasmiy-ochilish-marosimi/6245560d01a30a1ea060c4fe

15. Bursa shahrida O‘zbekiston madaniy merosi loyihalari taqdimoti o‘tkazildi. 2 0.05.2022. https://legacy.uz/uz/bursa-shahrida-ozbekiston-madaniy-merosi-loyihalari-taqdimoti-otkazildi/ (In Uzbek)

16. Bursa’da Şuşa Günleri. 07.12.2022. (In Turkish)
https://bursa2022.org/TR/haber/2022/12/1184/bursada-susa-gunleri-

17. Bursa-2022 Türk Dünyası Kültür Başkenti. 14.02.2022. (In Turkish)
https://www.turksoy.org/haberler/2022-02-13-bursa-2022-turk-dunyasi-kultur-baskenti

18. 2023 Türk Dünyası Kültür Başkenti: Şuşa. 02.04.2022. (In Turkish)
https://www.turksoy.org/haberler/2022-04-02-2023-turk-dunyasi-kultur-baskenti-susa

19. 2022 yil Ozarbayjonda «Shusha shahri yili» deb e’lon qilindi. 05.01.2022. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2022-yil-ozarbayjonda-shusha-shahri-yili-deb-elon-qilindi (In Uzbek)

20. Ozarboyjonning Shusha shahri Islom olami madaniy poytaxti deb e’lon qilin di. 26.09.2023. https://m.kun.uz/news/2023/09/26/ozarboyjonning-shusha-shahri-islom-olami-madaniy-poytaxti-deb-elon-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F09%2F26%2Fozarboyjonning-shusha-shahri-islom-olami-madaniy-poytaxti-deb-elon-qilindi (In Uzbek)

21. Shushada Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining noformal sammiti bo‘lib o‘tmoqda. 06.07.2024. https://m.kun.uz/news/2024/07/06/shushada-turkiy-davlatlar-tashkiloti-davlat-rahbarlarining-noformal-sammiti-bolib-otmoqda (In Uzbek)

22. Shavkat Mirziyoyev Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmi y sammitida ishtirok etdi. 06.07.2024. (In Uzbek)
https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/06/shusha/

23. Genel Sekreter Raev: “Şuşa Özgürlüğümüzün, Bağımsızlığımızın ve Kardeşl iğimizin Mekânıdır.” 14.05.2023. https://www.turksoy.org/haberler/genel-sekreter-raev-susa-ozgurlugumuzun-bagimsizligimizin-ve-kardesligimizin-mekanidir

24. Şuşa’da 1. Türk Dünyası Kültür Forumu düzenlendi. 13.10.2023. https://www.turksoy.org/haberler/susada-1-turk-dunyasi-kultur-forumu-duzenlendi

HISTORY OF TAJIKISTAN-TALIBAN RELATIONS

Rahmonkulov Ikromkul Khudoyberdiyevich
Freelance Researcher,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tel.: +998 93 806-66-77
e-mail: mumtoz1990@bk.ru

Annotation. After the independence of Tajikistan, the establishment of diplomatic relations with neighboring countries became a priority of the country's foreign policy. However, the civil war that started in the country and the seizure of power by the Taliban in neighboring Afghanistan created serious obstacles in the implementation of this priority. In particular, after Tajikistan's independence, the Taliban took power in Afghanistan, leading to concerns about the spread of their ideology to various political and religious groups in Tajikistan. In this article, the history of the development of multifaceted relations between Tajikistan and the Taliban, the role of ethnic, religious and cultural factors is highlighted. The impact of the conflicts in the relations of the two sides on the economic, political, regional cooperation and ensuring the security of the Central Asian countries will be analyzed.

Keywords: *civil war, internal conflicts, ethnic problems, Tajiks, "Taliban" ideology, political field.*

TOJIKISTON-TOLIBON MUNOSABATLARI TARIXI

Rahmonqulov Ikromqul Xudoyberdiyevich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
erkin tadqiqotchisi
Tel.: +998 93 806-66-77
e-mail: mumtoz1990@bk.ru

Annotatsiya. Tojikiston mustaqillikka erishgandan so'ng qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yish mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Lekin mamlakatda boshlangan fuqarolar urushi va qo'shni Afg'onistonda hokimiyatning Tolibon tomonidan egallanishi bu ustuvor yo'nalishni amalga oshirishda jiddiy to'siqlarni yuzaga keltirdi. Xususan, Tojikiston mustaqillikka erishgandan so'ng, Tolibonning Afg'onistonda hokimiyatni egallashi Tojikistonda turli siyosiy va diniy guruhlarga o'z mafkuralarini yoyish bilan bog'liq xavotirlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu maqolada Tojikiston-Tolibon o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning rivojlanish tarixi, bunda etnik, diniy va madaniy omillarning o'rni yoritiladi. Ikki tomon munosabatlaridagi ziddiyatlarning Markaziy Osiyo davlatlariga iqtisodiy, siyosiy, mintaqaviy hamkorlik va davlatlar xavfsizligini ta'minlashga ta'siri masalalari tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *fuqarolar urushi, ichki nizolar, etnik muammolar, tojiklar, Tolibon mafkurasi, siyosiy maydon.*

ИСТОРИЯ ОТНОШЕНИЙ ТАДЖИКИСТАНА И ТАЛИБАНА

Рахмонкулов Икрамкул Худойбердиевич
Независимый научный сотрудник
Ташкентского государственного университета востоковедения
Тел.: +998 93 806-66-77
e-mail: mumtoz1990@bk.ru

Аннотация. После обретения Таджикистаном независимости установление дипломатических отношений с соседними странами стало приоритетом внешней политики страны. Однако начавшаяся в стране гражданская война и захват власти талибами в соседнем Афганистане создали серьезные препятствия в реализации этого приоритета. В частности, после обретения Таджикистаном независимости Талибан пришел к власти в Афганистане, что вызвало опасения по поводу распространения их идеологии среди различных политических и религиозных групп в Таджикистане. В данной статье освещена история развития многогранных отношений Таджикистана и Талибана, роль этнического, религиозного и культурного факторов. Будет проанализировано влияние конфликтов в отношениях двух сторон на экономическое, политическое, региональное сотрудничество и обеспечение безопасности стран Центральной Азии.

Ключевые слова: *гражданская война, внутренние конфликты, этнические проблемы, таджики, идеология Талибана, политическое поле.*

KIRISH

Tojikiston davlati qo‘shni Afg‘oniston bilan nafaqat savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik nuqtayi nazaridan, balki milliy-etnik, diniy-madaniy bog‘liqlik jihatidan muhim munosabatlarga ega. Tojikiston va Tolibon o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-etnik omillarning murakkab fonida rivojlanib, bu ikki qo‘shni subyekt o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shakllantirgan. Tojikiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, diplomatik munosabatlar o‘rnatish uning Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosatining asosiga aylandi. Biroq, bu ambitsiya Tojikiston ichida boshlangan halokatli fuqarolar urushi va keyinchalik Afg‘onistonda Tolibonning kuchayishi tufayli muammolarga duch keldi. Tolibonning hokimiyat tepasiga kelishi Tojikistonda xavotir uyg‘otdi, chunki turli siyosiy va diniy guruhlar o‘rtasida allaqachon to‘qnashuv bo‘lgan mamlakatga radikal mafkuralarning kirib kelishidan xavotirlar kuchaygan edi.

Ushbu tadqiqotda mazkur voqealarni tarixiy-ilmiy jihatdan tahlil etish orqali biz Tojikiston va Tolibon o‘rtasida yuzaga kelgan muhim masalalarga oydinlik kiritishni maqsad qilganmiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tojikiston va Afg‘oniston davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar tarixi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda, asosan ikki mamlakat munosabatlariga ta’sir qiluvchi jihatlar tahlilga tortilgan. Tolibonning hokimiyatga kelish tarixi va istiqbollari haqida D. Yusupov (2022), M. Hamroyev (2021) va F. Rahimov (2023) tadqiqot olib borishgan. Tojikiston-Tolibon munosabatlaridagi etnik xususiyat haqida Q. Iskandarov (2017) va K. Nazarov (1998) tadqiqot olib borgan bo‘lsalar, xorijiy tahliliy markazlar tomonidan bu mintaqadagi siyosiy vaziyat haqida tahliliy materiallar muntazam e’lon qilib boriladi. Ushbu maqola yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarda kam o‘rganilgan Tojikiston-Tolibon munosabatlarining 2021-yildan keyingi holati bo‘yicha mulohazalar va uning O‘zbekistonga ta’siri masalasi tahliliga bag‘ishlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi Tojikiston-Tolibon o‘rtasidagi munosabatlar va bunda yuzaga kelgan ziddiyatlarning O‘zbekistonga ta’siri masalasini ochib berishdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy, tavsifiy va tahliliy metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tojikiston va Afg‘onistonni umumiy tarix, urf-odatlar va an’analar, madaniyat va din, shuningdek, umumiy til birlashtiradi. Ushbu davlatlar uzunligi 1344 km bo‘lgan chegara bo‘ylab qo‘shnichilik munosabatlarini shakllantirib kelmoqda. Bunda tojik millati va Afg‘onistonda hokimiyatni boshqaruvchi kuch omillari asosiy rolni bajaradi.

“Tolibon” va Tojikiston o‘rtasidagi munosabatlar tarixi XX asrning 90-yillari, ya’ni Tojikiston SSSRdan mustaqillikka erishishi, ayni vaqtda Afg‘onistonda toliblar 1996-yilning sentyabrida hokimiyatni egallagan vaqtdan boshlangan. Ikkala davlatdagi fuqarolar urushi, siyosiy beqarorlik, anarxiya va etnik tojiklar omili o‘zaro chegaralarda diniy radikallashgan qurolli guruhlarning har ikki tarafdagi harakatlarga aralashishi, terrorchi guruhlarning paydo bo‘lishi va giyohvand moddalarning katta miqdordagi noqonuniy aylanmasi shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, toliblarning shar’iy boshqaruvga asoslangan davlatni shakllantirgani, terrorchi tashkilotlar bilan yashirin aloqalarni saqlab qolgani va mamlakatda diniy radikallashgan jangari guruhlar faoliyatiga yo‘l ochib bergani nafaqat qo‘shni Tojikistonning mavjudligiga, balki mintaqa xavfsizligiga tahdidlarni yuzaga keltirdi.

Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi chegaraning Afg‘oniston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tutashishi, ikki davlatni Afg‘onistondagi fuqarolik urushining salbiy ta’sirlariga duchor qilgan. Afg‘onistondagi nizolar, xususan, “Tolibon”ning hokimiyatga kelishi, O‘zbekistonga afg‘on qochqinlari kirib kelishiga sabab bo‘lgan edi.

1994-yildan boshlab Afg‘onistonda hokimiyat uchun kechayotgan ichki kurashlarga yangi siyosiy kuch – “Tolibon” radikal islomiy harakati ham qo‘shiladi va 1996-yilning sentyabr oyida Qobulda hokimiyatni egallaydi. Mamlakat Afg‘oniston islom amirligi deb e’lon qilinadi va shar’iy boshqaruvga asoslangan tizim joriy etiladi.

Mamlakat xalqaro terrorchilarni tayyorlash markaziga aylanadi, giyohvand moddalar yetishtirish va bu mahsulotlarning aylanmasi yanada kengayadi. Qo‘shni Tojikistonda ham fuqarolar urushi jarayonida diniy-islomiy radikalizmga tayanuvchi qurolli guruhlar va yetakchilar mavjud demokratik tuzumga qarshi kurashni faollashtira boshlashi, o‘z navbatida, mustaqil Tojikistonning mavjudligiga jiddiy tahdidlarni yuzaga keltirdi. Shu bois Tojikiston tashqi siyosatida “afg‘on masalasi”ni tinch yo‘l bilan hal qilish yo‘llarini izlash, mamlakatdagi vaziyatni tezroq barqarorlashtirishga hissa qo‘shish dolzarb ahamiyatga ega yo‘nalishga aylandi. Shu bois Tojikiston oliy rahbariyati Afg‘onistonda “Tolibon” harakatiga qarshi kurashayotgan AQSH va uning ittifoqchilarini faol qo‘llab-quvvatladi. Tojikistonda davom etayotgan fuqarolar urushini imkon qadar tezroq tugatishga, Afg‘oniston bilan chegara hududlarda xavfsizlikni ta’minlashga jiddiy e’tibor qarata boshladi. Bunda Tojikiston rahbariyati KHSHTning qurolli imkoniyatlaridan foydalanish, xususan, mintaqa davlatlari ko‘magiga tayanishni maqsad qildi. Bunda O‘zbekistonning amaliy yordamlari asosiy rolni bajardi. Natijada, 1997-yilda Tojikistonda fuqarolar urushi barham topgan bo‘lsa, 2001-yilga kelib AQSH va uning NATOdagi ittifoqchilari “Tolibon”ni hokimiyatdan ag‘darish va mamlakatda respublika tuzumini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Ya’ni, 2001-yil 11-sentyabrda AQShda sodir bo‘lgan terrorchilik hujumlari Afg‘onistondagi “Tolibon” hukumati tomonidan maxfiy tarzda dastaklanadigan “Al-Qoida” terrorchilik tashkiloti bilan bog‘liq edi. Shundan so‘ng, AQSh va uning ittifoqchilari Afg‘onistonga hujum qilib, toliblar tuzumini ag‘darishadi. Bu jarayonda Tojikiston AQShning Afg‘onistondagi harbiy operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlab, o‘z hududini tranzit sifatida taqdim etdi. Tojikiston, asosan, Afg‘onistondagi xavfsizlikni tiklashga qaratilgan xalqaro harakatlar bilan faol hamkorlikni davom ettirdi.

Tojikistonning “Tolibon”ga qarshi qaratgan siyosati faqatgina uning xavfsizlik manfaatlariga asoslanmagan, balki mintaqadagi siyosiy va etnik barqarorlikni ta’minlashga ham qaratilgan edi. “Tolibon”ning shar’iy va ekstremistik g‘oyalarga asoslangan siyosati, jumladan, ayollarni zamonaviy erkinlikdan mahrum qilish, diniy va siyosiy muxolifatni jazolash kabi amaliyotlari Afg‘onistonga qo‘shni bo‘lgan boshqa musulmon davlatlari uchun ham tahdid sifatida qaraldi.

Oradan 20 yil vaqt o‘tgach, ya’ni 2021-yilning avgust oyida o‘zining diniy-mafkuraviy faoliyati va qurolli qarshiligini to‘xtatmagan “Tolibon” harakati poytaxt Qobulda ikkinchi marta hokimiyatni egallab oladi. Afg‘onistonda shar’iy tuzumga asoslangan boshqaruvning o‘rnatilishi mintaqa davlatlari uchun yangi tendensiyalarni yuzaga keltirdi. 1990-yillarda “Tolibon”ning ekstremistik va shariatga tayangan siyosatidan ehtiyotkor tajribaga ega bo‘lgan Tojikiston toliblarning yangi hukumatini tan olishdan bosh tortdi.

Tojikiston, ayniqsa, Afg‘onistonda inklyuziv hukumatni shakllantirish, etnik tojiklar, inson huquqlari va ayollar huquqlarini himoya qilish masalalarida qat’iy turdi. 2021-yildan so‘ng, Tojikiston o‘zining mintaqaviy xavfsizligini ta’minlash uchun Afg‘onistondan keladigan tahdidlar bilan kurashishga kirishdi. Tojikiston

hukumatining yuqori darajadagi rahbarlari, ayniqsa, toliblarning ideologiyasi va siyosatiga qarshi ochiq pozitsiyasini bildira boshladi.

Xususan, Tojikiston prezidenti Emomali Rahmon Afg‘onistonda hokimiyatni boshqarib kelayotgan Tolibon hukumati faoliyatini zulm va zo‘ravonlikka asoslanganlik, etnik ozchilik huquqlarini ta’minlamaganlik, hokimiyatni shakllantirishda inklyuzivlik talablarini bajarmaganlikda ayblab keladi[41]. Emomali Rahmon o‘zining nutqlarida Tolibon Afg‘onistonda aholining 46 foizini tashkil qiluvchi (ko‘pchilik tadqiqotchilar 20 foiz deb ta’kidlaydi) etnik tojiklar uchun hokimiyatda yetarli o‘rin ajratmayotgani, toliblar qiz-ayollarning huquq va erkinliklariga to‘sqinlik qilayotgani, mamlakatda faol bo‘lgan ayrim terrorchi guruhlarni yashirincha qo‘llab kelayotganini bir necha marta takrorlagan.

Tolibon bunga javoban turli tahdidli munosabatlarni bildirdi. Jumladan, Tolibon hukumati rahbari o‘rinbosari, etnik o‘zbek A. Hanafiy 2021-yilning sentyabr oyida “Al-Jazira” telekanaliga bergan intervyusida toliblar Tojikiston bilan yaxshi munosabatlarga egaligini ta’kidlasa-da, tojik tomonini Afg‘onistonning ichki ishlariga aralashmaslikka chaqirgan va shunday holat yuz bersa, bunga nisbatan javob choralari qo‘llanishini aytgan[42]. Tolibon poytaxt Qobulda hokimiyatni qo‘lga olganidan ko‘p o‘tmasdan shimoliy viloyatlar, ya’ni Tojikiston bilan chegaradosh bo‘lgan Toxar va Badaxshon hududlariga “Lashkari Mansuriy” nomi bilan tanilgan xudkush-jangarilardan iborat batalyonlarni joylashtirdi va buni mintaqa xavfsizligi uchun amalga oshirayotganini qo‘shimcha qildi. O‘z navbatida, prezident Emomali Rahmon KXSHT doirasidagi chiqishida Afg‘onistonning shimoli-sharqiy hududlarida 6 mingdan ortiq jangarilar faol ekanini, xususan, bu hududlarda 40 dan ortiq terror lagerlari tashkil qilinganini keltirgan va tashkilotdan toliblarning turli guruhlari o‘rtasidagi ichki urushlarni bartaraf etish uchun ushbu mamlakat atrofida xavfsizlik kamarini yaratishga chaqirgan edi[43].

Shuningdek, Tolibon Mudofaa vazirligi yetakchilaridan biri, etnik tojik Qori Fasihuddin Fitrat 2022-yil fevral oyida toliblarning zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan qurollangan 10 ming nafar jangarisi Afg‘onistonning shimoliy viloyatlariga joylashtirilayotganini ma’lum qilgan. U ushbu hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qurolli hujumga qarshi turish uchun shunday choralar ko‘rilayotganini qo‘shimcha qilgan. Bundan tashqari, qisqa vaqt ichida ushbu jangchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida jangovar samolyotlar ham jalb qilinishini ta’kidlagan edi[44].

---

[41] Президент Таджикистана: Афганистан превратился в площадку для геополитических игр, Новости ООН, 23 сентябрь, 2021.

[42] Талибы призвали руководство Таджикистана не вмешиваться во внутренние дела Афганистана, ТАСС, 27 сентябрь, 2021.

[43] Taliban’s decision to deploy troops in north and northeast provinces raise concern in neighboring countries, Asia-Plus, February 17, 2022.

[44] Талибы направят к границе Афганистана с Таджикистаном и Узбекистаном 10 тысяч боевиков, Интерфакс, 14 февраль, 2022

Bu kabi harbiy-siyosiy taranglik ikki o‘rtada qurolli nizolarga ham sabab bo‘lish ehtimolini oshirdi. Jumladan, 2022-yilning 15-may kuni Tojikistonga chegaradosh bo‘lgan Sherxon-Bandar tumanida Tolibon va tojik chegarachilarining og‘zaki tortishuvidan so‘ng yuzaga kelgan taranglik 4 soatlik otishmaga aylanib ketgan[45]. Ta’kidlanishicha, Afg‘oniston hududidan bir nechta qurolli mashinalar tojik chegarasiga kelgan va qo‘shni davlat hududiga snaryadlar otgan. Bu harakat aksariyat OAVda harbiy to‘qnashuv sifatida baholandi. Bunga javoban Tojikiston tomoni o‘z chegaralari xavfsizligini ta’minlash maqsadida, o‘zining mintaqaviy hamkorlik subyekti maqomidan foydalangan holda, KXSHT doirasida harbiy-o‘quv mashg‘ulotlarini kuchaytirganiga ishora qiluvchi harakatlarni boshladi. Ya’ni, ushbu tashkilot hamkorligida mamlakatdagi “Harbmaydon” poligonida tezkor-strategik mashg‘ulotlar, chegara xavfsizligi va chegarani qo‘riqlashga qaratilgan harbiy amaliyotlarni tashkillashtirdi.

Tolibon Afg‘oniston ichkarisida ularga qarshi Panjsher viloyatining tog‘li hududlarida qurolli harakatlarni davom ettirayotgan, tarkibi etnik tojiklardan iborat bo‘lgan, kichik A. Mas’ud boshchiligidagi “Milliy qarshilik fronti”ni Tojikiston tomoni qo‘llab-quvvatlayotganiga oid bayonotlarni berdi va qo‘shni davlatni bu harakatlardan tiyilishga chaqirdi. Mazkur ziddiyatlar fonida Tolibonning 217-“Umariy” armiya korpusi yetakchilaridan biri mulla Jon Muhammad Xamza 2022-yilning avgust oyida Tojikiston Afg‘onistonning ichki ishlariga aralashishni to‘xtatmasa, RF ushbu mamlakatni qo‘llab-quvvatlamasa, toliblar bir hafta ichida qo‘shni davlatni zabt etishi mumkinligidan ogohlantirdi[46].

Tojikiston tomonining Tolibon Afg‘onistonda rasmiy Dushanbega qarshi kayfiyatdagi jangari guruhlarni qo‘llayotganiga oid da’volari tasdig‘i sifatida 2022-yil iyul oyida “Taxrike Tolibon Tojikiston” terrorchi tashkiloti tuzilganini keltirish mumkin. Afg‘on yo‘nalishidagi mutaxassislar va ayrim OAV manbalari keltirayotgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu terrorchi tashkilotga asli kelib chiqishi tojikistonlik bo‘lgan Muhammad Sharipov (taxallusi Mahdi Arsalon) boshliq etib tayinlangan.

Ma’lumot o‘rnida, Muhammad Sharipov 1995-yilda Tojikistonda tug‘ilgan, terrorchilik faoliyati tufayli tojik huquq-tartibot organlari tomonidan qidiruvga berilgan. U maqsadi Dushanbedagi hokimiyatni ag‘darish bo‘lgan tojiklardan iborat “Ansorulloh jamoati” nomli terrorchi tashkilot (Afg‘oniston hududida faol) a’zosi bo‘lgan.

Mintaqadagi siyosiy jarayonlarni sharhlab boruvchi A. Serenko, R. Sagitov, A. Djustossi, B. Rubin kabi tahlilchilarning fikricha, Tolibon Afg‘oniston shimolida tarkibi asosan mintaqaviy jangarilar, ya’ni markaziy osiyolik jangarilardan iborat bo‘lgan terrorchi guruhlar bilan yashirin hamkorlikka ega. Shuningdek, toliblar Tojikistondagi joriy hukumatga qarshi bo‘lgan jangari guruhlarni qo‘llashi, ularning

[45] Вооруженные столкновения произошли на афганско-таджикской границе, Интерфакс, 15 май, 2022.

[46] Предупреждение командира «Талибана»: «Мы можем завоевать Таджикистан за неделю», Ася-Плюс, 3 август, 2022.

tarkibiga diniy radikalizm ta’siriga moyil bo‘lgan tojikistonlik yoshlarni jalb qilishi haqida ma’lumotlar mavjud. Ayrim o‘rinlarda “Taxrike Tolibon Tojikiston” terrorchi guruhi Tojikiston hududida xuddi Afg‘onistondagi kabi islom amirligi davlatini o‘rnatishni maqsad qilgani ta’kidlanadi. Biroq “Taxrike Tolibon Tojikiston” terrorchilik guruhi afg‘on-tojik chegarasida “yangi qurolli aktor” sifatida ko‘rilmayotgan o‘rinlarni ham ta’kidlash joiz. Ayrim afg‘onshunos ekspertlarning fikriga ko‘ra, Tolibon rahbariyati ushbu chegara hududida avvaldan faol bo‘lgan mintaqaviy jangari guruhlar nomini o‘zgartirdi (rebrendingni amalga oshirdi). Ya’ni, ularni “Taxrike Tolibon Tojikiston” nomi ostida birlashtirdi (Ramachandran S., 2023: 6). Ikki taraflama siyosiy taranglik davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, Tolibon va Tojikiston o‘rtasida kelishuvga erishilayotgan holatlar mavjudligini keltirish maqsadga muvofiq. Xususan, Tojikiston tomoni Afg‘onistonga elektr energiyasini eksport qilishda davom etayotgani, bu boradagi yirik mintaqaviy loyiha sanaladigan CASA-1000 dasturi doirasida ishlar to‘xtatib qo‘yilmagani bunga misol bo‘ladi.

Shuningdek, 2024-yilning avgust oyida Tojikiston Respublikasi milliy xavfsizlik davlat qo‘mitasi raisi S. Yatimov toliblar bilan munosabatlarni yaxshilash va asirdagi ayrim tojik razvedkachilarini ozod qilish bo‘yicha muzokara o‘tkazish uchun Qobulga borgan[47]. U yerda Tolibon yetakchilaridan tashqari toliblarning xavfsizlik kuchlari rahbarlar bilan ham uchrashgan. Ayrim OAV mazkur tashrif kichik A. Mas’ud boshchiligidagi “Milliy qarshilik fronti”ning (Afg‘onistonda toliblar hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni amalga oshiradi) Dushanbe shahridagi ofisi yopilishi va Tojikistonning Tog‘li Badaxshon avtonom viloyatining Xorog shahridagi Afg‘oniston konsulligi Tolibon ixtiyoriga o‘tgan vaqtda yuz berganiga e’tibor qaratgan. Mazkur jarayon Tolibon va Tojikiston o‘rtasida ziddiyatlar mavjud bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda o‘zaro kelishuvlar yuzaga kela boshlaganidan dalolat beradi.

Shunday bo‘lsa-da, xalqaro hamjamiyat talab qilib kelayotgan inklyuzivlikka asoslangan hukumat tuzish, inson huquqlarini ta’minlash, xususan, Afg‘onistonda qiz-ayollar huquqlariga to‘sqinlik qilmaslik, terrorchi guruhlar va tashkilotlar bilan aloqalarni to‘xtatish talablariga Tolibon amalda hech qanday ijobiy javob bermay kelmoqda. Shuningdek, toliblar Afg‘onistonda qat’iy shar’iy qoidalarga asoslangan davlatni shakllantirishga intilmoqda. Toliblarning Tojikiston bilan bog‘liq ziddiyatlar misolida namoyon bo‘layotgan pozitsiyalari va yuqorida sanalgan omillar Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari, xususan, qo‘shni O‘zbekiston uchun bir qator xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

- **Siyosiy xatarlar.** Birinchidan, Tolibon va Tojikiston ziddiyatlari fonida toliblar shimoliy viloyatlarda mintaqaviy terrorchi guruhlar bilan hamkorlikni davom ettirishi O‘zbekistonga nisbatan terrorizm va ekstremizm xavfi kuchayishiga, diniy radikalizm g‘oyalarining tarqalishiga olib keladi. Ikkinchidan, chegara hududlarida

[47] Саймумин Ятимов: Поездка в Кабул была «содержательной», Азда ТВ, 10 сентябрь, 2024

terrorchi guruhlarning to‘planishi, toliblarning ular xizmatidan foydalanish ehtimoli O‘zbekistonning chegara xavfsizligiga tahdidlarni yuzaga keltiradi;

- **Iqtisodiy ta’sir.** Ikki tomonlama ziddiyat Afg‘onistondagi ayrim mintaqaviy muhim loyihalarning istiqbolini xavfga qo‘yishi mumkin. Bu O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi;
- **Migrantlar va qochqinlar oqimining yuzaga kelishi.** Toliblarning Tojikistonga nisbatan turli tahdidlari va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni o‘nglay olmaslik holati Afg‘oniston va Tojikiston hududidan O‘zbekistonga migrantlar va qochqinlar oqimini yuzaga keltirishi mumkin;
- **Mintaqaviy hamkorlikka ta’sir.** Tojik-Tolibon ziddiyatlarining kuchayishi mintaqa davlatlarining o‘zaro hamkorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Tojikiston bilan turli yo‘nalishlarda muhim ittifoqchilik aloqalariga ega. Mazkur taranglikning zo‘rayishi bu munosabatlarga putur yetkazishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tojikiston va Tolibon o‘rtasida davom etayotgan ziddiyatlar bevosita qo‘shni O‘zbekistonning milliy xavfsizligiga salbiy ta’sirini ko‘rsatish ehtimoli bor. Xususan, ushbu taranglik fonida diniy radikallashish jarayoni mintaqaga tezkorlik bilan yoyilishi, toliblar Afg‘onistonda islom amirligi qoidalari asosida davlat tuzishga qat’iy intilayotgani, mamlakatdagi boshqa terrorchi guruhlar bilan yashirin hamkorlikni saqlab qolayotganligi mazkur muammoga nisbatan jiddiy yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda O‘zbekistonning Tojikiston bilan o‘zaro siyosiy, harbiy hamkorligi va Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash borasidagi faoliyatlari mamlakat milliy xavfsizligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Tojikiston va Tolibon o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va tahlil qilish esa Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash uchun zarurdir. Zero, qo‘shni davlatlarning tinch bo‘lishi butun mintaqada olib borilayotgan do‘stona aloqalarning rivojlanishini, ezgu niyatlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini ko‘rishimizni ta’minlaydi. Uzoq va yaqin o‘tmishimizdagi voqea-hodisalardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tarixiy xatolarni takrorlamaslik barchamiz uchun birdek dolzarbdir. Maqola yakunida shuni taklif etgan bo‘lardimki, mintaqamizdagi chigal masalalarga yechim bera oladigan mutaxassislarni ko‘proq yetishtirish, atrofda bo‘layotgan jarayonlardan xabardor bo‘lgan va tahlillar asosida oqilona xulosalarni chiqara oladigan kadrlarni tayyorlash lozim deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Khamroev, M. (2022). The Taliban’s Influence on Central Asian Politics. – Tashkent.
2. Khamroev, M. (2020). Security Dynamics in Central Asia: The Impact of Afghanistan. – Almaty.
3. Rahimov, F. (2023) The Dynamics of Tajik-Afghan Relations. – Dushanbe.

4. Rahmonov, R. (2020) From War to Peace: Tajikistan's Relations with the Taliban. – Almaty.

5. Rasulov, K. (2021) Tajikistan and the Taliban: A Historical Analysis. – Dushanbe.

6. Samadov, L. (2024) Security Challenges for Tajikistan in the Post-Taliban Era. – Bishkek.

7. Sudha Ramachandran, Tajikistan Faces Threat from Tajik Taliban, The Central Asia-Caucasus Analyst, March 27, 2023.

8. Рахмон: "Талибан" не предпринял шагов, чтобы убедить мир в легитимности своей власти: https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/15270681

9. Один против «Талибана». Зачем Таджикистан конфликтует с новыми властями Афганистана: https://carnegieendowment.org/posts/2021/10/why-tajikistan-is-taking-a-stand-against-the-taliban?lang=ru

REFERENCES:

1. Khamroev, M. (2022). The Taliban's Influence on Central Asian Politics. – Tashkent.

2. Khamroev, M. (2020). Security Dynamics in Central Asia: The Impact of Afghanistan. – Almaty.

3. Rahimov, F. (2023) The Dynamics of Tajik-Afghan Relations. – Dushanbe.

4. Rahmonov, R. (2020) From War to Peace: Tajikistan's Relations with the Taliban. – Almaty.

5. Rasulov, K. (2021) Tajikistan and the Taliban: A Historical Analysis. – Dushanbe.

6. Samadov, L. (2024) Security Challenges for Tajikistan in the Post-Taliban Era. – Bishkek.

7. Sudha Ramachandran, Tajikistan Faces Threat from Tajik Taliban, The Central Asia-Caucasus Analyst, March 27, 2023.

8. Raxmon: "Taliban" ne predprinyal shagov, chtobi ubedit mir v legitimnosti svoyey vlasti: https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/15270681 (In Russian)

9. Odin protiv "Talibana". Zachem Tadjikistan konfliktuyet s novimi vlastyami Afganistana: https://carnegieendowment.org/posts/2021/10/why-tajikistan-is-taking-a-stand-against-the-taliban?lang=ru (In Russian)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY

AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Raxmatova**
Texnik muharrir: **Dilnura Nig‘matova**
Musahhih: **Komiljon Yunusov**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2024-yil 28-noyabr 3-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.